

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

N.MURADULLAEV, Q.R.RAHMONOV, T.S.BURXONOV, N.SH.UMAROV

YER MONITORINGI

“5311500 - Geodeziya, kartografiya va kadastr” ta'lim yo‘nalishi

"5620700 - Yer tuzish va yer kadastr" mutaxassisligi

"5A620701 - Yer tuzish va yer kadastr" magistratura

Samarqand-2019

Annotatsiya

O'quv qo'llanmada respublikamizda yer monitoringini yuritish tizimi, uning mazmuni, mohiyati va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda uning ahamiyati, shu jumladan qishloq xo'jalik va shahar yerlarida monitoring o'tkazishning tartibi, vazifalari hamda xalq xo'jaligidagi ahamiyati yoritilgan.

O'quv qo'llanma Oliy o'quv yurtlarining 5311500 - Geodeziya, kartografiya va kadastr, 5620700 - Yer tuzish va yer kadastr, 5140900 - Kasb ta'limi (Yer tuzish va yer kadastr) bakalavrait ta'lim yo'nalishlari hamda 5A620701 - Yer tuzish va yer kadastr magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

Аннотация

Данное учебное пособие описывает систему ведения земельного кадастра в республике Узбекистан, его значение и сущность, а также его роль в развитие национальной экономики, включая порядок, а также задачи и значение проведения мониторинга на сельскохозяйственных и городских земельных участках.

Учебное пособие предназначено для подготовки студентов бакалавриата обучающихся по специальностям 5311500 - Геодезия, картография и кадастр (кадастр зданий и сооружений)", Образовательное направление "5311500 - Геодезия, картография и кадастр", а также магистратуры по специальности 5A311502-Геодезия и картография

Abstract

This study textbook describes the system of land cadaster management in the Republic of Uzbekistan, its importance and essence, as well as its role in the development of the national economy. Moreover it describes the order, as well as tasks and essence of monitoring of agricultural and urban land plots.

The study textbook is intended for preparation of students of a bachelor degree studying on specialties 5311500 - Geodesy, cartography and cadaster (cadaster of buildings and constructions)", Educational direction "5311500 - Geodesy, cartography and cadaster", and also masters on a specialty 5A311502-Geodesy and cartography

Taqrizchilar: "SAMVILLOYIXA" instituti Samarqand bo'linmasi. Loyixa bosh muxandisi J.Abduraxmonov

Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti "Bino va inshootlar kadastr" kafedrası mudiri texnika fanlari nomzodi, dotsent D.O.Jo'raqulov

MUNDARIJA

Kirish	4
I-bob. Yer monitoringining mazmuni, vazifalari va yo'nalishlari	7
II-bob. Yer monitoringi yuritish tizimi	18
III-bob. Yer monitoringini yuritishda qo'llaniladigan uslublar	37
IV-bob. Agrosanoat kompleksida yer monitoringini yuritish xususiyatlari	45
V-bob. Yer monitoringini o'tkazishda texnik-axborot vositalar.....	51
VI-bob. Aholi punktlari yerlari monitoringining xususiyatlari.....	58
VII-bob. Yer monitoringining mintaqaviy tizimi	72
VIII-bob. Qishloq xo'jalik yerlarida tuproq monitoringi va tabiiy yaylovlarda o'simliklar monitoringini o'tkazish tartibi.....	89
IX-bob. Yer monitoringining ilmiy-texnik ta'minoti.....	93
X-bob. Yer monitoringi natijalarini ko'rib chiqish va tasdiqlash.....	129
XI-bob Yer monitoringida uchuvchisiz uchish qurilma(dron)larni qo'llash ...	133
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	141

СОДЕРЖАНИЕ

Введение	4
Глава I Содержание, задачи и направления мониторинга земель	7
Глава II Система мониторинга земель	18
Глава III Методы, используемые в мониторинге земель	37
Глава IV Особенности мониторинга земель в агропромышленном комплексе	45
Глава V Техническое и информационное оборудование для мониторинга Земли	51
Глава VI. Особенности мониторинга земель населенных пунктов	58
Глава VII. Региональная система мониторинга земель	72
Глава VIII. Проведение мониторинга сельскохозяйственной продукции в сфере сельскохозяйственного мониторинга	89
Глава IX Научно-техническое обеспечение мониторинга земель	93
Глава X. Обзор и подтверждение результатов мониторинга земель	129
Глава XI Использование беспилотных летательных аппаратов (дронов) в мониторинге земель	133
Список литературы	141

CONTENT

Introduction	4
Chapter I Content, tasks and directions of land monitoring	7
Chapter II Land Monitoring System.....	18
Chapter III Methods used in land monitoring	37
Chapter IV Peculiarities of land monitoring in the agricultural sector	45
Chapter V Technical and information equipment for the land monitoring	51
Chapter VI. Features of lands monitoring of settlements	58
Chapter VII. Regional system of lands monitoring	72
Chapter VIII. Monitoring of soil and plants in natural pastures for agricultural purposes.....	89
Chapter IX Scientific and technical support for land monitoring.....	93
Chapter X. Review and confirmation of land monitoring results	129
Chapter XI The use of unmanned aerial vehicles (drones) in land monitoring	133
Bibliography.....	141

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998 yilda qabul qilingan "Yer kodeksi" va 2000 yil 23 dekabrda qabul qilingan "Yer monitoringi to'g'risidagi Nizom" va boshqa qonunlarni amalga oshirish uchun soha mutaxassisilari tomonidan katta hajmdagi ishlarni bajarish talab qilinadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun 5620700-"Yer tuzish va yer kadastri" ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarni yuqori malakali bakalavrlar bo'lib yetishishi zarur.

O'zbekiston Respublikasida joriy etilayotgan yer monitoringi barcha yer fondining mavjud holati to'g'risida, uni baholash, o'z vaqtida sifat va miqdor o'zgarishlarini aniqlash, yerdan foydalanishda ro'y berishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni bartaraf qilish bo'yicha kuzatuvlar tizimini o'z ichiga oladi.

"Yer monitoringi" fani respublikamizning yer fondidan foydalanishda yerning mavjud holatini kuzatib borish, salbiy oqibatlarining oldini olish va bashoratlash ishlarini amalga oshirishni hamda zarur axborotlar bilan ta'minlashni o'rganadi.

Mazkur o'quv qo'llanmada yer monitoringini yuritish maqsadi, tizimi, tartibi va usullari keltirilgan bo'lib, ularni amalga oshirishda qo'llaniladigan asboblari, tekshirish hamda natijalarini taxlil qilish va bajarilishini o'rganish uchun yordam beradi.

Tabiiy resurslar orasida yer ayniqsa katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining ma'lumotlariga asosan mamlakatimizning umumiy yer maydoni 2005 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 44410,3 ming. ga ni tashkil etadi. Ushbu maydonning 90 foizdan ortig'i davlat tomonidan egalik qilish, foydalanish, mulk va ijara asoslarida turli qishloq hamda noqishloq xo'jalik korxonalar va tashkilotlarga, shuningdek fuqarolarga birlashtirilgan. Ular ushbu maydonlarda o'z faoliyatlarini to'liq amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida qayd qilinadiki, yer resurslari respublikaning milliy boyligidir. Ulardan oqilona va samarali foydalanish zarur. Bu esa ko'p jihatdan yerning eng muhim xossalari va xususiyatlari qanchalik chuqur va har tomonlama o'rganilganligiga bog'liq. Bu eng

avvalo, yerdan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan tadbirlar majmuini ishlab chiqishga izchillik bilan yondoshish va amalda to'plangan tajribalarga suyangan holda tashkil etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi 1998 yil 29 apreldagi Oliy Majlis Kengashlarida qabul qilingan "Yer kodeksi", "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkati) to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi, 1993 yil 6 maydagi "Yer solig'i to'g'risida" gi, 1998 yil 30 avgustdagi "Davlat yer kadastrini to'g'risida"gi, 2000 yil 31 dekabrda "Davlat yer kadastrlari to'g'risida" qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 17 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida Davlat kadastrlarining yagona tizimini yaratish to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash to'g'risida", 1998 yil 31 dekabrda 543-sonli "O'zbekiston Respublikasida davlat yer kadastrini yuritish tartibi to'g'risida"gi qarorlari va boshqa qator me'yoriy xujjatlar yerlardan foydalanishni tashkil etishga yo'naltirilgan asosiy davlat tadbiri hisoblangan yer monitoringiga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirib yubordi. Natijada yerdan foydalanishda yangi shakllar vujudga keldi hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar doirasi kengaydi.

Yerni har tomonlama yaxshilash, uning unumdorligini va iqtisodiy samaradorligini oshirish - bu iqtisodiyot tarmoqlarini, jumladan qishloq xo'jaligini yuritishning ilmiy tizimi asoslari va yerdan yuqori mahsuldorlik bilan foydalanishdir. Yerdan to'g'ri foydalanish, zamon va makonda har xil o'simlik turlarining ilmiy asoslangan ketma-ketligini joriy etish, tuproqqa ekologik "toza" ishlov berish usullarini qo'llash, o'g'itlash, qulay agrotexnik muddatlarda amalga oshirish, o'simliklarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish, tuproq eroziyasiga qarshi kurash kabi muayyan elementlar aniq qonunchilik yo'li bilan boshqarishni talab qiladi. Bunda ham yer kadastrini yer resurslaridan foydalanishni boshqarishning muhim richagi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 15-moddasiga muvofiq, davlat yer kadastrini yerlarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy tartibi, ularning toifalari, sifat ko'rsatkichlari va qiymati, yer uchastkalarining joylashgan o'рни va o'lchamlari to'g'risidagi, yer uchastkalarini yerdan foydalanuvchilarga taqsimlash to'g'risidagi

zarur, ishonchli ma'lumotlar va xujjatlar tizimidan iborat.

Davlat yer kadastrini tartibga solish, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, yer tuzish ishlarini tashkil etish, yer tuzish, yer uchun to'lanadigan haq miqdorlarini asoslash xo'jalik faoliyatiga baho berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni yer to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangandir.

Davlat yer kadastrini muhim iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Uning ma'lumotlaridan iqtisodiyot tarmoqlarining turli masalalarini hal qilishda, jumladan yer solig'ini joriy etish, yer maydonlariga ijara haqi miqdorlarini belgilash, qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini rejalashtirish, yer tuzish va umuman yerdan foydalanish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan barcha masalalarni hal qilishda keng qo'llaniladi.

Respublikamizda davlat yer kadastrini yuritish Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrini davlat qo'mitasining tuman, shahar, viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yerlardan oqilona foydalanishni tashkil etishda, yer tuzish ishlarini ilmiy asoslangan holda bajarish yer kadastrining ahamiyatini hisobga olgan holda mamlakatimizning sug'oriladigan hududlarida joylashgan qishloq xo'jalik korxonalarida yer tuzuvchi mutaxassis lavozimi joriy qilingan. Respublikamizning qator oliy o'quv yurtlarida yer kadastrini ixtisosligi bo'yicha bakalavrlar va magistrlar, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari esa maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Yer kadastrini ilmiy fan sifatida yerni iqtisodiy tarmoqlarda ishlab chiqarish vositasi ekanligi to'g'risidagi ta'limotga, rivojlanayotgan demokratik jamiyatning yer munosabatlariga hamda dunyoni bilishning dialektik uslubiyatiga asoslanadi. Yer kadastrini o'rganish u bilan chambarchas bog'langan ilmiy fanlar (iqtisodiyot nazariyasi, qishloq xo'jaligi iqtisodi, yer huquqi, yer tuzish va yer munosabatlari, yer tuzishning nazariy asoslari, yer tuzishni loyihalash, kartografiya, yer resurslarini boshqarish, davlat kadastrini asoslari, yer monitoringi, tuproqshunoslik, melioratsiya

va boshqalar)ning nazariy, uslubiy va amaliy ishlanmalariga tayanadi. Yer resurslari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilishda matematik, statistik, geodezik, fotogrammetrik va kartografik uslublaridan foydalaniladi. Bundan tashqari u kitobxonlarni xorijiy mamlakatlarda yuritilayotgan yer kadastrining ilg'or tajribalari bilan tanishtiradi.

Ushbu o'quv qo'llanma "Yer tuzish va yer kadastr", "Geodeziya, kartografiya va kadastr", Kasb ta'limi: "Yer tuzish va yer kadastr" yo'nalishlari bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tayyorlangan bo'lib, davlat ta'lim standartlari, namunaviy o'quv dasturlariga mos holda yozilgan o'quv qo'llanma mamlakatimizda davlat yer kadastrini tashkil etish va yuritishning hozirdagi mavjud ilg'or tajribalarini yoritadi. Ushbu kitobdan yuqorida qayd qilingan yo'nalishlar o'quv qo'llanmadan "Yer tuzish va yer kadastr" magistratura mutaxassisligi bo'yicha tayyorlanayotgan magistrantlar, sohaning ilmiy xodimlari, loyiha institutlari mutaxassislari ham foydalanishlari mumkin.

I-BOB. YER MONITORINGINING MAZMUNI, VAZIFALARI VA YO'NALISHLARI

- 1. Monitoring tushunchasi, mazmuni va vazifalari.**
- 2. Davlat yer monitoringini o'tkazish asoslari va tuzilmasi.**
- 3. Yer monitoringini yuritish prinsiplari.**

Tayanch so'zlar: yerlarda nazorat o'tkazish, degishlar, monitoring xokimiyat qarori, servitutlar va himoya zonasi, er uchastkasining chegarasi, davriy, mavsumiy, sutkalik.

"Monitoring" so'zi lotincha bo'lib (monitor – ogohlantiruvchi, kuzatuvchi, nazoratchi kabi ma'nolarni anglatadi). Yelkanli kemada nazoratchi matrosni shunday deb atashadi, u boshqa bilan to'qnashib qolmaslikni ogohlantiruvchi bo'lgan. Ingliz tilidan "monitor" so'zini tarjimasini nazoratni olib borish, tekshirish va hatto maslahat bermoq, nasihat qilmoq kabi ma'nolarni anglatadi.

Monitoring bo'yicha (Nayrobi, 1979y.) birinchi hukumatlararo kengashda monitoringni oldindan tayyorlab qo'yilgan dastur bilan muvofiqlikda makonda va vaqt bo'yicha ma'lum maqsadlar bilan tabiiy muhit atrofini bir yoki ko'proq unsurlarini takroriy kuzatish tizimi deb atash qabul qilingan.

Monitoring maqsadi-tabiatni muhofaza qilish faoliyati va ekologik xavf-xatarsizlikni boshqarishning axborot bilan ta'minlashdir.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yerlardan foydalanish darajasini oshirish va yerdan olinadigan mahsulot miqdorini ko'paytirish maqsadida yer monitoringini tashkil etish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida joriy etilayotgan yer monitoringi barcha yer fondining mavjud holati to'g'risida, uni baholash, o'z vaqtida sifat va miqdor o'zgarishlarini aniqlash, yerdan foydalanishda ro'y berishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha kuzatuvlar tizimini o'z ichiga oladi.

Yer monitoringi yer tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish uchun yer fondining holatini va sifatini kuzatib turish tizimidan iborat.

Yer monitoringi - tabiiy muhit holati monitoringining asosiy qismlaridan biri bo'lib va shu bilan birga boshqa tabiiy muhit monitoringining asosi bo'lib hisoblanadi. Davlat yer kadastrini yuritishni, yerdan foydalanishni, yer tuzish, yer fondidan belgilangan maqsadda va oqilona foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni, yerlarni muhofaza qilish organlarini axborot bilan ta'minlash yer monitoringi asosida amalga oshiriladi.

Yer monitoringi - yerlarda nazorat o'tkazish, yerlarni himoya qilish va yerlardan samarali foydalanish uchun umumiy kuzatuv ishlarini amalga oshiruvchi tadbir hisoblanadi. Yer monitoringini o'tkazish, yerlarni rekultivatsiya qilish tartibi va nazorat o'tkazish turlari va usullarini yagoni tizim asosida, davlat tomonidan tasdiqlangandan keyin amalga oshiriladi.

Yer monitoringining mazmuni yer fondi holatini maxsus tashkil etilgan muntazam kuzatishlar (suratga olish, tekshirish va qidiruv)dan quyidagilar o'zgarishlarini aniqlash, baholash va prognozlashdan iboratdir:

- yerga egalik qilish, yerdan foydalanish, ekinzorlar, dalalar, uchastkalar, manzara ekologiya komplekslarining holati;

- yerlar unumdorligining o'zgarishiga, ularning tanazzuli va destruksiyasi (aridizatsiya va cho'llanishi, suv, irrigatsiya va shamol eroziyasi, chirindi miqdori o'zgarishi, tuproq tarkibining o'zgarishi, ohakliligi, begona o't bosganligi, yerlarning pestitsidlar, og'ir metallar, radionulidlar va boshqa toksik moddalar, sanoat, maishiy va boshqa chiqindilar bilan ifloslanishi)ga ta'sir qiluvchi jarayonlar (omillar);

- tabiiy ozuqabop o'tlar qoplami holatining o'zgarishi (o'simliklar tarkibi, tuzilishi, hosildorligi, sifati va to'yimlilikining o'zgarishi) bilan bog'liq jarayonlar;

- daryolar qirg'oqlarining, Orol dengizi, ko'llar, suv omborlari, irrigatsiya va gidrotexnika ishnootlarining holati;

- jarliklar va upqonlar, o'pirilishlar, sel oqimlari, zilzilalar, suv toshqinlari "degishlar", karst, yer cho'kishi boshqa ekzogen va endogen jarayonlar va antropotexnogen hodisalar tufayli paydo bo'lgan jarayonlar;

- aholi yashash joylari, neft va gaz qazib olish, tozalash inshootlari, go'ngxonalar, axlatxonalar yonilg'i-moylash materiallari, o'g'itlar, zaharli ximikatlar omborlari, toksik sanoat chiqindilari va radioaktiv materiallar ko'milgan joylar, shuningdek boshqa sanoat ob'ektlari yerlarining holati.

Yer monitoringi O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitekturasi va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi gidrometeorologiya bosh boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat biologiya va mineral resurslar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasining boshqa manfaatdor vazirliklari va idorlari ishtirokida amalga oshiriladi. Vazirliklar va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish, yer monitoringi ma'lumotlarini umumlashtirish O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Vazirliklar va idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish, yer monitoringi ma'lumotlarini umumlashtirish O'zbekiston Respublikasining Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi yer monitoringining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yer fondi holati o'zgarishlarini o'z vaqtida aniqlash ustidan kuzatishlar tizimini tashkil etish va amalga oshirish, ularni baholash, salbiy jarayonlarni prognozlash hamda ularning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

- davlat yer kadastri yuritilishini, yerdan foydalanishni, yer tuzishni, yer fondidan maqsadli va oqilona foydalanish, yerlarni muhofaza qilish va yer resurslarini davlat tomonidan boshqarishga doir boshqa funksiyalar ustidan davlat nazoratini axborot bilan ta'minlash.

Yer monitoringi uzluksiz olib boriladigan davlat tadbirlari tizimiga kirishini hisobga olgan holda birinchi bosqichda tashkiliy boshqaruv ishlarini amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunda quydagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

- yer monitoringini ilmiy-uslubiy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;
- xuquqiy va me'yoriy asosiy ko'rsatkichlar tizimini yaratish;
- yer monitoringi talablariga mos bo'lgan mintaqaviy hududlarni aniqlash (iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik sharoitlarni hisobga olgan holda);
- yer monitoringi bo'yicha axborotlar tizimini tashkiliy boshqaruv jixatdan aniqlash;
- yer monitoringini o'tkazishning zamonaviy texnologiyasini ishlab chiqish.

Davlat yer monitoringini o'tkazish asoslari va tuzilmasi

O'zbekiston Respublikasining barcha yerlari, ularning huquqiy rejimi, foydalanish maqsadi va harakteridan qat'iy nazar yer monitoringining ob'ekti

hisoblanadi.

Monitoring yerlardan foydalanish maqsadini hisobga olgan holda olib boriladi va yer fondi toifalarga muvofiq bo'lgan quyidagi kichik tizimlarga bo'linadi:

- qishloq xo'jaligi maqsadidagi yerlar monitoringi;
- aholi punktlari yerlari monitoringi;
- sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlardagi yerlar monitoringi;
- tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreasion maqsadlardagi yerlar monitoringi;
- tarixiy-madaniy maqsadlardagi yerlar monitoringi;
- o'rmon fondi yerlari monitoringi;
- suv fondi yerlari monitoringi;
- zaxira yerlar monitoringi.

Hududiy qamrab olinishga ko'ra yerlarning respublika, mintaqaviy va mahalliy monitoringi amalga oshiriladi.

Respublika monitoringi O'zbekiston Respublikasining butun hududini qamrab oladi. Mahalliy monitoring alohida yer uchastkalari va manzara - ekologiya komplekslarni qamrab oladi.

Yerlarning holati o'zgarishlarning yo'nalishi va jadalligiga oid bir qancha izchil kuzatishlarni (davriy, mavsumiy, sutkalik) taxlil qilish, olingan ko'rsatkichlarni yerlarning sifat holati me'yorlari bilan taqqoslash orqali baholanadi. Yer holatini baholash ko'rsatkichlari muayyan davr yoki sana uchun ham absalyut ham nisbiy ko'rsatkichlarda (o'lchov birligida) ifodalanadi. Yerlar holatini baholash natijalariga ko'ra tezkor ma'lumotlar, axborotlar, prognozlar va tavsiyanomalar tuziladi, ularga o'zgarishlar, ayniqsa salbiy o'zgarishlarning dinamikasini, ularning yo'nalishini va jadalligini tavsiflovchi mavzuli haritalar, kartogrammalar, jadvallar va diagrammalar ilova qilinadi.

Yer monitoringi O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi tomonidan manfaatdor Vazirliklar, Davlat qo'mitalari va idoralar ishtirokida ishlab chiqarilgan va tasdiqlanadigan

yagona uslub bo'yicha olib boriladi, bu uslub yerlarning holatini tezkor va muntazam kuzatishlarni amalga oshiruvchi, tadqiqotlar, tekshirishlar o'tkazuvchi yoki haritalovchi barcha korxonalar va tashkilotlar uchun majburiy hisoblanadi.

Idoraviy mansubligidan va mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar yerlarni mavzuli haritalovchi va ularning holatini kuzatuvchi korxonalar muassasalar va tashkilotlar yer resurslari bo'yicha tegishli xizmatlarga ularning vakolatlari doirasida yerlarning miqdor va sifatlovchi holati to'g'risidagi ma'lumotlarning yer monitoringi va davlat yer kadastrini bo'yicha axborotlar kiritish uchun ko'rsatilgan ishlar bo'yicha materiallarning nusxalarni tekin beriladi.

O'z navbatida yer resurslarini bo'yicha xizmatlarni ham yerlarni mavzuli haritalovchi va ularning holatini kuzatuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ularning so'roviga binoan zarur materiallarni tekin beradilar.

Yer monitoringi yagona klassifikatorlar, kodlar, metrik birlik tizimi, ma'lumotlarning standart formatlari va me'yoriy - texnik baza, koordinatalar va balandliklar davlat tizimiga asoslangan turli xil ma'lumotlarning bir - birlariga mosligi prinsipiga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Yer monitoringi o'tkazishda zarur axborotlarni olish uchun quyidagilar qo'llaniladi.

- masofadan turib zondlash (aerokosmik suratga olish va kuzatishlar);
- yerda suratga olish va kuzatish;
- fond materiallari.
- dron materiallari.

Muddatlari va davriyligiga ko'ra yerlarning holatini 3 ta guruh kuzatishlar amalga oshiriladi:

- bazaviy (yer monitoringini yuritishning dastlabki bosqichida kuzatish ob'ektlarining haqiqiy holatini qayd etuvchi boshlang'ich) kuzatishlar;
- davriy (yillik va bir yillik ustidagi davrlar bo'yicha) kuzatishlar;
- tezkor, (joriy o'zgarishlarni qayd qiluvchi) bir yildan kam oraliq davrda muntazam yoki bir yo'la bajariladigan kuzatishlar.

Ekin maydonlari dalalar, uchastkalar, manzara ekologiya komplekslar holatini

bevosita kuzatishda olingan bazaviy ma'lumotlar tumanlar, shaharlar qo'rg'onlar, viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va umuman O'zbekiston respublikasi bo'yicha shuningdek aloxida tabiiy komplekslar bo'yicha umumlashtiriladi.

Yerlarning bazaviy va davriy monitoringi:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlarida - Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar yer resurslari va davlat kadastr boshqarmalari;

- Toshkent shahrida – Yer resurslari va davlat kadastr boshqarmasining yer tuzish va ko'chmas mulk kadastr davlat korxonasi tomonidan yuritiladi.

Yerlarning monitoringi bazaviy va davriy monitoringi ma'lumotlardan foydalanilgan holda:

- shaharlar va qo'rg'onlarda - Yer resurslari va davlat kadastr boshqarmasining tuman va shahar yer tuzish va ko'chmas mulk kadastr davlat korxonasi tomonidan yuritiladi;

- respublikaning qolgan hududlarida yer resurslari va davlat kadastr bo'limlari tomonidan yuritiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar yer resurslari boshqarmalari Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastr boshqarmasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining hududiy organlari bilan birgalikda har yili 1 fevraldan kechiktirmay davlat hokimiyati mahalliy organlariga, O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasiga, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasiga mintaqadagi yerlarning holati to'g'risida axborotlar (hisobotlar) taqdim etadilar, o'ta xavfli va yo'l qo'yilishi cheklangan jarayonlar aniqlangan taqdirda tezkor ma'lumotlar yuboradilar.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va jismoniy shaxslar yer monitoringi ma'lumotlaridan belgilangan tartibda haq to'lagan holda foydalanadilar.

Yer monitoringini yuritish bo'yicha ishlar davlat byudjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Yer monitoringi bo'yicha davlatlararo va xalqaro dasturlarni mablag' bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan tuzadigan bitimlari va shartnomalarida belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Yer monitoringini yuritish prinsiplari.

Yer monitoringining maqsadi va vazifasi uni yuritishning quyidagi prinsiplariga amal qiladi:

1. Har xil ma'lumotlarni taqqoslash va o'zaro birikishlik prinsipi. U yagona klassifikatorlar, formatlar, normativli-texnikaviy bazaning ma'lumotlari, koordinat va balandlikning yagona davlat tizimi qo'llanishiga asoslanadi;

2. Monitoring yuritishning uyg'unligini, texnologiyalar va uslublar birligini nazarda tutadigan birlik prinsipi;

3. Yer fondidan foydalanishi va holati yer monitoringining ma'lumotlariga haqiqatga muvofiq kelishi darajasini tavsiflaydigan aniqliq va ishonchlilik prinsipi;

4. Ma'lumotlarning to'laligi prinsipi - aniq vazifalarni yechish uchun axborotlar to'la va yetarlicha bo'lishi zarur;

5. Yer monitoringini yuritishning uzluksiz prinsipi. Yer munosabatlarini qayta tuzish jarayonida, mamlakat yer fondining miqdor va sifat tavsifining o'zgarishida uning ayrim toifalari o'zgarishi yer resurslariga antropogenli nagruzkaning ko'chayishi yer fondini taqsimlash va tarkibida turli xil o'zgarishlar ro'y beradi. Shuning uchun axborotlarni vaqti-vaqti bilan yoki muntazam yangilab turish yo'li bilan yer monitoringini yuritishning uzluksizligini ta'minlash zarur.

Qolgan prinsiplardan yana quyidagilarni ta'kidlash kerakki, ko'rgazmali prinsipi (harita, atlaslar, sxemalardan foydalanish); foydalanish huquqi prinsipi (davlat yoki tijorat sirini tashkil etadigan ma'lumotlardan tashqari); tejamkorlik va samaradorlik prinsipi (yer monitoringi ma'lumotlarini saqlash va tizimlashtirishni olishni ta'minlaydigan usullar, texnologiyalar, uslublarni qo'llash); markazlashtirilgan rahbarlik prinsipi (O'zbekiston Respublikasi miqyosida yagona uslub bo'yicha yagona markazlashgan monitoringini o'tkazish).

Yer monitoringini yuritish uchun turli xil tasvirlar, qidirishlar, taftish qilish (topografo-geodezik, tuproqning, geobotanikli, agrokimyoviy, meliorativli, shahar qurilishi va boshqalar); maxsus kuzatishlar (tog'lardan ko'chib yig'ilgan qor uyumi, sel toshqini va boshqalar); kosmik tasvir va kuzatish, balandda uchadigan samalyotlar bilan tasvirga tushirish, kuzatish va kichik aviatsiya vositasi yordami

bilan yer ustidan tasvirga olish va kuzatish; shuningdek fondli ma'lumotlardan foydalanish.

Balanda uchadigan samalyotlar bilan kosmik tasvirga tushirish va kuzatishlarning asosiy vazifasi - global va mintaqa darajasida yer holatini bilib olishdir. Kichik aviatsiya yordami bilan mahalliy yer monitoringi va aerokosmikli axborotni aniqlash uchun olib boriladi.

Yer fondini masofali zond bilan tekshirish 2 ta asosiy asbob-uskunalar guruhlaridan foydalanish bilan amalga oshiriladi:

Video va rasm axborot (aerofotoapparat, ko'p zonali skaner uskunali, radiolakatorlar, televideniye kanallar va boshqalar);

Trassali guruxlar asboblari (spektrometr, SVCh va IK -radiometlar va boshqalar).

Yer ustida kuzatish poligonlarda, etalonli uchastkalarda, agrokosmik axborotlarni ishlab tayyorlash uchun tayanch axborotlarni to'plashning avtomatlashtirilgan statsionar punktlarida kutaziladi va bu ma'lumotlarni zond bilan masofali tekshirish uslubi bilan olish mumkin bo'lmaganda yer fondining holati to'g'risida ma'lumotlarni olish.

Yer ustida kuzatishlarni ta'minlaydigan texnika vositalari majmuasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- yer ustida harakatlanuvchi stansiyalar;
- avtomobillar shosseda yuqori darajada o'tishi mumkin bo'lgan va tuproq namligini o'zgarishini kimyoviy taxlili uchun jihozlangan priborlar, shuningdek EHM va telemetriyani uzatish;
- qabul qilish moslamasini ta'minlovchi texnikaviy vositalar majmuasi.

Arxivlarda (fondlarda) yer monitoringining materiallari to'planishi va AIS bazalarida taqsimlanishi quyidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Ma'muriy tumanlar, shaharlarda yer - suv mulkining tashqi ko'rinishi uchastkalar, ayrim dalalar, yerdan foydalanish va yerga egalik qilish, barcha yer fondining holatini tavsiflaydigan mahalliy monitoringning dastlabki ma'lumotlari to'planadi.

O'zbekiston Respublikasining tarkibidagi respublika va viloyatlarda, ularning tarkibiga kiradigan tumanlar, shaharlar shuningdek, ayrim ekologik mintaqaviy tavsifga ega bo'lgan ob'ektlar bo'yicha hamma ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar shakllanadi. O'zbekiston Respublikasi darajasida, respublikaning tarkibidagi mintaq, landshaft-ekologiya bo'yicha hamma ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar shakllanadi.

Yer monitoringining shakllangan bazasi va banki foydalanishlari mumkin:

- Davlat va maxalliy boshqarish organlari;
- O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi va uning joylardagi bo'limlari;
- yerdan foydalanuvchi korxonalar, tashkilotlar va boshqa muassasalar;
- ayrim fukarolar;
- yerdan va tabiatdan oqilona foydalanishni tashkil etish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi tashkilotlar va chet el hamda xalqaro tashkilotlar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat va mahalliy boshqaruv organlari zaruriyatga qarab tezlashtirilgan ma'lumotlar, bashoratlar, mavzuli haritalar tuzib chiqadilar va taqdim etadilar hamda har yili 1 yanvargacha "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasiga mintaqaning yer fondi holati tug'risida yillik hisobot topshiradi. O'z navbatida "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi yer monitoringi axborotlarini umumlashtirib, zaruriyatga qarab tezkor ma'lumotlar, ilmiy bashoratlar mavzuli haritalar va atlaslar tuzib chiqadilar va manfaatdor vazirliklar hamda idoralarga taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasiga keyingi hisobot yili uchun har yili 1 apreldan kechiktirmasdan O'zbekiston Respublikasining yer fondining holati tug'risida hisobot yuboradi.

Nazorat uchun savollar

1. Monitoring tushunchasi, mazmuni va vazifalari haqida tushinchangiz.
2. Davlat yer monitoringini o'tkazish asoslari haqida nimalarni bilasiz.
3. Yer monitoringini yuritish qanday yuritiladi.
4. Hududiy kadastr xizmatlarining bosh maqsadi nimalardan iborat?

5. O'zbekiston Respublikasining "Davlat er kadastrini to'g'risida" gi qonun qachon tasdiqlangan?
6. O'zbekiston Respublikasining yer fondi - yer monitoringini ob'ekti sifatida.
7. Yer monitoringi to'g'risida umumiy tushuncha, uning mazmuni va vazifalari.
- 8.** Yer monitoringining mohiyati, umumiy monitoring tizimidagi o'rni.
9. Yer monitoringini o'tkazish vazifalari.

II-BOB. YER MONITORINGI TIZIMINI YURITISH.

1. Yer monitoringi tizimi to'g'risida tushuncha.

2. Yer monitoringining asosiy vazifalari.

3. Yer monitoringi yuritish tizimi.

Tayanch so'zlar: Tuman (SHahar) er kadastrı daftari, erdan foydalanuvchi, er uchastkalariga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat, er uchastasi pasporti.

Hozirgi davrda tabiat va jamiyatning munosabati shunday shiddatli darajaga yetdiki, chunonchi ular sayyorada insoniyatning va barcha tirik mavjudodning yashashi uchun xavf tug'diradi. Tabiiy resurslaridan oqilona foydalanmaslik oqibati, atrof muhitning ifloslanishi asta-sekin to'planib borayotir va favqulotda vaziyat tug'dirmokda, ya'ni ishlab chiqarish kuchlarining yanada rivojlanish imkoniyatini xavf ostiga qo'yadi. Bu alohida mintaqaga, shuningdek butun mamlakatga va oxir-oqibatda butun insoniyatga tegishlidir.

Tabiatga keltirilgan zarar mutlaqo shubxasiz bo'lib qoldi: o'rmonlar kesilmoqda, dengiz, daryo, ko'llar va suv omborlari ifloslantirilmoqda, haydaladigan yerlar kamaymoqda. Millionlab odamlar zaharlangan havodan nafas olishga, ifloslangan suvdan ichishga, xavfli oziq-ovqatlarni iste'mol qilishga majburdirlar. Uzoq umr ko'rish va aholining salomatligi kabi ko'rsatkichlarni azon qatlamining qisqarishi, yerlarni, tuproqning, gidrosferaning ifloslanishi. Chiqindilar hajmining ko'payib borishi, o'simlik va hayvonlar turlarining yo'qolishi bilan taqqoslash bu jarayonlar o'rtasida aniq aloqa borligini ko'rsatadi.

Bizda o'rtacha umr ko'rish 65-yoshni tashkil etsa, ayni paytda rivojlangan mamlakatlarda odamlar o'rtacha 76 yosh yashaydilar. O'rtacha umr ko'rish bo'yicha o'zbekistonliklar 47-48 o'rinni egallaydilar.

O'zbekiston Respublikasining hududida eng o'tkir ekologik vaziyatli tumanlarning yer maydoni 6,7 mln.ni egallaydi (mamlakat hududining, 15%). Ularning bir qismi ekologik holati yomon bo'lib hisoblanadi, ular atrof muhitning kuchli ifloslanishi bilan tavsiflanadi aholi salomatligiga tahdid qiladi va tabiatni yomonlashtiradi.

Ba'zida bir baholash bo'yicha inson salomatligining 20-40% atrof muhitning holatiga bog'liq. Tabiat resurslaridan nooqilona foydalanish oqibatida tabiatning ifloslanishidan jami ko'riladigan zarar.

Atrof muhitning ifloslanishi aholining sog'lig'i uchun real tahdidni namoyon etadi. 30 milliondan ortiq kishi yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan me'yordan 5 va undan ko'p darajadagi zararlangan havodan nafas oladilar.

Statistik ma'lumotlarga binoan, havoning ifloslanishi natijasida, 30-34 yoshdagi shaxslarda 41% nafas olish organlari xastaligi, 16% endokrin tizimining xastaligi, 2,5 % onkologik xastalik va 11% 55-59 yoshdagi shaxslarda pisanda qilinadi.

Shaharlardagi shovqinning ko'tarilgan darajasi inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Moskva akustik diskomfortning zonasi uy-joy imoratlari maydonining 30% tashkil etadi. Bu yerda 3 mln. dan ortiq inson istiqomat qiladi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab ilmiy adabiyotlarda, ekologik qashshoqlik, "ekologik keskinlik", "ekologik fojia", "ekologik axloq", "ekologik xavfsizlik", "ekologik ma'lumot" terminlari paydo bo'la boshladi.

Ekologik xavfsizlik muammosi dunyo miqyosidagi tavsifga ega. Atrof muhitning ifloslanishi davlat chegarasini bilmaydi, shuning uchun turli xil davlatlar bu falokat bilan zo'r berib kurashishda birlashishga majburdirlar. Insoniyatning yerda omon qolish strategiyasi allaqachon ishlab chiqilgan. Bu barqaror rivojlanish strategiyasi deb nom olgan, unda tabiatdan oqilona foydalanishga inson salomatligi genefondni saqlab qolishga yondashuv dolzarb moment bo'lib hisoblanadi.

Yer resursi insoniyatning muhim boyliklaridan biridir. Ulardan qay darajada foydalanish qo'pincha hozirgi va kelajak avlodning eson- omonligiga bog'liq bo'ladi.

Yer munosabatlarining bozor sharoitiga o'tishda O'zbekiston yer fondining holatida salbiy tendensiya keskinlashdi. Yer islohotining boshlang'ich davrida, yerni qarovsiz qoldirish, ifloslantirish, ulardan vaxshiyona foydalanish, tuproqqa ishlov berish texnologiyasining buzilishi va boshqa turli xil iste'mollar munosabati bilan yerning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.


Zarur adekvotiv qarorlar qabul qilish uchun turli xil toifadagi yerdan ekologik xavf-xatarsiz foydalanishni, yerdan foydalanishning barqaror rag'batlantirish mexanizmini tartibga solishning huquqiy ba'zasining yo'qligi yuridik va jismoniy shaxslarning barcha darajadagi boshqaruv organlarining yer tug'risidagi ma'lumotlar axboroti bilan bo'sh ta'minlanganligi tuproqning ishdan chiqishiga ko'maklashadi qimmatbaxo, qaytarib bo'lmas yuqotishga, eroziyaning rivojlanishiga, harobalik va boshqa hodisalarga olib keladi, ularning yig'indisi hozirgi bosqichda O'zbekistonning milliy xavfsizlik taxdidi deb qaraladi.

Atrof muhitning barcha tarkibiy qismlarining yuqori darajada ifloslanishi va biosferaning holati to'g'risida batafsil axborotning zarurligi atrof muhitda u yoki bu moddaning ifloslanishdan saqlash doimiy kuzatish olib borishga majbur qiladi. Ya'ni, monitoring, xususan yer monitoringi. Yer faoliyati realizatsiyasi bilan bog'langan, qabul qilingan qarorlar. Yerning holati to'g'risida muntazam yangilanadigan ma'lumotlar, albatta oldingi ko'pgina ishonchli taxlil bo'lishi kerak. Boshqacha so'z bilan aytganda atrof muhit holati ustidan muntazam majmuali kuzatish o'tkazish zarur va birinchi galda, uning bosh ob'ekti-yer hisoblanadi. Bu kuzatish tizimi monitoring deb ataladi.

Yer monitoringi - bu yer fondining holati o'zgarishini o'z vaqtida aniqlash uchun, ularni baholash, prognozlash, ogohlantirish va salbiy jarayonlar oqibatini bartaraf etishni kuzatish tizimidir.

Negaki yer tabiiy muhit atrofining muhim qismidir, u fazosi, rel'efi, iqlimi, tuproq qatlami, o'simligi, yer osti boyligi, suvlari bilan tavsiflanadi va qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari tashkilotlar, korxonalarini joylashtirish uchun fazoviy bazis hamdir. Binobarin, yerni o'rganish masalasi, yagona davlat yondashuvini talab etiladi, u muntazam va majmuali kuzatuv asosida amalga oshirilishi kerak.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib yer monitoringi boshqa barcha tabiiy resurslar kadastrlari va monitoringini bog'lovchi, asosiy vazifani bajarishi talab etiladi va davlat maqomiga ega bo'lishi kerak.



1-rasm. Monitoringli tekshirish.

Bunday yondashuv yer to'g'risida majmuali axborot olishni ta'minlaydi va kuzatish tizimining ishlab turishiga eng kam harajatli uslubini qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Monitoring yordamida keskin vaziyatni aniqlash, ta'sir ko'rsatishning jiddiy omillarini va biosferaning eng moyil ta'sir ettiruvchi resurslarini ajratish mumkin.

Iqtisodiyotni boshqarishda kishilik jamiyatning tabiat bilan o'zaro ta'sirini optimallashtirishga mo'ljallangan ekologik imkoniyat doirasida antropagenli ta'sir ko'rsatishni chegaralash yanada kattaroq rol o'ynashi kerak. Shu munosabat bilan monitoringning nihoyatda ma'sul resursi bo'lib tabiiy muhitining holatini baholashdan iboratdir.

Integralli tavsiflar va ko'rsatkichlarni tanlash, ularni bevosita o'lchash bunday baholashning bosqichidir. Chunki bunday o'o'lchashning natijasida yoki miqdor o'zgarishining taxlili natijasida, tabiiy muhitning holati qanday degan savolga javob berish mumkin.

Yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan antropogenli ta'sir ko'rsatishni aniqlash uchun mazkur tizimning ekologik zaxira tushunchasiga asoslanadi.

Tabiiy imkoniyatlardan foydalanish sharoitida biosferaning barqaror tushunchasiga, uning ekologik zaxirasi tushunchasiga tayanish zarur.

Buning uchun quyidagi muntazam harakatlarni yechish zarur:

1. Antropogenli harakatlar monitoringini (birinchi navbatda, ifloslanishlar) ularning geofizik va ekologik izchilligini tashkillashtirish.

2. Ilmiy texnika va iqtisodiy imkoniyatlarni hisobga olish bilan monitoring tizimi taqdim etadigan axborotlar asosida biosferaning muammolari bo'yicha muvofiq tadbir va qarorlarni tanlash.

3. Xalqaro hamkorlik doirasida global muammolarni yechish yo'llarini aniqlash.

Shubhasiz biosferaning dunyo miqyosidagi muammolarini yechishda turli xil yondashuvlar bo'lishi mumkin: qaytarib bo'lmaydigan oqibatlarni oldini olish (masalan, azon qatlamini himoya qilishda); ta'sir qilishni susaytirish (masalan, ifloslangan moddalarni, kislotali yomg'irlarni chegarali ko'chirishda); inson faoliyatining yangi sharoitlarga moslashishi (masalan, unchalik o'zgarmagan iqlim sharoitida); albatta, har qanday xalqaro harakat, aniq milliy faoliyatga asoslanishi zarur.

Yer uchaskasining kimga tegishli, ya'ni, mulkchilik shakllari maqsadli tayyorlanishi va yerdan foydalanishning tavsifidan qat'iy nazar mamlakatning yer fondi bo'lib hisoblanadi.

Yer monitoringining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yer fondi holatini o'zgarishini o'z vaqtida aniqlash, ularni baholash, negativ jarayonlar oqibatini ogohlantirish va bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va prognozlash;

- davlat yer kadastri, yer monitoringi va boshqa tabiiy muhit kadastrlarini, tabiatdan oqilona foydalanish va yer tuzishni axborot bilan ta'minlash;

- yerdan foydalanish va muhofaza qilish uchun nazorat;

- yerda ro'y berayotgan salbiy jarayonlar bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlar va holatlar to'g'risida davlat organlari va jismoniy shaxslarni axborot bilan ta'minlash;

Yer monitoringining mazmuni majmuali kuzatish, qidirish, taftish qilish, tasvirga olish, o'zgarishlarni tavsiflashni o'z ichiga oladi:

- tabiiy landshaftlar, ma'muriy-hududiy tuzilish maydonlari va chegarasi, yerdan foydalanish, mulkdorlar (yer-suv mulki, dalalar, harobalar, yaylovlarda tuproq degradatsiyasi, botqoqlik, namlanish, sho'rlanish, o't bosib ketishi, ekinzorlarni butazorlashib ketishi, tuproq holati, gumusning zaxirasi, kislotaning miqdori, makro va mikro resurslar miqdori, pestitsidlar, og'ir metallar, sepilgan kimyoviy unsurlar, radiaktiv rsurslar va boshqa taksik moddalar.

- qum ko'chishi, ko'chki, sel oqimi, yer silkinishi, uzan jarayonlari va hokozalar keltirib chiqargan joy rel'efining shakllari, geografik tarmoq rel'efi;

- geologik muhitning holati;

- yerni zaxini qochirish ob'ektlari salbiy ta'siriga duchor bo'lgan yerning holati (sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalarini tozalagich inshootlari, meliorativ tizimlar, go'ngxona, o'g'itlarni komposlash uchun maydon, axlatxona yoki moylash materiallari omborxonasi, o'g'itlar suyuq o'g'itlar omborxonalari, avtotransportlarning tuxtash joyi, radioaktivli fiziologik faol kimyoviy chiqindilarni ishlab chiqarishni ko'mib qo'yish joylari).

Yer monitoringining natijalari ma'lum davr uchun aniq sifat va miqdor ko'rsatkichlarida ifodalanadi (masalan gektariga chiqindining foizda yuqotilish darajasi va tuproq qatlamining degradatsiyasi intensivligi ma'lumotlar bankiga kiritiladi).

Yer monitoringining natijalari bo'yicha tezkor ma'ruzalar, hisobotlar, milliy prognozlar, mavzuli haritalar va boshqa materiallar tuzib chiqiladi, ular davlat organlariga taqdim etiladi.

Yer monitoringining tuzilishi yerdan, ularni maqsadli ta'minlanishi bo'yicha ma'muriy hududiy bo'linishi bilan aniqlanadi.


Ma'muriy hududi chegarasi bo'yicha yer monitoringining tuzilishi quyidagi darajaga ega:

- O'zbekiston Respublikasi monitoringi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri;
- Tumanlar va shaharlar monitoringi;

Yer monitoringining ma'muriy hududiy bo'linishi tuzilishining har bir darajasiga muvofiq yer toifalarining quyidagi bo'limlari nazarda tutiladi:

- qishloq xo'jaligi yerlari monitoringi;
- aholi punktlari yerlari monitoringi;
- sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlardagi yerlar monitoringi;
- tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsion yerlar monitoringi;
- tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar monitoringi;
- o'rmon fondi yerlari monitoringi;
- suv fondi yerlari monitoringi;
- zaxira yerlar monitoringi.

Hududiy qamrab olishiga qarab yer monitoringi global, milliy, mintaqaviy va mahalliy (lokal)lari bilan farqlanadi (2-chizma).




2-chizma. Tabiiy muhit monitoringining turlari.

Milliy monitoring davlatning maxsus tuzilgan organlari doirasida amalga oshiriladi.

Mintaqaviy monitoring- biror bir yirik mintqa doirasida hodisa va jarayonlar ustidan kuzatishdir, bu yerda bu jarayon va hodisalar tabiiy tavsifi bo'yicha va barcha biosfera uchun tavsifli bo'lgan bazali fanning antropogenli ta'sir ko'rsatish bo'yicha farqlanadi. U O'zbekiston Respublikasining yirik hududini qamrab oladi.

Mahalliy (lokal) monitoring mintaqadan past bo'lgan hudud jarayonida olib boriladi, yerdan foydalanishning ayrim hududigacha va landshaftli ekologik majmualar elementlar tuzilishigacha.

Yer holatining o'zgarishi tavsifi asosida fonli va impaktli monitoring farqlanadi.




3-rasm. Yer holatining o'zgarishi tavsifidan bog'liqlikda monitoringning turlari.

Fonli monitoring - bu insonning ta'siriga duchor bo'lmaydigan yer holatini kuzatishdir. Uni biosfera ko'riqxonalarida o'tkaziladi.


Impaktli monitoring - bu joylarda bevosita antropogenli omillar ta'sir ko'rsatadigan yerni kuzatishidir.

Yer holatini o'zgarishining kelib chiqishi bo'yicha evolyutsionli (rivojlanish jarayoninig taxmini bilan bog'liq), sikli (sutkalik, mavsumiy, yillik yoki tavsifining tabiat o'zgarishining boshqa davrlari bilan bog'langan); Favqulodda vaziyat (sanoat ishlab chiqishi, tabiiy va ekologik ofat va halokatlar bilan bog'langan); antropogenli (inson faoliyati bilan bog'langan).



4-rasm. Monitoring yuritish vaqtida aniqlanadigan jarayonlar.

Yer holatini kuzatishni o'tkazishning davriyligi va muddatidan bog'liqlikda quyidagilarga bo'linadi; ba'zali (yer monitoring yurgizishning dastlabki momentida ob'ektlar boshlang'ich holatini qayd etish davriyligi (bir va undan ko'proq yildan keyin o'tkaziladigan ya'ni ma'lum interval bilan); retrospektivli (ilgarigi kuzatishlarni tarixiy taxlili)) (5-rasm).



5-rasm. O'tkazishning muddatlariga qarab monitoring turlari.

Ilgari ta'kidlab o'tganimizdek dunyo miqyosi bo'yicha (fonoli yoki bazali) monitoringni biosferaning qo'riqxonalarda kuzatish o'tkaziladi. Stansiyalar tarmog'i yerda har bir turidan qamrab olishi kerak. Majburiy va maqbul mezonlar bo'yicha xonalar tanlab olinadi. Uni globali, fonli monitoringini o'tkazish uchun potensial foydalanish mumkin.

1-jadval

Fonoli monitoringning maqsadi uchun biosferali qo'riqxonalar tanlash

mezoni	
Majburiy mezonlar	Maqbul mezonlar

1. Me'yor. 2000 ga kam bo'lmagan qo'riqxonaga me'yor. Bunday me'yor qo'riqxonaning "Yadro" ta'sir ko'rsatishdan himoyalashda va vokalli ta'sir ko'rsatishning minimumigacha keltirishga imkon beradi.	1. O'zlashtirilmagan atrof uchastkasi. Buferli zonaning mavjud bo'lishi kafolatlanishi kerak. Bu mezon qisman korxonaga me'yor bilan misolda hisoblanadi. Shuning uchun ham u majburiy emas, balki majburiyatga kiritilgan.
2. Qulaylik uchastka ma'qul chegarasida kirishga unq'ay bo'lishi kerak. Biroq u chegaralangan bo'lishi kerak, ko'p miqdordagi avtomobillar.	2. O'tmishda buzilishlarning yo'qligi tabiiy ekotizm tavsifini ta'minlash zarur. Chunki amaliyotda shunday ko'p korxonalarni tanish qiyin, mezoni minimum buzilish hisoblanadi.
3. Muhofaza. Quriqxonaga abadiy huquq himoyasi ostida bo'lishi zarur.	3. Doimiy shtat (5-kishidan ko'proq) shtatning ko'payishi bilan korxonada katta ish hajmiga ega bo'lish imkoniyati ortadi.
4. Shtat xodimlar shtati doimiy bo'lishi zarur. Bu quyidagi naqd xizmatlar imkoniyatini ko'paytiradi: qo'riqlash, ilmiy tekshiruvlar; joyni parvarishlash uchun; kuzatish o'tkazish vaqtidagi texnikaviy ishlar.	4. Joriy ilmiy ish 3 xil ko'rinishdagi ish nazarda tutiladi: 1) Ifloslanuvchi moddalar monitoringi. 2) Fundamental ekologik tekshirish. 3) Muhitga ta'sir ko'rsatishni o'rganish.
5. O'simliklar. Quriqxonadagi o'simliklar turi. Yer sharining asosiy biografik turlarga taxminan muvofiq bo'lishi zarur.	6. Mavjud dalillar. Qo'riqxonaga bo'yicha zaruriy ma'lumotlar: Meteorologik, gidrologik, biologik.

Dunyo miqyosidagi fonli monitoring stansiyalarida kuzatish majmualari tavsifga ega va yagona dastur bo'yicha o'tkaziladi.

2-jadval

Quruqlikdagi fonli stansiyalarda ifloslanadigan moddalarning tarkibi ustidan

kuzatish dasturi GSMOS muammosi bo'yicha vakolatli kengash tomonidan tasdiqlangan.

Muhit	Ifloslanadigan moddalar va ko'rsatkichlar.	Kuzatish tezligi
Atmosfera (GM balandlikdan tushadigan qatlam)	Qorishmagan zarrachalar, Atmosferaning aerozollik loyqalanishi, karbon oksidi, azotning uglevodorodning oksidlari, oltingugurt, sulfatning duvoksidlari, 3-4 benz(a) liren, DDT va boshqalar, xlororganikli birikmalar, qo'rgoshin, sumon, kadmiy, margumush.	Har sutkada
Qor qatlamining atmosferali yog'ishi	Qurg'oshin, simob, kadmiy margumush, 3,4-benz (a) piren, DDT va boshqalar. Xlor organli birikmalar, DN, VMO dasturi bo'yicha anionlar va kationlar.	Yog'ingarchilik: oyning dekadasi uchun integralli sinash quruq yog'ini oy uchun integralli sinash. Qor qoplami: qor qoplaminig uning tuzishidan oldin barcha chuqurligida integralli sinash
Yer osti suvlarining yuzakiligi. Mazkur qatlamida va qattiq jism	Qurg'oshin, simob, metal simob, margimush 3,4-ben(a) piren, DDT va boshqa xlororganikli birikmalar, biogenli unsurlar.	Suv va qattiq jism zarralari muallaq, kerakli suyuklik yoki gaz: gidrologlik davrlarining tavsifida donli qatlam yilida bir marta

tuproq	qo'rg'oshin, simob, margumush, 3,4-ben(a) pirenli korishmalar, biogenli unsurlar	yilda bir marta
Biologik Ob'ektlar	Qo'rg'oshin, simob, margumush 3,4-ben(a) pirenli qorishmalar, biogenli unsurlar.	Tezlik biologik ob'ektga bog'liq.

2000 yilgacha yer monitoringi bo'yicha ma'lumotlarni umuman tirik va kordinatsiyalashni yurgizish O'zbekiston Respublikasining yer siyosati bo'yicha manfaatdor vazirliklar va idoralarni jalb qilish bilan davlat qo'mitasi zimmasiga yuklatilgan ular jumlasiga quyidagilar kiritilgan:

- O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;
- Hidrometrologiya markazi;
- O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi arxitektura va qurilish qo'mitasi.
- Qishloq xo'jaligiga tayinlangan yerdan foydalanishning; agrokimyoviy kuzatishlar, qishloq xo'jaligi, yer, suv va meliorativ tizimlar monitoringining qismida O'zbekiston Qishloq va suv xo'jalik vazirligi;
- Geologik muhitning monitoring qismida yer osti boyliklaridan foydalanish O'zbekiston geologiya va mineral resurslar qo'mitasi;
- Kadastrli topografik harita va rejalarni yangilash va vujudga keltirish qismida O'zbekistonning sog'likni saqlash vazirligi;
- Yer monitoringini ilmiy ta'minlash va agroekologik tekshirishlarni o'tkazish qismida O'zbekistonning qishlok va suv xo'jaligi vazirligi.

Yer monitoringining maqsadi va vazifasi, uni yuritishning quyidagi prinsiplari pisanda qilinadi:

1. Har xil ma'lumotlarni taqqoslash va o'zaro birga qo'shila olishlik majmui.

U yagona klassifikatorlar, formatlar, normativli-texnikaviy bazaning ma'lumotlari, koordinata va balandlikning yagona davlat tizimi qo'llanishiga

asoslanadi.

2. Monitoring yuritishning uyg'unligi, texnologiyalar va uslublar birligini nazarda tutadigan birlik prinsipi.

3. Yer fondidan foydalanishi va holati yer monitoringining ma'lumotlariga haqiqatdan ham muvofiq kelish darajasini tavsiflaydigan aniqlik va ishonchlilik prinsipi.

4. Ma'lumotlarning tulalik prinsipi - aniq vazifalarni yechish uchun axborotlar to'la va yetarlicha bo'lishi zarur.

5. Yer monitoringini yuritishning uzluksiz prinsipi. Yer munosabatlarini qayta tuzish jarayonida, mamlakat yer fondining miqdor va sifat tavsifining o'zgarishida uning ayrim toifalari o'zgarishi yer resurslariga antropogenli nagruzkaning ko'chayishi yer fondining taqsimlash va tarkibida turli xil o'zgarishlar ro'y beradi. Shuning uchun axborotlarni vaqti vaqti bilan yoki muntazam yangilab turish yo'li bilan yer monitoringin yuritishning uzluksizligini ta'minlash zarur.

Qolgan prinsiplardan yana quyidagilarni ta'kidlash kerak: ko'rgazmali prinsipi (harita, atlaslar, sxemalardan foydalanish); foydalanish huquqi prinsipi (davlat yoki tijorat sirini tashkil etadigan ma'lumotlardan tashqari) tejamkorlik va samaradorli prinsipi (yer monitoringi ma'lumotlarini saqlash va usular, texnologiyalar, uslublarni qo'llash); markazlashtirilgan rahbarlik prinsipi (O'zbekiston Respublikasi masshtabida yagona uslub bo'yicha va yagona markazdan monitoringni uzatish).

Yer monitoringini yuritish uchun turli xil tavsiflar qidirishlar, taftish qilish (topografo-geodezik, tuproq, geobatanik, agrokimyoviy, meliorativ, shahar qurilishi va boshqalar) maxsus kuzatishlar (tog'lardan ko'chib tushadigan qorishma, sel toshqini glatsiologli, radiologiyali va boshqalar (kosmik tasvir va kuzatish, balandda uchadigan samalyotlar bilan tasvirga tushirish va kuzatish va kichik aviatsiya vositasi yordami bilan yer usti va tasvirga olish va kuzatish, shuningdek fondli dalillardan foydalanish bilan).

Balandda uchadigan samalyotlar bilan kosmik tasvirga tushirish va kuzatishlarning asosiy vazifasi - global va mintaqa darajasida yer holatini bilib

olishdir. Kichik aviatsiya yordami bilan mahalliy yer monitoringi va aerokosmikli axborotni aniqlash uchun olib boriladi.

Yer fondini masofali zond bilan tekshirish ikkita asosiy priborlar va uskunalar guruhlaridan foydalanish bilan amalga oshiriladi:

video va rasm axborot (aerofoto apparatura, ko'p zonali skanir uskunalar, radiolokatorlar TV-kanallari va boshqalar) priborlari;

trassali guruhlar priborlari (spektrometrlar, SVCh va IK- radiometrlar va boshqalar).

Yer ustida kuzatish poligonlarda, etalonli uchastkalarda, aerokosmikli axborotlarni tayyorlash uchun tayanch axborotlarni to'plashning avtomatlashtirilgan stasionarli punktlarida o'tkaziladi va bu ma'lumotlarni zond bilan masofali tekshirish uslubi bilan olish mumkin bo'lmaganda yer fondining holati to'g'risida ma'lumotlarni olish.

Yer ustida kuzatishlarni ta'minlaydigan texnika vositalari majmuasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

-yer ustida siljib turuvchi stansiyalar;

- avtomobillar trassasida yuqori darajada o'tish mumkin bo'lgan va tuproq namligini o'zgarishi kimyoviy taxlili uchun jihozlangan priborlari shuningdek mikro EHM vamelemetriyani uzatish;

- qabul qilish moslamasini ta'minlovchi texnikaviy vositalar majmuasi.

Arxivlarda (fondlarda) yer monitoringining materiallari to'planishi va AAT bazalarida taqsimlanishi quyidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Ma'muriy tumanlar, shaharlarda yer suv mulkining tashqi ko'rinishi uchastkalar, ayrim dalalar, yerdan foydalanish va yerga egalik qilish, barcha yer fondining holatini tavsiflaydigan mahalliy monitoringining dastlabki ma'lumotlari to'planadi.

O'zbekiston Respublikasining tarkibidagi respublika va viloyatlarda, ularning tarkibiga kiradigan tumanlar, shaharlar, shuningdek ayrim ekologik mintaqaviy tavsifga ega bo'lgan ob'ektlar bo'yicha hamma ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar shakllanadi.

Yer monitoringining shakllangan bazasi va bankidan foydalanishlari mumkin:

-davlat va mahalliy boshqarish organlari;

-yer resurslari va yer tuzish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qo'mitasi, shuningdek uning joylardagi organlari;

- yerdan foydalanish bilan bog'langan korxonalar, tashkilotlar va boshqa muassasalar idoralari;

-ayrim fuqarolar;

-yerdan va tabiatdan oqilona foydalanishni tashkil etish atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi tashkilotlar, chet el va xalqaro organlari.

O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va davlat mahalliy boshqaruv organlariga zaruriyatga qarab operativ ma'lumotlar, prognozlar, mavzuli haritalar tuzib chiqadilar va taqdim etadilar va har yili 1-martgacha kechiktirmasdan u yer resurslari va davlat kadastr boshqarmasi mintaqaning yer fondi holati to'g'risida hisobot yili uchun hisobot yuboradilar. O'z navbatida yer resurslari va davlat kadastr boshqarmasi yer monitoringlarini mintaqaviy materiallarini umumlashtirib zaruriyatga qarab tezkor ma'lumotlar, ilmiy prognozlar, mavzuli haritalar va atlaslar tuzib chiqadilar va manfaatdor vazirliklar hamda idoralarga taqdim etadilar va O'zbekiston hukumatiga keyingi hisobot yili uchun har yili 1-apreldan kechiktirmasdan O'zbekiston Respublikasi yer fondining holati to'g'risida hisobot yuboradi.

Yer monitoringi turli xil usullar va uslublar bilan olib boriladi. O'z ichiga natural kuzatishi (ekspeditsiyali, statsionarli, majmual (biosferali qo'riqxonalar), Masofali (aerokosmikli tasvir) va avtomatlashtirilgan axborot tizimini (AAT) kiritadi.

Bu uslublar va kuzatishlar yordami bilan salbiy jarayonlar aniqlanadi:

- uchastkalar, dalalar, yer suv mulki, yerdan foydalanuvchilar va ayrim yer maydonlariga egalik qilishdagi chegaraning o'zgarishi va adolatini, shu jumladan shahardagi barcha uchastkalar qayd etiladi (bu soliq solish uchun zarur);

-tuproq holatining o'zgarishi (kislotaligi, degradatsiyasi, ifloslanishi va hokozolar);

-geologik muhit, rel'efi holatining o'zgarishi, (ko'chkilar, jarliklar, o'pirilish kar'erlar va hokazolar ustidan nazorat);

-o'rmonlar holatini o'zgarishi;

-hayvonot va o'simliklar dunyosi holatining o'zgarishi;

-aholi punktlari yerlari holatining gaz va neft qazib olish ob'ektlari, tozalagich inshootlari, zaharli chiqindilar va radioaktiv materiallar va boshqalarni ko'mish joyining o'zgarishi.

Masalan, spektrozonal tasviri yordami bilan suv va havo havzalarining tuproqning ifloslanishi, o'simliklar kasallanishi maydonini bo'lib olish, eroziyalarni kuzatish va boshqa hodisalarni qayd qilish mumkin.

Bir necha kilometr masofagacha aerezolli ifloslanishni esa bir necha yuz metr masofagacha o'rganishga imkon beradigan lazer lokatsionli tasvir atrof muhitni o'rganish uchun ayniqsa perspektivdir.

Kuzatishning fazoli vositalaridan foydalanish zond bilan masofali tekshirish ma'lumotlarning ishlov berish asosida shaharlarning antropogenli dalalar va uning tarqalib turgan hududiga ekologik tasvirning ma'lum chegarasining tavsifini tuzib chiqish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi yer monitoringin yuritish paytida negativ jarayonlar ko'rsatkichlariga quyidagi ko'rsatkichlarni kiritish mumkin:

- tuproq degumifikatsiyasi paytida chirindining zaxirasi va tarkibi;

- tuproqning chiziqli eroziyasi paytida – jarli to'sinli tarmoqlarning kamligi, parchalanish koeffitsiyenti va boshqalar.

- tuproq eroziyasining o'simlik paytida chirindi gorizontining quvvati, tuproqli gorizontlar va boshqalarni kamayishi;

-tuproqning kislota ishorli sharoiti o'zgargan paytida DN, gidrolitik kislotaligi;

-sho'rlangan paytda, tuzlar zaxirasi va tarkibi, ularning kimyoviy tarkibi, tuproq profili bo'yicha taqsimlanish;

-yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan doira va ifloslantiruvchi real konsentratsiya, pestitsidlar, radionuklidlar, og'ir metallar bilan yerni ifloslantirish paytida.

-dengizlar, ko'llar, daryolar, va boshqa suv havzalarining ta'sir ko'rsatishi, qirg'oq chiziqlari vayron bo'lishining tezligi va boshqa ma'lumotlarning to'planishi, suv havzalari ifloslanishi paytida.

-toshloqlik sharoitida maydondan foizda toshloqlik darajasi gektariga m²da toshloqlikning profili bo'yicha yoyilishi;

-tuproq sho'rlangan paytida natriyning almashish tarkibi, almashishi asoslari summasidan foizda tabiiy yem xashak mulklari degradatsiyasi paytida zaharli o'simliklar bilan ifloslanishi;

-aholi punktlari yerlari holatini taxlil qilish paytida tuproqda, o'simliklarda, suv ostida ifloslantiruvchilar tarkibi tuproqning sanitarlik holati geologik jarayonlar ko'rsatkichi (filtratsiya koefitsiyentlari, yer osti suvlari tavsifi, zamindagi bosim, kuchlanish miqdori va boshqalar), dalalar jismoniy tavsifi; qalinlik va patogentli gruntlar maydoni va mikro organizmlar va boshqalar.

Shunday qilib yer monitoringini amalga oshirish natijasida yer fondi bilan ro'y beradigan negativ o'zgarishlar to'grisida tezkor axborotlar to'plash amalga oshiriladi.

Yer monitoringining yuritishning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi", "Yer osti boyliklari" to'g'risidagi qonun, O'zbekistonda agrar islohotlar bo'yicha qonun xujjatlarida, O'zbekistonda ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish bo'yicha hukumat bayonnomalari va 2005 yilga qadar tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlari bilan belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15 iyul 1992 yil №491 "Yer monitoringi to'g'risidagi" hukumat bayonnomasida yer monitoringining asosiy vazifalari aniqlab berilgan.

5 fevral 1993 yilga №100 hukumat bayyonomasida esa "O'zbekiston Respublikasining yer monitoringining davlat dasturi" tasdiqlangan va yer monitoringi bo'yicha qator aniq tadbirlar belgilangan.

Respublika, viloyatlar yer monitoringini moliyalashtirish respublika byudjeti hisobidan mablag' ajratish va mahalliy byudjetga yer solig'i va yer uchun ijara haqi, shuningdek turli xil ekologik fondlari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi respublika, viloyatlar yer fondining holati to'g'risidagi axborotlar, hisobotlar, ilmiy prognozlar dokladlar ko'rinishida rasmiylashtiriladi va vaqti-vaqti bilan maxsus nashriyotlarda e'lon qilinadi. Yer monitoringi bo'yicha ishlarini kordinatsiyalashtirish va rahbarlik qilishni O'zbekistonning "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi amalga oshiradi.

Yer monitoringi ma'lumotlaridan foydalanuvchilar davlat organlari, O'zbekiston yer kadastr xizmati, mahalliy boshqaruv organlari, va uning faoliyati yerdan foydalanish bilan bog'langan joylardagi korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va boshqa idoralar ayrim fuqarolar xalqaro va chet el organlari atrof muhitni muhofaza qilish yerdan va tabiatdan foydalanish soxasidagi tashkilotlar bo'lib hisoblanadi.

Yer monitoringi bo'yicha ishlarni yanada rivojlanishi uchun yer monitoringining informatsion va texnologik bazasini yaratish zarur. Uni O'zbekiston hududida zond bilan masofali tekshirishni yer ustida kuzatish bilan texnikaviy vositalarni qo'llash orkali yuritishni bosqichma- bosqich tashkillashtirish maqsadi O'zbekiston yerlarida salbiy jarayonlarni bartaraf qilish va o'z vaqtida oldini olish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish va realizatsiya qilishni ta'minlash uchun bu tadbirlar yuqotilishi kerak.

Kelajakda ekologik monitoring tarkibida boshqa idoralar bilan o'zaro ta'sir ko'rsatishda yerni vayron qilishga ta'sir qiladigan yerning buzilishini, salbiy geologik jarayonlar va boshqa axborotlardan to'la darajada foydalanib yer monitoringining ko'p darajali tizimini yaratish kutilmokda.

Hozirgi vaqtda yagona ekologik monitoringning davlat tizimi (YaEMDT)ni yaratish bo'yicha ishlar olib borilmokda. Bu tabiat atrof muhiti holatini nazorat qilish uchun majmuali yondashuvning muhim unsurlaridan birida (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24 noyabr 1993 №1229 bayonnomasi).

MDH davlatlari ishtirokchilari ekologik monitoringning davlatlararo tizimi masalasini yaratishni ishlab chiqmoqdalar, shuningdek xalqaro ekologik axborot tizimiga kirish (integratsiya) masalasi ham.

Nazorat savolari

1. Yer monitoringi tizimi to'g'risida tushuncha va ma'lumotlar bering?
2. Yer monitoringining asosiy vazifalari haqida tushincha bering?
3. Yer monitoringi yuritish tizimi qanday yuritiladi?
4. Avtomatlashtirilgan jo'g'rofiy axborot tizimi to'g'risida tushuncha bering?
5. Yer monitoringini tarkibiy qismlari va bosqichlari.
6. Davlat yer monitoringini o'tkazish asoslari va tuzilmasi
7. Yerdan okilona foydalanishning nazariy masalalari.
8. Yer monitoringini o'tkazishning huquqiy asoslari.
9. Yer munosabatlarini tartibga solishga oid qonunlar va me'yoriy xujjatlarda yer monitoringini o'tkazish masalalari.

III-BOB. YER MONITORINGINI O'TKAZISHNING USLUBIY VA AMALIY MASALALARI.

- 1. Yer monitoringini o'tkazishning huquqiy masalalari**
- 2. Yer monitoringini o'tkazish uslublari.**
- 3. Yer monitoringining amaliy masalalari.**

Tayanch so'zlar: Yer kodeksi, degishlar, texnik va axborotlar tizimi, resurslar, servitutlar va himoya zonasi, er uchastkasining chegarasi, davriy, mavsumiy, sutkali, taxlil qilish, yer toifalari.

O'zbekiston Respublikasida joriy etilayotgan yer monitoringi 1998 yilda Oliy Kengash sessiyalarida qabul qilingan "Yer kodeksi" va "Yer kadastri" to'g'risidagi qonunlarga asosan o'tkaziladi. Yer monitoringini olib borish maqsadi mohiyati va vazifalariga ko'ra quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib borishni maqsadga muvofiq deb bilamiz: ilmiy- uslubiy, uslubiy-amaliy, amaliy-huquqiy, texnik va axborotlar

tizimi.

Ilmiy-uslubiy yo'nalishda yer fondi tarkibida miqdor va sifat o'zgarishlarni qonuniyatlarini asoslash, umum-uslubiy yondashuvlar asosida maqbul yechimlarga intilish usullarini yaratish zarur. Bunda amalga oshiriladigan ilmiy uslubiy yondashuvlar aniq yer uchastkalarida, tajriba maydonlarida, etalon ob'ektlarda olib boriladigan dala tadqiqot ishlari natijasiga asoslanish zarur.

Yer monitoringi respublika miq'yosida kuzatuv va nazorat bo'yicha yagona tizimda o'tkaziladi va quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

- yer fondi tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash;
- yer turlari holatini va bahosidagi tafovutlarni aniqlash;
- yer turlari bo'yicha sodir bo'layotgan salbiy oqibatlarni oldini olish, ogohlantirish bo'yicha tavsiyalar va bashoratlash ishlarini bajarish;
- davlat yer kadastri va yer tuzish muassasalari, yerdan foydalanishini nazorat va muhofaza qilish organlarini zarur axborotlar bilan o'z vaqtida ta'minlash.

Texnik-axborot yo'nalishning asosiy maqsadi avtomatlashgan yagona monitoring bazasini yaratish, dasturlar paketini ishlab chiqish, Respublika yer resurslari to'g'risida ma'lumotlarni qabul qilish, taxlil qilish va saqlash tizimini barpo etish hisoblanadi.

Yer monitoringi yer egaligi va yerdan foydalanuvchi hududida hamda ularning tarkibiga kiruvchi dala va yer uchastkalarida yer toifalari hamda turlarining o'zgarishi va ularni holatini baholash bo'yicha uzluksiz kuzatuvlar va nazorat ishlarini o'z ichiga oladi. Yer egaligi yoki yerdan foydalanuvchilar chegaralaridagi yer resurslarini holatlari alohida o'rganiladi va zarur tadbirlar belgilanadi. Bu jarayon yer toifalari idora, qo'mita yoki vazirliklar tasarrufidagi yer uchastkalari chegaralarida ham o'tkazilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ma'lumki, "Yer kodeksi" ga muvofiq respublikamiz yagona yer fondi 8 ta toifadan iborat bo'lib, bu toifalarga oid yer turlari har bir tuman, mintaq va viloyatda o'zaro chambarchas bog'liq holda hududiy joylashganiga guvoh bo'lamiz.

Demak, bitta ma'muriy-hududiy tuman zamirida bir nechta yer toifalari joylashgan. O'z navbatida yer fondi toifalaridan foydalanishni boshqarishda tuman

hokimligidan tashqari bir nechta idora, qo'mita va vazirliklar ishtirok etishi ma'lum.

Shuning uchun tumanda yer monitoringini joriy etishda amaliy va tashkiliy masalalarni hal etishda qiyinchiliklar kuzatilishi ravshan.

Demak, davlat yer monitoringi xizmat tizimi ham umumiylikdan xususiylikka va aksi bo'lgan xususiylikdan umumiylikka bo'lgan tamoyilga asoslangani maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, bu o'rinda davlat yer kadastri va davlat yer monitoringi xizmatini ma'lum ma'noda uyg'unlashtirgan holda tashkil etish samara beradi. Bunda yer kadastri va yer monitoringi natijalarini bevosita birlamchi manbalarini uyg'unligi, nazariy va amaliy masalalardagi umumiylik ham har ikki yo'nalishni o'zaro aloqadorligidan dalolat beradi.

Yer monitoringi davlat axborot xizmati, davlat muassasalari yoki fuqarolar tasarrufidagi yer resurslari tug'risidagi tezkor ma'lumotlar olish va aniqlangan salbiy oqibatlarni o'z vaqtida bartaraf etishga yordam beradi. O'z navbatida yer monitoringi natijalari asosida yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish chora tadbirlarini ishlab chiqishda yer kadastri va yer tuzish xizmati idoralari zarur manbalarga ega bo'lish imkoniyati yaratiladi.

Yer monitoringi yirik va murakkab bo'lgan davlat miqyosidagi tadbirlar qatori pog'onali va ko'p bosqichli aniq tizimga asoslangan holda o'tkazish zarur. Bunda quyidagi tartib tizimi qo'llanilganda kutiladigan natijalar samarali bo'ladi:

- davlat yer monitoringi (yuqori pog'ona);
- xalqaro giper yer monitoringi (xalqaro miqyosida 1-pog'ona);
- yer toifalari bo'yicha (2-pog'ona);
- yer egaliklari bo'yicha (3-pog'ona)
- yerdan foydalanuvchilar bo'yicha (3-pog'ona);
- yer uchastkalari (lokal) bo'yicha (4-pog'ona);

Yer monitoringi Orol dengizi mintaqasi, Amudaryo, Sirdaryo havzalari, yirik tog'lar mintaqalariga kiruvchi xalqaro ahamiyatga molik dastur-loyihalarni ishlab chiqish jarayoni tarkibida ham O'zbekiston Respublikasi giper yer monitoringi o'tkazishda ishtirok etishi mumkin.

Monitoring - ma'lum manbaning (ob'ektning) holatini uzluksiz kuzatib borish

bo'yicha maxsus tashkil etiladigan tadbir hisoblanadi. Yer monitoringi davlat miqyosida yaxlit tabiiy muhit holati monitoringining tarkibiy qismi bo'lib, uning manbaasi O'zbekiston Respublikasining yerga egalik shakli, undan foydalanish maqsadi va yo'nalishidan kat'iy nazar yagona yer mulk salohiyati hisoblanadi.

Yer monitoringi yer mulk salohiyatining respublika hududida joylashgan o'rne, chegarasi va maydoniga ko'ra ma'muriy tuman, viloyat, mintaq va alohida xususiyatlarga ega bo'lgan maydonlarga nisbatan amalga oshiriladi. Respublika hududida rasmiy ravishda belgilangan iqtisodiy geografik hududlar bo'yicha mintaqaviy monitoring va ekologik landshaft, alohida xususiyatga ega bo'lgan yer egaligi hisoblanadi. Yerdan foydalanuvchi darajasigacha hamda alohida olingan yer maydoni bo'lagi uchun ham lokal yer monitoringin joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yer monitoringi natijalari yer mulk salohiyatini baholash va uning holatini yaxshilash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqishda foydalaniladi. Yer monitoringi bo'yicha kuzatuv tayanch nuqtalari, davlat xizmati muassasalarida tashkil qilingan sharoitda va faoliyatga uzluksizlik maqomi berilgandagina yaxshi samaralarga erishish imkoniyati yaratiladi. O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi"da yer monitoringi yer tarkibidagi o'zgarishlarini o'z vaqtida aniqlash, ularga baho berish, yerdan foydalanish jarayonidagi salbiy oqibatlarini oldini olish va tugatish uchun yer mulk salohiyatini holatini kuzatib turish deb belgilangan.

Yer monitoringi respublika miq'yosida kuzatuv va nazorat bo'yicha yagona tizimda o'tkaziladi va quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

- yer fondi tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash;
- yer turlari holatini va bahosidagi tafovutlarini aniqlash;
- yer turlari bo'yicha sodir bo'layotgan salbiy oqibatlarini oldini olish, ogohlantirish bo'yicha tavsiyalar va bashoratlash ishlarini bajarish;
- davlat yer kadastri va yer tuzishi muassasalari, yerdan foydalanishni nazorat va muhofaza qilish organlarini zarur axborotlar bilan o'z vaqtida ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasida joriy etilayotgan yer monitoringi 1998 yilda Oliy majlis sessiyalarida qabul qilingan "Yer kodeksi" va "Yer kadastri" to'g'risidagi

qonunlarga asosan o'tkaziladi. Yer monitoringini olib borish maqsadi, mohiyati va vazifalariga ko'ra quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib borishni maqsadga muvofiq deb bilamiz: ilmiy uslubiy, uslubiy-amaliy, amaliy huquqiy, texnik va axborotlar tizimi. Ilmiy-uslubiy yo'nalishda yer fondi tarkibida miqdor va sifat o'zgarishlarni qonuniyatlarni asoslash, umumuslubiy yondashuvlar asosida maqbul yechimlarga intilish usullarini yaratish. Bunda amalga oshiriladigan ilmiy uslubiy yondashuvlar aniq yer uchastkalarida, tajriba maydonlarida etalon ob'ektlarida olib boriladigan dala tadqiqot ishlari natijasiga suyanish zarur.

Uslubiy-amaliy va amaliy yo'nalishlar birlamchi manbaalar yerlarni iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik baholash natijalarini aniqlash bo'yicha uslublarni takomillashtirish, yerlarni yangidan haritalash, mavjudlariga zarur tuzatmalar kiritish, yerlarni kompleks baholash uchun manbaalar yig'ish kabi ishlarni bajarish kuzda tutiladi.

Huquqiy, texnik va axborot yo'nalishlarda; yerlardan foydalanishning huquqiy asoslarga mosligi, yer egaligi yoki yerdan foydalanuvchi, tuman va viloyat haritalariga zarur o'zgarishlar kiritish va ularni muntazam nazorat qilish (yerlarni mavjud holati, ekologik, etalon, prognoz, tabiatni muhofaza qilish, tuproq yemirilishi, tuproqlarni meliorativ holati, ularni ifloslanganlik darajasi, ball boniteti va boshqa turdagi haritalarni tuzish); yerdan samarali foydalanishni boshqarish maqsadida nazorat natijalari bo'yicha tegishli davlat organlariga axborot tizimini yaratish va zarur ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazish, nazorat natijalariga ko'ra mahalliy xukumat organlariga, tegishli qo'mita va vazirliklarga yer resurslari holatini yaxshilash bo'yicha taklif, mulohazalar va tavsiya hamda tadbirlar ishlab chiqish va taqdim etish.

Texnik axborot yo'nalishining asosiy maqsadi avtomatlashgan yagona monitoring bazasini yaratish, dasturlar paketini ishlab chiqish, respublika yer resurslari to'g'risida ma'lumotlarni qabul qilish, taxlil qilish va saqlash tizimini barpo etish hisoblanadi.

Yer monitoringi yer egaligi va yerdan foydalanuvchi hududida hamda ularni tarkibiga kiruvchi dala va yer uchastkalarida yer toifalari hamda turlarning

o'zgarishi va ularni holatini baholash bo'yicha uzluksiz kuzatuvlar va nazorat ishlarini o'z ichiga oladi. Yer resurslarining holatini takroriy xotiralash, o'lchov va baholash hamda laboratoriya ishlari uzluksiz kuzatuvlar natijasida aniqlanadi. Yer egaligi yoki yerdan foydalanuvchilar chegaralaridagi yer resurslarining holatlari alohida o'rganiladi va zarur tadbir belgilanadi. Bu jarayon yer toifalari idora, qo'mita yoki vazirliklar tasarrufidagi yer uchastkalari chegaralarida ham o'tkazilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yerdan foydalanuvchi sub'ektlarning atrof muhitga va hududga bo'lgan salbiy ta'siri lokal, mintaqaviy va global miqyoslarda ko'rib chiqiladi.

Yer monitoringini tashkil qilish maqsadiga ko'ra quyidagi ishlab chiqish, belgilashni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

- yerlarni kompleks ro'yxatga olish;
- qishloq xo'jaligi turlari bo'yicha tuproq monitoringini o'tkazish;
- davlat zaxira yerlarini ro'yxatga olish va baholash ishlari;
- yer monitoringini texnik axborotlar tizimini yaratish undan foydalanish tartibini ishlab chiqish;
- yer monitoringin natijalarni ko'rib chiqish, tasdiqlash va rasmiylashtirish;
- yerdan foydalanish bo'yicha huquqiy chora tadbirlar ishlab chiqish va ularning ijrosini nazorat qilish.

Yuqorida yoritilgan yer monitoringini tashkil qilish va amalda joriy etish masalalari barcha yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilar uchun tartib-qoida va yer monitoringini yurituvchi davlat muassasalarini ish ko'lamini umumiy tarzda belgilab beradi. Lekin muammoga chuqurroq yondashganimizda yer monitoringini hayotga tadbiriq etishda nazariy, uslubiy va amaliy masalalarda "uzilishlar" mavjudligi aniqlangan.

Ma'lumki, "Yer kodeksiga" muvofiq respublikamiz yagona yer fondi 8 ta toifadan iborat bo'lib, bu toifalarga oid yer turlar har bir tuman, mintaq va viloyatda o'zaro chambarchas bog'liq holda hududiy joylashganini guvohi bo'lamiz.

Demak, bitta ma'muriy-hududiy tuman zaminida bir nechta yer toifalari joylashgan. O'z navbatida yer fondi toifalaridan foydalanishni boshqarishda tuman

hokimligidan tashqari bir nechta idora qo'mita va vazirliklar ishtirok etishlari ma'lum.

Shuning uchun tumanda yer monitoringini joriy etishda tashkiliy masalalarni hal etishda qiyinchiliklar kuzatilishi ravshan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi tarkibidagi Geodeziya va kartografiya Milliy markazi 20 ta yo'nalishda olib borilayotgan kadastr tizimi faoliyatida ham yer monitoringi davlat xizmati kabi ilmiy-uslubiy va amaliy ishlar olib borilishi mualliflar tomonidan chuqur taxlil qilingan. Natijada davlat kadastrlar tizimini joriy etishdagi ijobiy yo'nalishlar yer monitoringini tashkil qilishda ilmiy-uslubiy yondashuvlarda katta ahamiyatga egaligini qayd etish lozim.

Yer monitoringini joriy etishda xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha va tarmoq ichidagi yerga egalik qiluvchi va yerdan foydalanuvchi sub'ektlar tizimini hisobga olish bu yo'nalishdagi tadbirlarni o'tkazishning yaxlitlik tamoyiliga rioya etishga asos yaratadi. Chunki xalq xo'jalik tarmoqlarini boshqaruv tamoyillari yagona davlat mulki bo'lgan yer resurslaridan foydalanishini boshqarish tamoyillariga to'liq mos keladi.

Demak, davlat yer monitoringi xizmat tizimi ham umumiylikdan xususiylikka va uni aksi bo'lgan xususiylikdan umumiylikka bo'lgan tamoyilga asoslangani maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, bu o'rinda davlat yer kadastr va davlat yer monitoringi xizmatini ma'lum ma'noda uyg'unlashtirilgan holda tashkil etish samara beradi. Bunda yer kadastr va yer monitoringi natijalarini bevosita birlamchi manbalarini uyg'unligi, nazariy va amaliy masalalardagi umumiylik ham har ikki yo'nalishni o'zaro aloqadorligidan dalolat beradi.

Yer egaligi yoki yerdan foydalanuvchi sub'ektlarni ishlab chiqarish faoliyatini bevosita boshqarib turuvchi idora, qo'mita yoki vazirlik qoshida yer monitoringi xizmatini muvofiqlashtiruvchi mutaxassislar guruhini tashkil etish zaruriyati tug'iladi.

Yer monitoringi davlat axborot xizmati, davlat muassasalari yoki fuqarolar tasarrufidagi yer resurslari tug'risidagi tezkor ma'lumotlar olish va aniqlangan

salbiy oqibatlarni o'z vaqtida bartaraf etishga yordam beradi. O'z navbatida yer monitoringi natijalari asosida yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish chora tadbirlarini ishlab chiqishda yer kadastr va yer tuzish xizmati idoralari zarur manbalarga ega bo'lish imkoniyati yaratiladi. Yer monitoringi yirik va murakkab bo'lgan davlat miqyosidagi tadbirlar qatori pog'onali va ko'p bosqichli aniq tizimga asoslangan holda o'tkazish zarur. Bunda quyidagi tartib tizimi qo'llanilganda kutiladigan natijalar samarali bo'ladi:

- davlat yer monitoringi (yuqori pog'ona);
- xalqaro giper yer monitoringi (xalqaro miqyosda 1-pog'ona);
- yer toifalari bo'yicha (2-pog'ona);
- yer egaliklari bo'yicha (3-pog'ona);
- yerdan foydalanuvchilar bo'yicha (3-pog'ona);
- yer uchastkalari (lokal) bo'yicha (4-pog'ona).

Yer monitoringi natijalari respublika Vazirlar Mahkamasi qoshidagi maxsus boshqarma, bu ma'lumotlarni umumlashtiruvchi maxsus idora, muassasa va tashkilotlarni muntazam yig'ilib, taxlil etilib zarur xulosa va tadbirlar ishlab chiqiladi.

Respublika hududida rasmiy ravishda belgilangan geografik hududlar bo'yicha mintaqaviy monitoring va ekologik landshaft, alohida hududiy xususiyatga ega bo'lgan yer egaligi, yerdan foydalanuvchi darajasigacha ma'lum yer maydoni bo'lagi uchun ham alohida (lokal) yer monitoringini o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yer monitoringi Orol dengizi mintaqasi Amudaryo, Sirdaryo havzalari, yirik tog'lar mintaqalariga kiruvchi xalqaro ahamiyatlarga molik dastur-loyihalarni ishlab chiqish jarayoni tarkibida ham O'zbekiston Respublikasi giper yer monitoringi ishtirok etishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Yer monitoringini o'tkazishning huquqiy masalalarini tushintirib bering?
2. Yer monitoringini o'tkazish uslublari haqida tushincha bering?
3. Yer monitoringining amaliy masalalari deganda nimalarni bilasiz?

4. Davlat yer monitoringi xizmat qaysi tartibda amalga oshiriladi.
5. Yer monitoringini o'tkazish tamoyillari, ob'ekti va sub'ekti.
6. Yer monitoringini o'tkazish uslublari yerdan foydalanishda yer holatidagi o'zgarishlar natijasini baholash.
7. Kuzatish jarayonida matematik modellash.

IV-BOB. AGROSANOAT KOMPLEKSIDA YER MONITORINGINI YURITISH XUSUSIYATLARI

- 1. Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish taxlili.**
- 2. Agrosanoat kompleksida yer monitoringini o'tkazish masalalari.**
- 3. Yer monitoringini yuritishda salbiy jarayonlar ko'rsatkichlari.**

Tayanch so'zlar: Agrosanoat, er uchastkasi xatlovi, er uchastkasining kadastr s'emkasi, er uchastkasi chegarasi ta'rifi, er uchastkasi servituti va himoya zonasi, huquqiy hujjatlar, kompleks, korrektirovka.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligini yetakchi tarmoqlaridan hisoblangan agrosanoat kompleksi ehtiyojlari uchun ajratilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilab qo'yilgan yerlardan samarali foydalanishni boshqarish umumdavlat manfaatlaridan kelib chiqadigan muammolardan hisoblanadi.

Agrosanoat kompleksiga ajratilayotgan kapital mablag'lar samarasi shu tarmoqning asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yer resurslari va undan foydalanish darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, agrosanoat kompleksida mehnat unumdorligi yerlarni mahsuldorligiga bog'liq bo'lgani uchun bu sohaga bo'lgan e'tibor xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega.

Milliy xo'jalikning agrar sektori juda katta yer resurslari salohiyatiga ega. Agrar sektor tarkibidagi yer egaliklarida 29,7 mln ga yoki jami yer resurslari maydonining 61% tashkil etadi. Qishloq xo'jalik maqsadlari uchun ajratilgan yerlarning 27,4 mln gektari yoki 92,1 % qishloq xo'jalik yer turlariga kiradi. Shundan 4,2 mln gektari haydalma yerlar, 370 ming ga ko'p yillik daraxtzorlar, 22,8 mln ga yaylov va pichanzorlar, 72 ming ga partov yerlardan iborat. Jami sug'oriladigan yerlar 4,1 mln ga yoki qishloq xo'jalik yerlarni 9,5 %ni tashkil etgan holda respublikada yetishtiriladigan agrar sektor mahsulotlarini 90% dan ortig'i aynan shu yerlar hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida shakllangandan buyon yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish (YeRSFB) masalasida juda katta tub burilishlar ro'y berdi.

O'tgan 25 yil mobaynida mamlakat yer resurslari toifalarida deyarli katta o'zgarishlar bo'lmasada, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida iqtisodiyot taraqqiyotiga mos holda ko'p shaklli yer egaligi va yerdan foydalanish tizimiga sobit qadamlik bilan o'tish bosqichlari amalga oshirilmogda.

25 yillik muddatni tub islohatlar davri deyish mumkin. Milliy xo'jalik tizimidagi barcha tarmoqlaridagi kabi qishloq xo'jaligida ham yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish (YeRSFB) bo'yicha chuqur islohotlar o'tkazishga asosli zamin tayyorlangan. Bu tadbirlarni dastlabki bosqichi qishloq aholisini tomorqa yerlariga bo'lgan extiyojini qondirishdan boshlanib, 1990-1998 yillar mobaynida shu maqsadlar uchun 340 ming gektar yer ajratildi. Natijada qisqa davr ichida tomorqa yer fondi ikki marta ortgan holda hozirgi kunda 610 ming ga ni tashkil etadi. Ikkinchi bosqichda davlat xo'jaliklari o'rniga asosan shirkat xo'jaliklari uyushmalari tarkib topdi. Bu jarayon asosan 1993-1994 yillarni o'z ichiga oladi.

1992 yildan hozirgi davrgacha bo'lgan muddatda dehqon - fermer xo'jaliklari soni va ularga mos ravishda ekin maydonlari ajratish jarayoni davom etib kelmoqda. Hozirgi davrga kelib 21,5 mingdan ziyod fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ularga birlashtirilgan yer maydoni 470 ming gektarni tashkil qiladi. Dehqon - fermer xo'jaliklarini ishlab chiqarish faoliyatida va ularning

yo'nalishida tub burilishni "Fermer xo'jaligi to'g'risida" (1998 y.) va "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi (1998y.) qonunlari Oliy Majlis sessiyasida qabul qilinishi hamda ularni hayotga izchil tadbiriq etilayotgani bo'ldi. 1998 yil iyul oyidagi Oliy Majlisda qabul qilingan "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat uyushmasi) to'g'risida"gi qonun ham YeRSFBda yangicha bosqichni boshlab berdi.

Respublikamiz xalq xo'jaligini ravnaqiga xususan uning agrar sektoridagi YeRSFB muammosini hal qilishda "Davlat yer kadastrini to'g'risida" gi (1998 y.) qonun muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublika yer mulk saloxiyati iqtisodiy mintaqalar bo'yicha bir tekis taqsimlanmaganligi, mexnat va suv resurslari mosligidagi tafovo'tlar va biologik zaxiralar bo'yicha keskin farqlanishi yaqqol seziladi. Bu muammo mintaqalar bo'yicha xalq xo'jalik tarmoqlarini turli darajada va har xil nisbatda rivojlanganlik darajasi bilan keskinlashib kelmoqda. Natijada bir mintaqada yer tanqisligi ikkinchisida esa buni aksini kuzatish mumkin.

Yuqoridagi holatlar ma'lum ma'noda agrar sektorda YeRSFBga salbiy ta'sir etib kelmoqda. Agrar sanoat kompleksi tarkibdagi yerlarning 1978-1998 yillar mobaynidagi sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar taxlili tuproq hosildorligini pasayib borish jarayonini ko'rsatmoqda.

Tuproqning bonitet balini belgilovchi asosiy omillardan hisoblangan gumus qatlamini yemirilish jerayoni YeRSFB da katta salbiy ta'sir etib kelmokda.

O'tgan 20 yil mobaynida tuproq gumus qatlami uchdan bir qismga kamaygani kuzatilgan. Tabiiy yaylovlarning katta qismi madaniy -texnik tadbirlarni o'tkazish ehtiyojiga ega. Shuning uchun agrosanoat kompleksi (ASK) tasarrufidagi yerlarda YeRSFB ehtiyoji ko'chayib bormoqda.

Agrosanoat kompleksining yer fondi qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlari uchun ajratilgan yer resurslaridan iborat bo'lib, bular asosan dehqonchilik, chorvachilik va sanoat korxonalarini egallab turgan yer maydonlarini tashkil qiladi.

ASK da YeRSFB ning quyidagi muammolarini hal etishga qaratilmog'i lozim: birinchidan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish hajmini orttirgan holda maydon birligiga to'g'ri keladigan harajatlarni kamaytirish, ikkinchidan, yer

maydonlarini tejash, uchinchidan, yer mulk salohiyatini muhofaza qilish va uning hosildorligini

oshirish, to'rtinchidan tarmoq ichidagi ixtisosliklar bo'yicha mutanosib ravishda yer taqsimotiga erishish. YeRSFB da yerning ko'p kirrali foydalanish vazifasini inobatga olgan holda uning tabiiy resurs va ishlab chiqarish vositasi sifatida o'zni hamda ahamiyatini hisobga olish zarur.

ASK da YeRSFB jarayoni yerdan tabiiy resurs sifatida qaralmog'i lozim. Bunda yerdan foydalanish maqsadi asosan aholini oziq-ovqatga va sanoatni xom ashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Shuning uchun YeRSFB jarayonida iqtisodiy qonuniyatlar bilan birga tabiatning tabiiy qonuniyatlarini ham hisobga olish zarur. YeRSFB dagi bevosita faoliyat uning vazifasidan kelib chiqqan holda tadbirlar ishlab chiqishga qaratilishi zarur.

Davlat tomonidan ruxsat etilgan vakolat bo'yicha "Yer resurslari davlat qo'mitasi tomonidan olib boriladigan YeRSFB tadbirlari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

YeRSFB keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnologik, yer muhofazasi, huquqiy va boshqa tadbirlarni o'z ichiga oladi. YeRSFB jarayonida shu tadbirlarni o'zaro bog'liq holda hamda xalq xo'jalik tarmoqlari ehtiyojiga ham mos keladigan har bir yer egasi manfaatlarini hisobga oladigan tadbirlar ishlab chiqiladi. Albatta bu tadbirlarni amalga oshirishda YeRSFB ni axborot va ma'lumotlar bilan ta'minlash darajasiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. YeRSFB ni zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash yer kadastrini va yer monitoringini ahamiyatini orttiradi.

Qishloq xo'jaligida yer foydalanish maqsadida tuproq unumdorligi muttasil oshirish, yerlarni hosildorligini o'sishi mahsulot hajmini ko'payishi va uning o'lchov birligiga to'g'ri keladigan harajatlarni kamayishi bilan izohlanadi. Albatta bu tadbirlarni yuqorida keltirilgan beshta yo'nalishning o'zaro bog'liqligi va mutanosibliги natijasida amalga oshirish mumkin.

Hozirgi davrda respublikamizda yer resurslaridan intensiv foydalanish davlat soliq siyosatini amalga oshirish natijasida xalq xo'jaligining barcha

tarmoqlarida kuzatilmoqda.

Yerdan foydalanish samaradorligi ilmiy asoslangan holda yer resurslaridan foydalanishni tashkil qilishga asoslanadi. Tashkiliy tadbirlar ob'ektiv ravishda iqtisodiy qonunlarga bo'ysingan holda ijobiy samaralar berishi mumkin.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini shakllanishining hozirgi sharoitida agrosanoat kompleksi yer resurslaridan samarali foydalanishning tashkil etish mexanizmi "Yer kodeksi" va "Davlat yer kadastr" qonunlari asosida ishlab chiqilmoqda. Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish agrosanoat kompleksida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishning xo'jalik mexanizmi esa bu muammoni bilvosita, ya'ni agrar munosabatlarni tartibga solish orqali amalga oshirishga yordam beradi.

Yer monitoringi turli xil usullar va uslublar bilan olib boriladi. U o'z ichiga joyida kuzatishni (ekspeditsiyali, statsionarli, maajmuali, biosferali qo'riqxonalar, masofali aerokosmik tasvir) va avtomatlashtirilgan axborot tizimini kiritadi.

Bu uslublar va kuzatishlar yordami bilan quyidagi salbiy jarayonlar aniqlanadi:

- uchastkalar, daromad, yer - suv mulki, yerdan foydalanuvchilar va ayrim maydonlariga egalik qilishdagi chegaraning o'zgarishi va holatini, shu jumladan shahardagi barcha uchastkalar qayd etiladi (bu soliq solish uchun zarur);

- tuproq holatining o'zgarishi (kislotali, degradatsiyasi, ifloslanishi va hakovolar);

- geologik muhit, rel'efi holatining o'zgarishi (ko'chkilar, jarliklar, o'pirilishlar, kar'erlar va hakovolar ustidan nazorat);

- o'rmon holatining o'zgarishi;

- hayvonot va o'simliklar dunyosi holatining o'zgarishi;

- aholi punktlari yeri holatining gaz va neft kazib olish ob'ektlari, tozalagich inshootlari, zaharli chiqindilar va radioaktiv materiallar va boshqalarni ko'mish joyining o'zgarishi.

Masalan, spektrozonalni tasvir yordami bilan suv va havo havzalarini va tuproqlarning ifloslanishi, o'simliklar kasallanishi maydonini bilib olish, eroziyalarni kuzatish va boshqa hodisalarni qayd qilish mumkin. Bir necha kilometr masofagacha o'rganishga imkon beradigan lazer lokatsionli tasvir atrof-muhitni o'rganish uchun ayniqsa perspektivlidir.

Kuzatishning fazoli vositalaridan foydalanish bilan zond bilan masofali tekshirish ma'lumotlarning ishlov berish asosida shaharlarning antropogenli dalalari va uning tarqalib turgan hududiga ekologik ta'sirning ma'lum chegarasining tavsifini tuzib chiqish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi yer monitoringini yuritish paytida salbiy jarayonlar ko'rsatkichlari tizimining va salbiy jarayonlar taxliliga quyidagi ko'rsatkichlarni kiritish zarur :

- tuproq degumifaksiyasi paytida chirindining zaxirasi va tarkibi;
- tuproqning chiziqli eroziyasi paytida jarli tusinli tarmoqlarning qalinligi, parchalanishi koeffitsiyenti va boshqalar;
- tuproq eroziyasining yassilik paytida, chirindi gorizontining quvvati, tuproqli gorizontallar va boshqalar kamayishi;
- tuproqning kislota ishkori sharoiti o'zgargan paytida Rn, gidrolitik kislotaligi;
- sho'rlangan paytida, tuzlar zaxirasi va takibi, ularning kimyoviy tarkibi, tuproq profili bo'yicha taqsimlanishi;
- yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan doirada va ifloslantiruvchilar real konsentratsiyasi, pestitsidlar, og'ir metallar bilan yerni ifloslantirish paytida.
- ma'lumotlarining to'planishi, suv havzalarining loyqa bilan ko'mish natijasida yerning ifloslanishi paytida;
- texnogenli faoliyat bilan (foydali qazilmalarni yuzini ochish, kar'erlar va boshqalar) yer buzilishi paytida-organogenli gorizontning quvvati maydonlar kamligi va hajmning pasayishi.
Hozirgi vaqtda har qanday hudud rivojlanishining xo'jalik harakati va barcha rejalari tabiatda landschaft - ekologik muvozanatni saqlab qolishga, yerlar degradatsiyasi mavjud bo'lgan joylarni yo'q qilishi va betaraflantirish to'la imkon beradigan qishloq xo'jaligi, sanoat va boshqa antropogenli o'zgartirgan strukturasi shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Agroekologik monitoring

Qishloq xo'jaligida ekologik muammolarga qiziqishning o'sishi agroekologik monitoringni tashkil etish to'g'risidagi masalani kun tartibiga qo'ydi. Bu monitoring qishloq xo'jaligi korxonalarini, tashkilotlar va fuqarolar yerlarida salbiy jarayonlarni bartaraf etish va oldini olish, nazorat qilish, ularni muhofaza qilishni ta'minlash maqsadida tuproq holatini muntazam uzoq muddatli kuzatishdir.

Agroekologik monitoringning asosiy maqsadi tabiiy va iqlim resurslaridan maksimal foydalanishning, tuproq qoplaminin muhim vazifalarini himoya qilish, tuproq unumdorligini takror ishlab chiqarish asosida agrotsenozlar ekologik muvozanatini va samaradorligini yaratish uslublarini ishlab chiqishdir. U tuproqning antropogen o'zgarishlarini aniqlashga yo'naltirilgan, pirovardida u inson salomatligiga ziyon yetkazishi mumkin.

Agroekologik monitoringning roli shundan iboratki, atmosferada, gidrosferada, biosferadagi barcha o'zgarishlar tuproq unumdorligiga, xususiyatiga va tarkibiga muqarrar aks ettiriladi.

O'zbekiston Respublikasining yer fondi umumiy maydonidan qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar 22,5 mln.ga, shulardan 3,7 mln.ga ekinzor hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi yerlarining sifat holati O'zbekistonning ko'pgina mintaqalarida qoniqarsiz ahvolda.

Yer munosabatlari isloh qilish natijasida qishloq xo'jaligi korxonalari yerlari tomorqa yerlarga ajratish, fermer va boshqa xo'jaliklar tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda, xususi yordamchi xo'jalik, polizchilik, dala hovli qurish uchun aholining ehtiyoji qondirilmoqda, qishloq aholi punktlari yerlari kengaymoqda, yerlarni qayta taqsimlash ishlariga zarurat tug'ildi.

Shu bilan birga, yer islohatini o'tkazish paytida yerlar saqlanishi va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari yechiladi.

Asosiy salbiy omillar, ularning ta'siri ostida hozirgi zamon yerdan foydalanishi shakllanadi, ular quyidagilardan iborat:

1. Yerlarni, ularning sifat ko'rsatkichlarini hisobga olmasdan, faol qishloq xo'jaligida foydalanishga jalb qilishi;
2. Sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining salbiy ta'sir ko'rsatishi (qishloq xo'jaligi yerlari ifloslanishi);
3. Qishloq xo'jaligi korxonalari keng qamrovli yer tuzish ishlarini o'tkazish vaqtida tabiiy landshaftning xususiyatini hisobga olinmasligi;
4. Yer resurslaridan oqilona foydalanish va tuproq unumdorligini muhofaza qilishda iqtisodiy rag'batlantirishning yo'qligi;
5. Agrosanoat majmuasida xo'jalik yuritishning iqtisodiy mexanizmi takomillashmaganligi, yer resurslarini ekspluatatsiya qilish vaqtida buzilishlarga yerdan foydalanuvchilarning ma'sulyatsizligi, hisobga olishning ishonchli emasligi, yer mulk holati ustidan nazoratning yo'qligi.

Shu munosabat bilan agroekologik monitoringning vazifalari quyidagilardan iborat:

- agroekologik tizim holatining o'zgarishi ustidan keng ilmiy kuzatishni tashkil qilish;
- barcha asosiy blok - komponentlari ishlab chiqishini tavsiflaydigan majburiy ko'rsatkichlar to'plami o'rnatilishi bo'yicha ob'ektiv, muntazam va tezkor axborotlar olish;

- olingan axborotlarni baholash;
- yaqin va uzoq kelajakda agrotsenoza holati o'zgarishining prognozi;
- barcha darajada maslahatlar, tavsiyalar, qarorlar berish, favqulotda vaziyatlarda ogohlantirish va ulardan chiqish yo'llarini ko'rsatish.

Agroekologik monitoring O'zbekiston Respublikasining Kishloq va suv xo'jaligi vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari Davlat qo'mitasi tomonidan yer monitoringi olib boriladi.

Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- tuproq holatini, ular unumdorligining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini muntazam kuzatish;
- tuproq holatining o'zgarishlarini prognozlash va baholash;
- agroekologik monitoringning yaxlit holga keltirilgan mintaqa xizmatlarini ishlab chiqish (5 - jadval).

5-jadval

Majmuali tuproq monitoringining mazmuni (tarkibi)

Maqsad	Vazifalar	Ob'ektlar
Tuproq xususiyatini, ulardan foydalanishning turli Ko'rinishi vaqtida noxush O'zgarishlarni oldindan bilish	Eroziya oqibatida tuproqning o'rtacha yillik talofati o'simliklar oziqasining asosiy unsurlari mintaqa tahchilligini bilib olish tuproq ishqori va kislotaligi o'zgarishi ustidan nazorat, sho'rlanish tartibi ustidan nazorat, global ifloslanish nazorati, mahalliy ifloslanish nazorati.	Eng asosiy tuproq-iqlim zonalar, eroziyasi xavfli tuproqlar hududi foydalanadigan tuproqlar, sho'r - suv melioratsiyasi rejalashtirilgan yoki amaldagi haydalanadigan tuproqlar sanoat korxonalarini to'plagan zonalar tuprog'i

Qishloq xo'jaligi ekinlari ostidagi yilning mavsumlari bo'yicha tuproq holatining nazorati	Namligi ustidan nazorat, harakati ustidan nazorat, suv-jismoniy xususiyati ifodasi, o'simliklar ozuqasi unsurlash tarkibining nazorati.	Muhim qishloq xo'jaligi ekinlarini uzoq vaqt intensiv eqiladigan hududlardagi tayanch tarkiblar tuprog'i
--	---	--

Agroekologik monitoringini tashkillashtirish havo yoki suv monitoringiga nisbatan ancha murakkabdir.

Tuproq yer sathining tizimida qobiqlardan biri rolini o'ynaydi. Bu tizimda bevosita ekologik ahamiyatga ega bo'lgan talay global vazifalarni bajaradi, ya'ni organizmlar yashaydigan muhitda shu jumladan inson ham.

Tuproqning - bu sayyoraning «terisi»dir. Litosferaning ekzogen omillari behat intensiv ta'sir ko'rsatishidan himoya qiladi va muvofiq ravishda haroba bo'lishidan ham.

Tuproqni ifloslantiruvchi moddalarni asta sekin to'plab beradi, shu bilan birga boshqa tabiiy vujudga kelishlardan himoya qiladi. U yer osti suvlarini kimyoviy ifloslanishdan himoya qiladi.

Tuproq shuningdek kam harakatchan va yetishib bo'lmaydigan o'simliklar shakllanishi ko'pgina birikmalarni birlashtiradi. Shu bilan o'simliklar mahsulotiga og'ir metallar yoki boshqa unsurlar va moddalar tushushidan himoya qiladi. Biroq bu kimyoviy vazifasini bajara borib tuproqning o'zi asta sekin ifloslanishiga duchor bo'ladi. Ma'lum bosqichda shunday darajaga erishishi mumkinki tuproq qoplami yo qishloq xo'jaligida foydalanishga yoroqsiz bo'lib qoladi yoki batamom harob bo'lgan tuproq qatlamini tiklashga o'n yillab, hatto yuz yillab vaqt talab qiladi. Texnika vositalar yordamida rekultivatsiya bo'yicha ishlar juda katta harajat talab qiladi.

Tuproq hissasining noxush o'zgarishi nafaqat inson faoliyatining natijasi tufayli ro'y beradi balki shu bilan birga tuproq vujudga keladigan oddiy tabiiy

omillar ta'siri ostida tabiiy yo'l bilan shakllanadi. Masalan, tuproq sho'rlanishiga noto'g'ri sug'orish oqibati bo'lsa shu bilan birgalikda zamin yerlari yaqin joylashgan yerdan tuzlarni tabiiy olib chiqib ketish jarayoni hamdir.

Tuproq monitoringini tashkillashtirish boshqa muhit monitoringiga qaraganda ancha murakkabdir. Masalan suv yoki havo monitoringi sabablari quyidagicha:

- Tuproq-tekshirishning murakkab ob'ektidir, chunki u biokos badanini ifodalaydi va u qonun, tirik tabiat va ma'danlar podshohligida yashaydi;

- Tuproq-ko'pfazali, geterogenli ochiq tizimdir, bu yerda qattiq fazalar, tuproq eritmalari, tuproq hovasi, o'simliklar ildizlari, jonli organizmlar ishtiroki bilan kimyoviy o'zaro ta'sir ko'rsatishlar ro'y beradi;

- Tuproqni ifloslantiruvchi xavfli kimyoviy unsurlari, tog' jinslari va tuproqlardan tashkil topuvchi, tabiiydir. Ular tuproqqa tabiiy va antropogenli manbalardan tushadi. Monitoringning vazifasi esa antropogen tashkil etuvchisi ta'sir ko'rsatish usulini baholashdan iboratdir.

Tabiat muhiti ifloslanishi umumdavlat nazorati xizmatining dasturi bilan muvofiqlikda haydaladigan yer tuproqlarida hamma joyija muntazam organik tabiatni pestitsidlar, gerbitsidlar va boshqa ifloslantiruvchi moddalar qoldiqlari tarkibini aniqlashni nazarda tutadi.

Tuproqqa oid monitoring samarali bo'lishligi uchun uch xil darajada o'tkazish zarur:

1. O'simlik qoplami holatining monitoringi (o'simliklar ortidan nazorat).
2. Tuproq holatining monitoringi (mexanik va morfologik ko'rsatkichlar bahosi).
3. Tuproq ifloslanishining monitoringi (kimyoviy tahlil).

Hozirgi paytda nazorat asosan tuproq ifloslanishi ko'rsatkichlari ustidan amalga oshirilmoqda. Mahalliy va global ifloslanishi sinovdan o'tayotgan tuproqlar holatining kuzatilishi olib borilmoqda. Suv va havodan ko'ra ko'proq konservativ bo'lgan tizim tuproq ifloslanishiga samarali qarshilik ko'rsatishga qodirdir. (yerning tirik organizmlari har yili 350 mlrd.t. organik moddalardan foydalanadilar

va to'la parchalab tashlaydilar).

Tuproq holatini baholashda ekologik ko'ngilsizliklarning asosiy mezonlari tuproqning jismoniy degradatsiyasi, kimyoviy va biologik ifloslanish ko'rsatkichlari bo'lib hisoblanadi va quyidagi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi:

- qishloq xo'jaligi aborotidan chiqarilgan yerlar maydoni;
- yer qobig'i chiqindilari yo'qotilishi;
- zamin suvlari darajasining ko'tarilishi;
- radioaktiv ifloslanish;
- PDK kimyoviy moddalar (xavflilik darajasini hisobga olish bilan)

ko'tarilishi;

- Mikrob massasining faollik darajasining kamayishi;
- Fitotoksikligi (biotestlashtirish ma'lumotlari bo'yicha).

Qo'shimcha ko'rsatkichlar sifatida qishloq xo'jaligi mahsuloti ifloslanganlik darajasi singari ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Tarkibida pestitsidlar mavjud bo'lgan tuproqlar keskin me'yorlashtirishga duchor bo'lishadilar. (6 - jadval)

6-jadval

Tuproqda pestitsidlar konsentratsiyasi ruxsat berilgan chegarasi

Pestitsidning nomi	Tuproqning PDK IT/kg	Limitlashtirilgan ko'rsatkich
Akteppik	0,5	Translakatsionga oid
Akteppik	0,1	Umumsanitariy (SRNq55 tuproq uchun)
Astrozin	0,5	Translakatsionga oid
Betanal	0,25	Translakatsionga oid
Zonaton	1,0	Translakatsionga oid va migratsion havoga oid
Gomma izomer GXSG	0,1	Translakatsionga oid
2,4- DA	0,25	Translakatsionga oid

Zopon	0,5	Translakatsionga oid
Karbofos	2,0	Translakatsionga oid
Metofos	0,1	Translakatsionga oid
Promotrin	0,5	Translakatsionga oid
Daunzal	0,5	Translakatsionga oid
Semeron	0,1	Translakatsionga oid va suv
Fosfarid	0,3	Translakatsionga oid
Simazin	0,2	Translakatsionga oid
Sineb	0,2	Umum sanitariyasi
Eptam	0,9	Translakatsionga oid

Yagona davlat yer fondining barcha yerlari uchun tuproqning sanitariya holatini nazorat qilish o'tkaziladi. Tuproqning sanitariya holati deyilganda uning epideiologik va gigeiyenik munosabatlarini aniqlaydigan, tuproqning fizik-kimyoviy va biologik xususiyatlarining yig'indisidir.

Tuproqning sanitariya holati qator ko'rsatkichlarda baholanadi, ular jumlasiga: sanitar soni (oqsilli - azot tarkibining umum organikka nisbati); ichak tayoqchalarining mavjudligi, pashsha qurilari, gelxmintlar tuxumi (7-jadval).

7-jadval

Tuproq sanitariya holatining majmuali gigeiyenik ko'rsatkichlari

Tuproqning sifat bahosi	Ko'rsatkichlar nomlari				
	0,25m ³ tuproqda pashsha g'umbagi va kurtagi ekz.	1 kg tuproqda gijjalar tuxumi ekz.	Koli -titr	Titr anaerobli bakteriya-lar	Sanitariya soni
Toza	0	0	1 va ko'proq	0,1 va ko'proq	0,98-1,0
Kuchsiz Ifloslangan	Yakka	10 qator	1 - 0,01	0,1 - 0,001	0,85 - 0,98

Ifloslangan	10 - 25	11 - 100	0,01 - 0,001	0,001-0,00001	0,70 - 0,80
Kuchli Ifloslangan	25 ko'proq	100 ko'proq	0,01 va ko'proq	0,00001 va kamroq	0,70 va kamroq

Ko'rsatkichlar ma'lumotining majmuasi bo'yicha tuproq toza yoki ifloslangan sifatida baholanadi.

Ishlab chiqarish korxonalarida ham, aholi punktlarida ham (8-jadval) tuproqning sanitar holatini aniqlaydigan qator qo'shimcha ko'rsatkichlar mavjud. Ular jumlasiga:

- asosan tuproq filxtrlariga tegishli sanitariya va fizika - kimyoviy baholash (sanitar soni, kislotaliligi, kislorodning bioximik iste'moli, xloridlar, sulxfatlar tarkibi, oksidlanish);
- sanitarno - entomologik baholash ko'rsatkichlari;
- sanitarologik (yashash joy va turmush bilan bog'liq, hashoratlar, birinchi navbatda, pashshalar ularning barcha fazalarida rivojlanishi (katta urug'lari, g'umbaklari, gijjalari);
- aholi qatnaydigan joylarda tuproqda mavjud gelxmintlarni (insonlar, hayvonlar va o'simlik organlarida tekinxo'rlik qiluvchi qurtlar) tavsiflovchi sanitarno - gelxmintologik baholash ko'rsatkichlari);
- mavjud ichak bakteriyalari, shuningdek inson va uy hayvonlari kasallanishini keltirib chiqaradigan boshqa mikroorganizmlar birga qo'shib sanitarno-bakteriologik ko'rsatkichlari.

8-jadval

Tuproqning sanitariya holatining ko'rsatkichlar nomenklaturasi

Ko'rsatkichlar	Tuproqning xususiyatini tavsiflovchi
Sanitar soni	Sanitar - kimyoviy
Ammoniyga oid azot MG/kg	Sanitar - kimyoviy
Natriyli azot MG/kg	Sanitar - kimyoviy
Xloridlar MG/kg	Sanitar - kimyoviy
Pestitsidlar MG /kg	Sanitar - kimyoviy

Og'ir metallar MG /kg	Sanitar - kimyoviy
Neftx va neftx maxsulotlari MG/kg	Sanitar - kimyoviy
Oltingugurtli birikmalar MG/kg	Sanitar - kimyoviy
Konselogenga oid moddalar MG /kg	Sanitar - kimyoviy
O'g'itlar (qoldiq miqdori) MG /kg	Sanitar - kimyoviy
RN	Sanitar - kimyoviy
Radioaktivga oid moddalar KI/kg	Sanitar - kimyoviy
Termofilxga oid bakteriyalar, titr	Sanitar - bakteriologik
Koli- titr, ichak qalamchalari guruhi	Sanitar - bakteriologik
Bakteriyalari	
Klostridli perfigena, titro - bakteriyali	Sanitar - bakteriologik
Tuproqning ekz/kg gelxmintlar kapalagi va tuxumi	Sanitar - gelxmintologik
Sinantropoli pashshalar g'umbagi va qurtlari, ekz/kg	Sanitarno - entomologik

Tuproqda ba'zi bir kimyoviy moddalar konsentratsiyalari yo'l qo'yiladigan sanitar me'yori 9 - jadvalda keltirilgan.

9-jadval

Tuproqda kimyoviy moddalarning konsentratsiyalari yo'l qo'yiladigan sanitar me'yori

Moddalar	Fona (klarka) hisobga olish bilan tuproqning PDK MG/kg	Limitlashtiruvchi ko'rsatgich
Kolxbat	5,0	Umumsanitariyali
Ftor	2,8	Translakatsionli
Xrom	6,0	umumsanitariyali
Suv eruvchanlik shakli		

Benz(a)pirin	0,02	umumsanitariyali
Ksilopi ortometapara	0,3	translakatsionli
Marshmush	2,0	translakatsionli
Ko'mirning fgot atsiya chiqindilari	3000	Suvli va umum sanitariyali
Simob	2,1	translakatsionli
Qo'rg'oshin	32,0	umumsanitariyali
Qo'rg'oshin q simob	20,0q 1,0	translakatsionli
Oltinugurt birikmalari	160,0	umumsanitariyali
elementar sera		
serovodorod	0,4	havoli
spirt	0,1	umumsanitariyali
Xloridli - kaliy	560,0	suvli
Xrom	0,05	umumsanitariyali
Izopropilbenzol q apfamestipstirol	0,5	havoli
Superfosfat R ₂ O ₅	200	Usimlikka o'tishi

Aholi punktlari tuproqlarini baholash mezonini tanlash bu hududlar suvi va havosida ifloslantiruvchi moddalar o'tish imkoniyati bilan aniqlanadi. Shuningdek aholi salomatligiga ayrim ko'rsatkichlar to'g'ri ta'sir ko'rsatishi bilan ham. Aholi punktlari tuprog'ini radioaktiv ifloslanishini baholash ikkita asosiy ko'rsatkich bo'yicha o'tkazilishi: tuproqdan (MKR/Ch) 1m darajasida zonaning ekspozitsion quvvati va ayrim radio izatop (Kyuri/km²) bo'yicha ifloslanish darajasi.

Tuproqning kimyoviy ifloslanishini, ifloslanishning kimyoviy ko'rsatkichlari (ayrim komponentlar konsentratsiyasi koeffitsiyentlar summasi) bilan baholanadi.

Shaharlar rangli va qora metallurgianing yirik korxonalarini, kimyo va kimyo neft sanoati, mashinasozlik atrofidagi tuproqlar og'ir metallar, neft mahsulotlari ftor birikmalari va boshqa zaharli moddalar bilan ifloslanishi meyorlashtiriladi.

(10-jadval)

10-jadval

Tuproqda ba'zi bir kimyoviy moddalar konsentratsiyasining yo'l qo'yilishi joiz bo'lgan chegarasi Mg/kg

Moddalar	PDK	Limitiruvchi belgilar
Benz(a)piren	0.02	Umumsanitariyalar
Benzin	0,1	Havo-migratsionli
Vanadiy	150	Umumsanitariyali
Margimush	2	Translakatsionli
Simob	2,1	Translakatsionli
Qo'rg'oshin	32	Umumsanitariyali
Kobalxt	5	Umumsanitariyali
Miss	3	Umumsanitariyali
Polixlorbifenidlar (summarli)	0,06	Umumsanitariyali

Agroekologik monitoring mahalliy, mintiqaviy va dunyo miqyosida olib boriladi.

Agroekologik monitoring asosiy prinsiplardan iborat:

- agroeko tizimning eng muhim belgilari o'zgarishini aks ettiradigan turli xil guruh ko'rsatkichlarni bir vaqtda nazorat qilishning to'laligi;
- agroeko tizim ortidan uzluksiz nazorat. Har bir ko'rsatkich bo'yicha uning o'zgarish surati va intensivligiga qarab vaqti vaqti bilan kuzatishni aniq belgilash;
- yagona ilmiy-uslubiy rahbarligi ostida, muvofiqlashtirilgan dastur bo'yicha turli xil mutahassislar (tuproqshunoslar, agroximiklar, gidrologlar, mikrobiologlar) o'tkazadigan tekshirishlar vazifalari va maqsadlarining birligi;
- agroeko tizimning barcha blok komponentlari «tuproq-o'simlik, yer, suv, atmosfera, xayvonlar, inson» tekshirish, ya'ni tekshirishlar tizimliliigi;
- tekshirishlar ishonchliligi;

- turli xil zonalarda joylashgan ob'ektlar tizimi bo'yicha kuzatishlar birga bo'la olishligi.

Yerdan foydalanishning hozirgi zamon ekologik oqibatlarini baholaydigan va aks ettiradigan haritalar muhim geoinformatsion manba bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Toshkent hududida agroekologik monitoringning maqsadi uchun birtalay haritalar eroziyasi tuzib chiqilgan: oqimning shakllanish sharoitlari va tuzilishining landshafti; pestitsidlar, mineral va organik o'g'itlar solish; ifloslanish manbalari; hudud ifloslanishining turli xil turlari intensivligini baholash va ularni tavsiflash; yerlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar.

Bunday haritalar agroekologik monitoringning asosi, yerdan foydalanishning ekologik asoslangan bazasi va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish usuliga ekologik chegaralanishning parametrlarini ishlab chiqish uchun baza bo'lib xizmat qiladi.

Agroekologik monitoringi ekologik xavfli manbalarini, tuproq unumdorligini zond bilan masofali tekshirishning yangi uslub va texnologiyasini ishlab chiqishga, mineral oziqasining darajasini, biologik, geoximik, jismoniy barqarorligini hisobga olish bilan turli xil landshaftlar sho'rlariga yo'l qo'yilishiga ruxsat etiladigan antropogen nagruzka chegarasini aniqlashga imkon yaratadi va majmuali tavsif beradi. Shuningdek biologik uslublar, agroximik, agrotexnik usullardan foydalanish bilan oziqaning (tuproq, o'simlik, inson) trofik zanjiridan taksikontlarni chiqarib yuborish uslubi va texnologiyasini amalda o'zlashtirish va ishlab chiqish.

Geoekologik monitoring

Geoekologik monitoring - bu tabiiy va antropogen omillari ta'sir ko'rsatishi sharoitida atrof muhitning holatini makon va zamonda baholash va prognozlashning muntazam uzoq kuzatishlar tizimining majmuasidir.

Bu tizim tabiiy tizimlar turli xil komponentlar (litologik tarkibi, ya'ni ekinlar qoldig'i, ularning tarkibi, gruntlar joylashish darajasi, kimyoviy tarkibi va zamin suvlari agressivligi va x.k.) va ular o'zaro ta'sir ko'rsatishi jarayonida muhandis-texnikaviy, ekologik jarayonlarning muntazam kuzatilishidir.

Geoekologik monitoring - bu umum ekologik monitoringi, atrof- muhitning holati ustidan nazorat qilish tizimining takibiy qismidir. U asosan yirik mega

polislarda , chunonchi: sanoat ishlab chiqarishi yetarli darajada keng rivojlangan, ham kichik, ham yirik korxonalar mavjud joylarda, avtomobilga yoqilg'i quyish shaxobchalari, ilmiy korxonalar, maishiy xizmat ko'rsatish markazlari, avtomagistrallar va x. joylarda o'tkaziladi.

Geoekologik monitoringning maqsadi - noxush gidrotexnogen jarayonlar hududni geologik barqarorligini prognozi, tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun uni himoya qilishning tavsiyalarini ishlab chiqishni baholash va nazorat qilishni amalga oshirish uchun zaruriy axborotlarni olishdir.

Geoekologik monitoringning asosiy vazifalari geotizim komponentlari (atmosfera, suv, o'simlik, tuproq, litosfera va sh.k.) holatlari va geoekologik vaziyat yig'indisida aniqlanadigan ular o'zaro ta'sir ko'rsatishi jarayonida muhandis texnik ob'ktlar o'zgarib turishi ustidan muntazam kuzatish olib borishdan iboratdir.

Shahar agromelioratsiyalari sharoitida inson hayoti maishiy qulayligi darajasi ustidan umumiy nazoratni joriy etish uchun geoekologik monitoringning majmuali dasturini yaratish zarur.

Axborotlar to'plash odatda hududning batavsil tahlilidan boshlanadi. Seliteb, sanoat va rekreatsion zonalarni ajratish bilan keyingi 30 - 50 yilda uning o'zgarishini hisobga olish bilan tumanning infrastrukturasi haritasi tuzib chiqiladi.

Ishlarning keyingi bosqichida tor ixtisoslashgan axborotlarni tashuvchi «tabaqali» haritalar tuzish bilan taqkoslovlar taxlililga asoslangan:

- 1) Talveglar va suv ajratish kartasi;
- 2) Yer sathining qiyaliklari;
- 3) Rel'efning texnogen o'zgarishlari dinamikasi (rekultivatsiya, kamchak, ag'darish, arxitektura rejalashtirish qarorlari).

Bu axborotlarning batafsil taxlili inson yashashi uchun eng ko'p noxush zonalarni ajratish bilan hududning taxminiy geologik haritasini tuzishga imkon beradi.

Geoekologik monitoring majmuasi umumiy tizimning va tabiat komponentlariga ham tabiiy, ham texnogen salbiy ta'sir ko'rsatishning oqibatlarini

o'z vaqtida oldini olishga, shuningdek muhandis texnika ob'ektlarini: o'z vaqtida himoya tadbirlarini o'tkazish yo'li bilan hududning geoekologik barqarorligini saqlashga imkon yaratiladi.

Nazorat savollari.

1. Yer monitoringining mintaqaviy tizimining vazifalari haqida tushincha bering.
2. Yer monitoringining axborot mintaq tizimining manbaalari deganda nimalarni tushinasiz.
3. Agroekologik monitoring deganda nimalarni bilasiz.
4. Monitoring o'tkazish tartibi va bosqichlari.
5. Shahar hududida yer monitoringini o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari
6. Shahar yer fondining tarkibi.
7. Shaharda yer monitoringini o'tkazish maksadi va vazifalari.

VIII-BOB. QISHLOQ XO'JALIK YERLARIDA TUPROQ MONITORINGI VA TABIIY YAYLOVLARDA O'SIMLIKLAR MONITORINGINI O'TKAZISH TARTIBI

- 1. Qishloq xo'jalik yerlarida tuproq monitoringini o'tkazish tartibi.**
- 2. Tuproq texnogen buzilishlarini monitoringi.**
- 3. Tabiiy yaylov yerlarida o'simliklar monitoringi o'tkazish tartibi.**

Tayanch so'zlar: Agrosanoat, litografiya (ranglar) maketi, punsonlar geografik elementlar, kompleks, qishloq xo'jalik kooperativi, shirkat uyushmasi.

Mustakil O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligini yetakchi tarmoqlaridan hisoblangan agrosanoat kompleksi ehtiyojlari uchun ajratilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilab kuyilgan yerlardan samarali foydalanishni boshqarish umum davlat manfaatlaridan kelib chikadigan muammolardan hisoblanadi.

Agrosanoat kompleksiga ajratilayotgan kapital mablaglar samarasi shu tarmoqning asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yer resurslari va undan foydalanish darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, agrosanoat kompleksida mexnat unumdorligi yerlarni maxsuldorligiga bog'liq bo'lgani uchun bu soxaga bo'lgan e'tibor katti xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega.

Milliy xo'jalikning agrar sektori juda katta yer resurslari saloxiyatiga ega. Agrar sektor tarkibidagi yer egaliklarida 29,7 mln ga yoki jami yer resurslari maydonining 61% tashkil etadi. Qishloq xo'jalik maqsadlari uchun ajratilgan yerlarning 27,4 mln gektari yoki 92,1 % qishloq xo'jalik yer turlariga kiradi. Shundan 4,2 mln gektari xaydalma yerlar, 370 ming ga ko'p yillik daraxtzorlar, 22,8 mln ga yaylov va pichanzorlar, 72 ming ga partov yerlardan iborat. Jami sugoriladigan yerlar 4,1 mln ga yoki qishloq xo'jalik yorlarni 9,5 % ni tashkil etgan holda respublikada yetishtiriladigan agrar sektor maxsulotlarini 90 % dan ortigi aynan shu yerlar xissasiga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi mustakil davlat sifatida shakllangandan buyon yer resurslaridan samarali foydalanishni

boshqarish (YeRSFB) masalasida juda katta tub burilishlar ro'y berdi. Utgan 7 yil mobaynida mamlakat yer resurslari toifalarida deyarli katta o'zgarishlar bulmasada, bozor munosabatlariga utish jarayonida iqtisodiyot tarokkiyotiga mos holda ko'p shaklli yer egaligi va yerdan foydalanish tizimiga sobitkadamlik bilan utish bosqichlari amalga oshirilmokda.

25 yillik muddatni tub isloxatlar davri deyish mumkin. Milliy xo'jalik tizimidagi barcha tarmoqlaridagi kabi qishloq xo'jaligida ham yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish (YeRSFB) bo'yicha chukur isloxatlar o'tkazishga asosli zamin tayyorlangan. Bu tadbirlarni dastlabki bosqichi qishloq aholisini tomorka yerlariga bo'lgan extiyojini kondirishdan boshlanib, 1990-1998 yillar mobaynida shu maqsadlar uchun 340 ming gektar yer ajratildi. Natijada kiska davr ichida tomorka yer fondi ikki marta ortgan holda xozirgi kunda 610 ming ga ni tashkil etadi. Ikkinchi bosqichda davlat xo'jaliklari urniga asosan shirkat xo'jaliklari uyushmalari tarkib topdi. Bu jarayon asosan 1993-1994 yillarni uz ichiga oladi.

1992 yildan xozirgi davrgacha bo'lgan muddatda dexkon - fermer xo'jaliklari soni va ularga mos ravishda ekin maydonlari ajratish jarayoni davom etib kelmokda. Xozirgi davrga kelib 21, 5 mingdan ziyod fermer xo'jaliklari faoliyat kursatib kelmokda. Ularga biriktirilgan yer maydoni 470 ming gektarni tashkil qiladi. Dexkon - fermer xo'jaliklarini ishlab chiqarish faoliyatida va ularning yo'nalishida tub burilishni "Fermer xo'jaligi to'g'risida" (1998 y.) va "Dexkon xo'jaligi to'g'risida" gi (1998 y.) qonunlari Oliy Majlis sessiyasida qabul qilinishi hamda ularni xayotga izchil tadbik etilayotgani buldi. 1998 yil iyul oyidagi Oliy Majlisda qabul qilingan "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat uyushmasi) to'g'risida"gi qonun ham YeRSFB da yangicha bosqichni boshlab berdi.

Respublika yer mulk saloxiyati iqtisodiy mintaqalar bo'yicha bir tekis taqsimlanmaganligi, mexnat va suv resurslari mosligidagi tafovo'tlar va biologik zaxiralar bo'yicha keskin farqlanishi yakkol seziladi. Bu muammo mintaqalar bo'yicha xalq xo'jalik tarmoqlarini turli darajada va har xil nisbatda rivojlanganlik darajasi bilan keskinlashib kelmokda. Natijada bir mintaqada yer tankisligi

ikkinchisida esa buni aksini kuzatish mumkin.

Yuqoridagi holatlar ma'lum ma'noda agrar sektorda YeRSFB ga salbiy ta'sir etib kelmokda. Agrar sanoat kompleksi tarkibdagi yerlarning 1978- 198 yillar mobaynidagi sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar taxlili tuproq hosildorligini pasayib berish jarayonini kursatmokda.

Tuproqning bonitet balini belgilovchi asosiy omillardan hisoblangan gumus qatlamini yemirilish jarayoni YeRSFB da katta salbiy ta'sir etib kelmokda.

Utgan 20 yil mobaynida tuproq gumus qatlami uchdan bir qismga kamaygani kuzatilgan. Tabiiy yaylovlarning katta qismi madaniy -texnik tadbirlarni o'tkazish extiyojiga ega. Shuning uchun agrosanoat kompleksi (ASK) tasarrufidagi yerlarda YeRSFB extiyoji ko'chayib bormokda.

Agrosanoat kompleksining yer fondi qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlari uchun ajratilgan yer resurslaridan iborat bo'lib, bular asosan dexkonchilik, chorvachilik va sanoat korxonalarini egallab turgan yer maydonlarini tashkil qiladi.

ASK da YeRSFB ning quyidagi muammolarini xal etishga karatilmog'i lozim: birinchidan, qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetishtirish xajmini orttirgan holda maydon birligiga to'g'ri keladigan harajatlarni kamaytirish, ikkinchidan, yer maydonlarini tejash, uchinchidan, yer mulk saloxiyatini muhofaza qilish va uning hosildorligini oshirish, turtinchidan tarmoq ichidagi ixtisosliklar bo'yicha mutanosib ravishda yer taqsimotiga erishish. YeRSFB da yerning ko'p kiralni foydalanish vazifasini inobatga olgan holda uning tabiiy resurs va ishlab chiqarish vositasi sifatida urni hamda ahamiyatini hisobga olish zarur.

ASK da YeRSFB jarayoni yerdan tabiiy resurs sifatida qaralmog'i lozim. Bunda yerlan foydalanish maqsadi asosan aholini oziq-ovqatga va sanoatni xom ashyoga bo'lgan extiyojini kondirishga karatilgan. Shuning uchun YeRSFB jarayonida iqtisodiy qonuniyatlar bilan birga tabiatning tabiiy qonuniyatlarini ham hisobga olish zarur. YeRSFB dagi bevosita faoliyat uning vazifasidan kelib chikkan holda tadbirlar ishlab chiqishga karatilishi zarur.

Davlat tomonidan ruxsat etilgan vakolat bo'yicha "Yer resurslari davlat qo'mitasi tomonidan olib boriladigan YeRSFB tadbirlari ishlab chiqiladi va amalga

oshiriladi.

YeRSFB keng kamrovli ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnologik, yer muhofazasi, huquqiy va boshqa tadbirlarni uz ichiga oladi. YeRSFB jarayonida shu tadbirlarni o'zaro bog'liq holda hamda xalq xo'jalik tarmoklari ehtiyojiga ham mos keladigan har bir yer egasi manfaatlarini hisobga oladigan tadbirlar ishlab chiqiladi. Albatta bu tadbirlarni amalga oshirishda YeRSFB ni axborot va ma'lumotlar bilan ta'minlash darajasiga ko'p jaxatdan bog'liq bo'ladi. YeRSFB ni zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash yer kadastrini va yer monitoringini ahamiyatini orttiradi.

Qishloq xo'jaligida yer foydalanish maqsadida tuproq unumdorligi muttasil oshirish, yerlarni hosildorligini usishi maxsulot xajmini ko'payishi va uning ulchov birligiga to'g'ri keladigan harajatlarni kamayishi bilan izohlanadi. Albatta bu tadbirlarni yuqorida keltirilgan beshta yo'nalishning o'zaro bog'liqligi va muttanosibligi natijasida amalga oshirish mumkin.

Hozirgi davrda Respublikamizda yer resurslaridan intensiv foydalanish davlat soliq siyosatini amalga oshirish natijasida xalq xo'jaligining barcha sohalarida kuzatilmoqda.

Yerdan foydalanish samaradorligi ilmiy asoslangan holda yer resurslaridan foydalanishni tashkil qilishga asoslanadi. Tashkiliy tadbirlar ob'ektiv ravishda iqtisodiy qonunlarga buyingan holda ijobiy samaralar berishi mumkin.

Mustakil O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini shakllanishining xozirgi sharoitida agrosanoat kompleksi yer resurslaridan samarali foydalanishning tashkil etish mexanizmi "Yer kodeksi" va "Davlat yer kadastrini" qonunlari asosida ishlab chikilmokda. Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish agrosanoat kompleksida uziga xos xususiyatlarga ega. Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishning xo'jalik mexanizmi esa bu muammoni bilvosita, ya'ni agrar munosabatlarni tartibga solish orkali amalga oshirishga yordam beradi.

Nazorat savollari.

1. Qishloq xo'jalik yerlarida tuproq monitoringini o'tkazish tartibi qanday amalga oshiriladi.
2. Tuproq texnogen buzilishlarini monitoringi qanday o'tkaziladi.

3. Tabiiy yaylov yerlarida o'simliklar monitoringi o'tkazish tartibi qanday amalga oshiriladi.
4. Ma'lumotlar bankini yaratish va undan foydalanish.
5. Qishloq xo'jalik yerlarida yer monitoringini o'tkazish tartibi
6. Qishloq xo'jalik yerlarida monitoring o'tkazishning umumiy tartibi.
7. Sugoriladigan yerlarda yer monitoringini o'tkazish xususiyatlari.

IX-BOB. YER MONITORINGINING ILMIIY-TEXNIK TA'MINOTI

- 1. Ilmiy texnik-ta'minot to'g'risida tushuncha.**
- 2. Yer fondini zond bilan masofali tekshirish.**
- 3. Yer holatini tezkorlik bilan baholashda qo'llaniladigan texnik vositalar.**

Tayanch so'zlar: topografa - geodezik, tuproqli, meliorativ, yer fondi, Tuproq haritasi, erlar ortiqcha namlanishi va suv bosishi haritasi, erlar ifloslanishi haritasi, agrokimyo haritasi.

Yerlar monitoringini olib borish uchun axborotni turli xil tasvirlar, qidirishlar, izlanishlar, taftishlar (topografa - geodezik, tuproqli, meliorativni). Maxsus kuzatishlar (uyumlar, sellar), zond bilan masofali tekshirishdan foydalanish bilan yer usti tasviri va kuzatishlar o'tkazish natijalari ta'minlaydi. Arxiv (fond) ma'lumotlari ham foydalaniladi.

Yaqqin vaqtga qadar ko'pgina kuzatishlar, taftishlar va tasvirlar yer fondini o'rganish maqsadida o'tkazadigan turli vazirliklar va muassasalar tarmoq me'yoriy - texnik xujjatlar asosida bir biridan ajralgan holda bajariladi.

Ayni vaqtda yerlarni o'rganish masalasi yagona davlat yondoshuvini talab qiladi, chunki yer tabiat muxini aynan muhim qismidir, o'rmon va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun asosiy ishlab chiqarish vositasidir, shuningdek xalq xo'jaligining barcha korxonalarini va tashkilotlarini joylashtirish uchun bazisli makondir. Yerlar monitoringi boshqa barcha tabiiy rel'ef kadastrlar va monitoringini bog'lovchi xol bajaradi va davlat maqomiga ega bo'lishi kerak.

Ierarxiyaning turli xil darajasida ekologik vaziyat axborot (ayrim korxonadan boshlab va dunyo miqyosi darajasigacha) ekologik vaziyatining axborot portori deb atalishi yordami bilan namoyon etadi, u joyning kartografik asosiga kiritilgan grafikli ma'lumotlarni ifodalaydi.

Axborot portretining xal qiluvchi qobiliyati ayrim detallarni kurish qobiliyati kartoosnovadan foydalanish masshtabiga bog'liq, u maxalliydan to dunyo miqyosi darajasiga ko'payadi. Masalan, axborot portretida monitoringning maxalliy darajasiga barcha emissiya manbalari sanoat korxonalarining ventilatsion trubalari va boshqalar - mintqa darajasida esa ta'sir ko'rsatishning manbalari yaqin joylashganlari bitta guruxli manbalarda kushilib ketadilar. Federal darajada axborotning fazoviy umumlashuvi yanada ko'proq kuzatiladi statsionar va kuchma laboratoriyalar etalon uchastkalar, poligonlardan foydalanish bilan barcha toifadagilar bo'yicha yer ustidagi kuzatishlar o'tkaziladi har bir laboratoriya aniq hududga berkitiladi, standart uskunalar va uslubdan foydalanadi. Laboratoriya eksperimental asosida yetarligi katta hududda majmuali agroekologik taftishni bajarishi mumkin.

Laboratoriya 9 ta yoki 3 ta kuchma sublaboratoriyalar bloki, xayotini ta'minlash bloki, bazani laboratoriyadan iborat.

Bazani laboratoriya bloki barcha mujmuaning markaziy zvenosini ifodalaydi. Blok qabul qilish apparaturasiga, ro'yxatga olish, ma'lumotlarni boshlangich umumlashtirish, axborotlarni saklash va uzatishlarni uz ichiga oladi. Bazani blokning vazifasi - ob'ektning kengaytirilgan tiplari bo'yicha har xil parametrlarni ekspress-taxlili, chunonchi agar agroekologik yoki tuproq monitoringi olib borilayotgan bulsa, unda tuproqlar holati (monometriya, spektrometriya, xronometriya, radiometriya va boshk.) nazorati bo'yicha barcha taxlillar bajariladi.

Hayotni ta'minlash bloki barcha laboratoriya majmuasining ishga layokatligini tutib turadi, ya'ni xo'jalik vazifasini, energiya bilan ta'minlash, aloka, servis xizmati vazifalarini va boshk. sublaboratoriya bazaviy laboratoriyaga kushimchaligini ifodalaydi va taftish nuktalar sonini kengaytirishga imkon beradi. Sublaboratoriya parametlar kiskartirilgan to'plami bo'yicha ekspress-taxlilini

bajaradi. Bitta kuchma laboratoriya majmuasi bazaviy laboratoriya kuyilgan joydan 20-30 km masofada ikkita, uchta sublaboratoriyaga ega bo'lishi mumkin.

Sublaboratoriya muxtor ishlashi ham mumkin. Texnika vositalari yordam bilan axborotlarga ishlov berish va tezkorlik bilan olishning yer ustidagi chakkon ulchov-axborot majmualaridan foydalaniladi.

Birok muntazam nazoratning an'anaviy yer ustidagi uslubi juda kimmat va turli xil kasb mutaxassislarining ko'pchiligini jalb qilishni talab etadi.

Kosmosdan yerni zond bilan masofani tekshirish olinadigan axborotni anchagina arzonlashtirishga imkon beradi, chunki shu bilan birga monitoring oddiy, tez va hammabop vositalar bilan amalga oshiriladi. Zond bilan masofali tekshirish uslubi - bu o'lchash ma'lumotlari bo'yicha ob'ektlar xakida axborot olishdir, ya'ni ular bilan to'g'ri aloka kilmasdan turib.

Masofani monitoring - bu uchuvchi yoki kosmik apparatlar, shuningdek uzok aloka vositalari orkali axborotni uzatuvchi va avtomatik qayd qiluvchi yer ustidagi apparatlar yordami bilan amalga oshiriladi.

Yer fondini zond bilan masofali tekshirish uchun video- fotoaxborotlar beruvchi (radioalokatorlar, TV-kanallari va boshqalar) uskunalar va priborlardan foydalaniladi.

Yer fondini zond bilan masofali tekshirish priborlar va uskunalarning ikkita asosiy guruxlaridan foydalanish bilan amalga oshiriladi.

- Video va foto axborot beruvchi (aerofotoapparatlari, ko'pzonali skanirleydigan moslama, radiolokatorlar, TV-kameralari va boshqalar priborlar);

- Trassali guruxlar (spektrometlar SVCh va radiometrlar, IK va boshqa) priborlari. Samolet skaneridan foydalanish bilan keyinchalik ma'lumotlarga EHMda ishlov berish yo'liga kariyib 20 mln.ga. Maydonga urtacha masshtabli harita tuzishga imkon beradi, aerosizualx va yer ustidagi baholashga asoslangan tabiiy yem-xashak yeri va bugi yaylovlari o'simliklari to'g'risida axborotlar olishning an'anaviy uslubi esa vaqt sarf qilishini nazarda tutadi. Bu geobotaniq haritani yangilash muddatini baz'an 15 yilgacha tuzadi.

Kosmik apparatlar va baland uchadigan samolyotlar bilan tasvirga olish

yerlar holatining federal (geobal) va mintaqa darajasida tavsiflash uchun olib boriladi.

Kichik aviatsiya yordami bilan kuzatish va tasvirlar - maxalliy monitoring uchun va aerokosmik axborotlarini oydinlashtirish uchun olib boriladi.

Yer holatini aniqlash paytida kosmik fotoaxborotni jalb qilish urganiladigan ob'ektlar fotoplani, rangi, geometrik xajmi va tasvirning boshqa xususiyatlarini bilish yo'li bilan landshaftning jismoniy unsurlarini aniqlashdir.

Tabiiy jarayonlarning anchagina soni tasvirda to'g'ri in'ikosini topmaydi. Ularni aniqlash bilan vosita deshifrovka belgilari asosida amalga oshiriladi.

Masalan, bilvosita belgilar bo'yicha yer osti suvlash ba'zi bir tuproq farqlari, tabiiy resurslar rivojlanish bosqichlari yerlar namligining ortishi deshifrovka kilinadi.

Kosmik fotosuratlardan foydalanish samaradorligi axborot xajmining yuqori xal qilish kobiliyati bilan bog'langan.

Yerlar kartografik holatini quyidagi haritalar to'plami bilan tafsiflash mumkin bo'ladi:

1. Yerlar foydalanishi haritasi (maqsadli vazifalari - ekinzorlar, o'rmonlar, pichanzorlar, butazorlar va boshqalar).
2. Landshaftli harita (landshaftlar turli xil shurlash geomorfologiyasi).
3. Tuproqlar deflyatsiyasi va eroziyasi haritasi.
4. Tuproq haritasi.
5. Yerlar ortiqcha namlanishi va suv bosishi haritasi.
6. Yerlar ifloslanishi haritasi.
7. Agrokimyo haritasi.
8. Chirindining disbalans haritasi va boshqalar.

U yoki bu xo'jalik hududi rivojlanishining iqlim sharoiti tuprogi geologogeomorfologik ishlab turishini hisobga olish bilan har bir aniq tuman (mintaqa) uchun shunga uxshash kartalar tarkibi aniqlanadi.

Tabiiy resurslar va yerlar monitoringini yuritishni ta'minlash uchun yer satxini zond bilan masofali tekshirish uslublari va aerokosmik vositalarini tadbik

etishda fotografik va kartografik materiallari bilan turli xil texnika vositalari va har xil balandlikdan ro'yxatga oladigan turli videoma'lumotlarining masshtablarini barcha kushib olib borish vazifasini kuyadi.

Odatga kura, bog'lanish jarayoni tajribali deshifrovkachilar ishini uz ichiga oladi, ular tasvirlarning fotoplani, rangi, geometrik xajmi va boshqa uziga xos xususiyatlari bo'yicha landshaftning u yoki bu xususiyatini deshifrovka qilish mumkin.

Agrokosmik monitoringning afzalligi axborot olishni yuqori darajada tezkorligidir, uning xozirgi zamon hisoblash texnikasi yordami bilan ishlov berish imkoniyatidir foydalanishni tashkil qilishi va klassifikatsiyasi saklashishidadir. Masalan, harobalashishning quyidagi parametlarini aniqlaydi. Yaylovlar biomassasini, qishloq xo'jaligilari hosildorligini, yer qatlamining chiqindisi kuvvatini, tuproq qoplaminig kalinligina, zamin suvlari darajasi, chiziqli va tekislik tuproq eroziyasini, o'simlik turlarini (tabiiy va qishloq xo'jaligi ekinlari) ularning fazalari va vegetatsiyasini va sh.k.), favkulotdagi ekologik vaziyatni nazoratini paytidagi bevosita foyda mamlakatning barcha mintaqalarida ist'emolchilarni ekspress-axborot bilan ta'minlash, avariylar oqibatini prognozlik baholash va tabiiy-texnogendan kelib chikkan kadastrlar monitoringning operativ kosmik vositalari olib keladi.

Yerni zamon bilan masofali tekshirishning iqtisodiy samaradorlik hisobi juda baland. Masalan, ba'zi ma'lumotlarga kura gidrometeorologik ta'minlashda yo'ldosh axborotidan foydalanish iqtisodiy harajat va zararni oldini olish summasi uni olishdagi harajatlardan 10-15 barobar oshib tushadi.

Uzok shimol sharoitida tuproq qoplaminig monitoringi uchun zond bilan masofali tekshirishni tadbik etish quyidagi asosiy tabiiy ob'ektlarini bilib olishni ta'minlaydi.

Skanerli tasvirlar bo'yicha lishayniklar va yashil butazorlar hisoblanadi: spektrozonal aerorasmga olish bo'yicha yaprokli o'rmonlar, kriogenga oid jarayonlar va ularga xos rel'efning shakllari deshifrovka kilinadi; radiolakatsionli tasvir suv ob'ektlari yakinidagi yerlar suv bosish darajasi to'g'risida, botqoqlar va

siyrak o'rmonlar botqoqlanishining joylashishi to'g'risida axborotlar beradi. Shu bilan birga masofali monitoringning yo'ldoshdan havodan yerda olinadigan turli xil ma'lumotlar urtasidagi korrelatsiyalar izlashga asoslangan metodologiyasi yerda tekshirilgan ma'lumotlar bilan taqqoslash bo'yicha axborotlarning bir qismi yukolishi nazarda tutiladi.

Shuning uchun yerlar monitoringining eng maqsadga muvofiq va samaralisi bo'lib, u uch xil darajadi tuplangan: yerdan (ma'lum vaqtda tuplangan axborotlar), havodan (yengil samolyotlarda uchib muntazam razvedka olib borish yordami bilan) va kosmosdan (yo'ldosh tizimlari bilan rakamni ma'lumotlar yoki vizualx uzaykichlar yordamida) ma'lumotlar bir vaqtda foydalanish kiritiladi.

Yerlar holatini tezkorlik bilan baholash uchun texnik vositalar majmuasi quyidagi vazifalarni yechadi:

- energetika, sanoat va aloqa tizimlari tabiiy komplekslarini ularning ekologik va funksional holatini baholash maqsadida yerlar hududini yer ustida va masofali taftish qilishni tezkorlik bilan o'tkazish;

- kartografik ishlarni ta'minlash uchun aerosurat o'tkazish;

- o'rmon va suv fondi ob'ektlari, hududlar urbanizatsiyalashuvi, salbiy jarayonlari geologik va gidrogeologik jarayonlar monitoringini amalga oshirish.

- tabiiy va texnogen tavsifining favkulotdagi vaziyatlar oqibatlar va masshtablarini baholash va bilib olish;

- davlat yer kadastri va yerlardan foydalanish hamda muhofaza qilishning davlat nazoratini axborot bilan ta'minlanishi;

- O'zbekiston Respublikasi davlat xokimiyat organlari boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida tabiiy va xo'jalik hududlari holati to'g'risida tezkor va ishonchli axborotlar olish:

- avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazalarini yangilash va yaratish.

Ifloslanish manbalari va tabiat muhiti atrofining holatini nazorat qilishni instrumental va axborot bilan ta'minlash bo'yicha ishlar rivoji to'g'risidagi qaror bilan muvofiqlikda, ifloslanish manbalari tabiat muhiti atroflari holati ustidan hududiy va maxalliy darajalari YeGSEM 1999-1997 va 2000 yil kuzatishlarning

uchadigan tiplovoy avtomatlashtirilgan tarmog'ini instrumental ta'minlashni yaratish (TASNOS) dasturi ishlab chikilgan.

YeGSEM ishlab turishini ta'minlash va tashkil qilish ekologik monitoring-muvofiqni ilmiy bazasini yaratishni talab qiladi va binobarin ilmiy ishlarni keng doiradagi muammolar bo'yicha o'tkazishni ham.

Ekologik monitoringning ilmiy bazasi «O'zbekistonning ekologik xavfsizligi» dasturi doirasida yaratiladi. Ilmiy tekshirish ishlarining birlamchiligini aniqlash va rejalashtirish paytida YeGSEM yaratishda talay kapital qurilish mablagi talab qiladi. U bir andozali loyihalar va qarorlardan maksimal foydalanish hisobidan, texnik vositalar unifikatsiyasi, YeGSEM ishlab turishni ta'minlashning har xil turlari va uslubi foydalanish harajatlarni jiddiy kamayishga olib ketishi mumkin bo'ladi.

Ekologik monitoringning mintaqa tizimlarini tashkillatirishga yagona ilmiy uslubiy yondoshuvni shakllantirish uchun, ekologik monitoringning xuddiy tizimlari rivojlanishi, tabiat muhofaza faoliyatini boshqarish prinsiplarini amalga ishlab chiqish uchun viloyatlar hududida eksperimental mintaqa tizimlarini yaratish bo'yicha katta xajmli ishlar amalga oshirilmokda.

Eng oldingi tartibda hududiy darajada kuzatishning turlicha idoralar tizimida olinadigan ekologik ma'lumotlar taxlili va to'plashning axborot tizimlari ishlab turishining me'yoriy asosi ishlab chikilmokda.

Kuzatishning barcha yo'nalishlari bo'yicha YeGSEM realizatsiya qilish paytida davlat va idora xizmati hamkorligini tashkil qilish eng murakab va eng kam olga siljigan vazifalardan iboratdir. Fakat ayrim mintaqalarda kuzatish xizmatining davlat va nodavlat mintaqasi darajasidagi viloyatlarda YeGSEM da ishtirok etish reglamentatsiya ta'minlovchi me'yoriy xujjatlar yigimini yaratish boshlangan. Ishlarning bu yo'nalishi intensivatsiyani talab qiladi, chunki xozirgi vaqtda federal darajada va federatsiyasi sub'ektlari darajasidagi ekologik monitoringning tizimlari integratsiyasi masalasi eng dolzarb masala bo'lib kelmokda.

O'zbekiston YeGSEM yaratish bo'yicha ishlarning muhim tarkibiy qismi atrof muhitga va bio antropogen ta'sir ko'rsatishning manbalari monitoringini

tashkil etishdir.

Antropogen ta'sir ko'rsatish manbalari monitoringi tizimi atrof muhitga ifloslantiruvchi moddalar tushishini tafsiflaydigan ko'rsatkichlar to'g'risida miqdoriy ma'lumotlar olishga muljallangan.

Antropogen ta'sir ko'rsatish manbalar holatini nazorat qilish va kuzatish vositalari ekspluatatsiyasi va yaratish uchun mas'uliyat tabiatdan foydalanuvchilar hammasiga yuklatiladi. Tabiatdan foydalanuvchilar kuzatish vositalarini ekspluatatsiya qilishning to'g'riligini O'zbekiston tabiat vazirligining hudud organlari nazorat qiladilar. Bir birining huquq va burchi, shuningdek YeGSEM bilan tabiatdan foydalanuvchilar o'zaro ta'sir tartibi (nazorat va kuzatish qilishda ta'sir ko'rsatishi) «YeGSEM to'g'risidagi nizom» va viloyatlar, tumanlar hududlarida ekologik monitoringni yuritish to'g'risidagi nizomlar bilan reglamentatsiya kilinadi. YeGSEM kator tajriba hududlarida shunday nizomlar ishlab chikilgan.

O'zbekistonning avtomatlashtirilgan axborot tizimi (AAT) Yer ustidagi turli xil kuzatishlar (topografo-geodezik, tuproq, meliorativ va boshk.) va zond bilan masofali tekshirish (kosmik va aerotasvir), arxiv ma'lumotlaridan foydalanib taftish o'tkazish yordami bilan turli xil mintaqa ma'lumotlar banki shakllanadi.

O'zbekiton Respublikasi yerlar monitoringining federal dasturi «Yerlar monitoringining axborot bazasi» bulimida O'zbekiston yerlari atlasini tayyorlash va tuzib chiqishga shuningdek «O'zbekiston yerini» avtomatlashtirilgan axborot tizimini (AAT) tadbik etish va ishlab chiqishga aloxida urin ajratilgan.

«O'zbekiston yeri» AAT O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv organlari federatsiya sub'ektlari, maxalliy uz-uzini boshqarish organlarini axborot bilan ta'minlash maqsadida tuziladi «O'zbekiston yeri» AAT markazlashtirish belgisi bo'yicha kurilgan uz ichiga bosh markaz (federal darajasi), mintaqa markazlari (federatsiya sub'ektlari darajasi), maxalliy markazlar (shahar, tuman-munitsipal tashkil topishi).

Yerlar monitoringi bo'yicha ishlar yanada rivojlanishi uchun yerlar monitoringining texnika va axborot bazalarini yaratish zarur; O'zbekiston hududida

bosqichma bosqich yerlar monitoringini yuritishni tashkil etish; ekologik monitoring tizimi tarkibida boshqa vazirliklar va idoralar o'zaro alokadorligida yerlar holatini tavsiflaydigan (tuproq hosildorligining kamayishi, yerlar meliorativligi bartaraf etilmaganligi, radionuktalar yerlar ifloslanish, texnogeni ifloslanish va yerlarning buzilishi salbiy geologik jarayonlar yerga harobalashtiruvchi ta'sir ko'rsatish va boshk.) salbiy jarayonlar axborotdan tula darajada foydalanib ko'p darajali axborot tizimini yaratish.

Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishda yer monitoringining o'rni.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligini yetakchi tarmoqlaridan hisoblangan agrosanoat kompleksi extiyojlari uchun ajratilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilab qo'yilgan yerlardan samarali foydalanishni boshqarish umumdavlat manfaatlaridan kelib chiqadigan muammolardan hisoblanadi.

Ma'lumki, agrosanoat kompleksida mehnat unumdorligi yerlarni mahsuldorligiga bog'liq bo'lgani uchun bu sohaga bo'lgan e'tibor xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega.

Milliy xo'jalikning agrar sektori juda katta yer resurslari salohiyatiga ega. Agrar sektor tarkibidagi yer egaliklarida 29,7 mln ga yoki jami yer resurslari maydonining 61% tashkil etadi. qishloq xo'jalik maqsadlari uchun ajratilgan yerlarning 27,4 mln gektari yoki 92,1 % qishloq xo'jalik yer turlariga kiradi. Shundan 4,2 mln gektari xaydalma yerlar, 370 ming ga ko'p yillik daraxtzorlar, 22,8 mln ga yaylov va pichanzorlar, 72 ming ga partov yerlardan iborat. Jami sug'oriladigan yerlar 4,1 mln ga yoki qishloq xo'jalik yerlarni 9,5 % ni tashkil etgan holda respublikada yetishtiriladigan agrar sektor mahsulotlarini 90 % dan ortig'i aynan shu yerlar xissasiga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida shakllangandan buyon yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish masalasida juda katta tub burilishlar ro'y berdi. O'tgan 7 yil mobaynida mamlakat yer resurslari toifalarida deyarli katta o'zgarishlar bo'lmasada, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida iqtisodiyot taraqqiyotiga mos holda ko'p shaklli

yer egaligi va yerdan foydalanish tizimiga sobitqadamlik bilan o'tish bosqichlari amalga oshirilmoqda.

1992 yildan hozirgi davrgacha bo'lgan muddatda dehqon - fermer xo'jaliklari soni va ularga mos ravishda ekin maydonlari ajratish jarayoni davom etib kelmoqda. Xozirgi davrga kelib 21, 5 mingdan ziyod fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ularga birlashtirilgan yer maydoni 470 ming gektarni tashkil qiladi. Dehqon - fermer xo'jaliklarini ishlab chiqarish faoliyatida va ularning yo'nalishida tub burilishni "Fermer xo'jaligi to'g'risida" (1998 y.) va "Dehqon xo'jaligi to'g'risida" gi (1998 y.) qonunlari Oliy Majlis sessiyasida qabul qilinishi hamda ularni hayotga izchil tadbiiq etilayotgani bo'ldi. 1998 yil iyul oyidagi Oliy Majlisda qabul qilingan "qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat uyushmasi) to'g'risida"gi qonun ham yer resurslaridan samarali foydalanishda yangicha bosqichni boshlab berdi.

Respublikamiz xalq xo'jaligini ravnaqiga xususan uning agrar sektordagi yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish muammosini hal qilishda yer fondidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash uchun uning holatini kuzatib borish, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatdan foydalanishni, yer tuzishni, yer fondidan belgilangan maqsadda va oqilona foydalanish belgilangan maqsadda va oqilona foydalanish, yerlarni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati amalga oshirilishini axborot bilan ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida yer monitoringi to'g'risida" gi (2000 y.) nizomi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer monitoringi - tabiiy muhit holati monitoringining asosiy qismlaridan biri bo'lib va shu bilan birga boshqa tabiiy-muhit monitoringining asosi bo'lib hisoblanadi. Davlat yer kadastrini yuritishni, yerdan foydalanishni, yer tuzish, yer fondidan belgilangan maqsadda va oqilona foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni, yerlarni muhofaza qilish organlarini axborot bilan ta'minlash yer monitoringi asosida amalga oshiriladi. Yer resurslaridan samarali foydalanishni zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash yer kadastrini va yer monitoringi ahamiyatini orttiradi.

Tuproqning bonitet balini belgilovchi asosiy omillardan hisoblangan gumus qatlamini yemirilish jarayoni yer resurslaridan samarali foydalanishda katta salbiy ta'sir etib kelmokda.

O'tgan 20 yil mobaynida tuproq gumus qatlami uchdan bir qismga kamaygani kuzatilgan. Tabiiy yaylovlarning katta qismi madaniy -texnik tadbirlarni o'tkazish extiyojiga ega. Shuning uchun qishloq xo'jaligida tuproqlarning unumdorligi, yerlarni hosildorligini oshirish, maxsulot xajmini ko'payishi va uning o'lchov birligiga to'g'ri keladigan harajatlarni kamaytirishda

Yer monitoringini o'tkazishning asosiy tamoyillari.

Yer monitoringining maqsadi va vazifasi uni yuritishning quyidagi tamoyillariga amal qiladi:

1. Har xil ma'lumotlarni taqqoslash va o'zaro birikishlik tamoyili. U yagona klassifikatorlar, formatlar, normativli-texnikaviy bazaning ma'lumotlari, koordinata va balandlikning yagona davlat tizimi qo'llanishiga asoslanadi;

2. Yer fondi va holati yer monitoringining ma'lumotlariga haqiqatan ham muvofiq kelishi tamoyili;

3. Ma'lumotlarning to'laligi tamoyili;

4. Yer monitoringini yuritishning uzluksizligi tamoyili.

Yer munosabatlarini qayta tuzish jarayonida, mamlakat yer fondining miqdor va sifat ko'rsatkichlarining o'zgarishida uning ayrim toifalari o'zgarishi yer resurslariga antropogenli ta'sirning ko'chayishi yer fondini taqsimlash va tarkibida turli xil o'zgarishlar ro'y beradi. Shuning uchun axborotlarni vaqti-vaqti bilan yeki muntazam yangilab turish yo'li bilan yer monitoringini yuritishning uzluksizligini ta'minlash.

Qolgan tamoyillardan yana quyidagilarni ta'kidlash kerakki, ko'rgazmali tamoyili (harita, atlasla, sxemalardan foydalanish); foydalanish huquqi tamoyili (davlat yoki tijorat sirini tashkil etadigan ma'lumotlardan tashqari); tejamkorlik va samaradorlik tamoyili (yer monitoringi ma'lumotlarini saqlash va tizimlashtirishni ta'minlaydigan usullar, texnologiyalar, uslublarni qo'llash); markazlashtirilgan rahbarlik tamoyili (O'zbekiston Respublikasi miqyosida yagona uslub bo'yicha

yagona markazlashgan monitoringini o'tkazish). Yer monitoringini yuritish uchun turli xil tasvirlar, qidirishlar, taftish qilish (topografo-geodezik, tuproqning, geobotaniqli, agrokimyoviy, meliorativli, shaxta qurilishi va boshqalar); maxsus kuzatishlar (tog'lardan ko'chib yig'ilgan qor uyumi, sel toshqini, gliyatsiologli, radiologichli va boshqalar); kosmik tasvir va kuzatish, balandda uchadigan samolyotlar bilan tasvirga tushirish, kuzatish va kichik aviatsiya vositasi yordami bilan yer ustidan tasvirga olish va kuzatish; shuningdek fondli dalillardan foydalaniladi. Yer fondini masofali zond bilan tekshirish 2 ta asosiy asbob-uskunalar guruxlaridan foydalanish bilan amalga oshiriladi:

Video va rasm axborot (aerofotoapparat, ko'p zonali skaner uskunalar, radiolakatorlar, televideniye kanallar va boshqalar); 2. Trassali guruhlar asboblari (spektrometr, SVCh va IK - radiometlar va boshqalar).

Yer monitoringining shakllangan bazasi va bankidan foydalanishlari mumkin:

1. Davlat va mahalliy boshqarish organlari;
2. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari davlat qo'mitasi va uning joylardagi bo'limlari;
3. Yerdan foydalanuvchi korxonalar, tashkilotlar va boshqa muassasalar;
4. Yerdan va tabiatdan oqilona foydalanishni tashkil etish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi tashkilotlar va chet el hamda xalqaro tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar davlat va munitsipial boshqaruv organlariga zaruriyatga qarab tezlashtirilgan ma'lumotlar, bashoratlar, mavzuli haritalar tuzib chiqadilar va taqdim etadilar hamda har yili birinchi yanvargacha "Yer resurslari davlat qo'mitasi" ga mintaqaning yer fondi holati to'g'risida yillik hisobot tayyorlanadi. O'z navbatida Yer resurslari davlat qo'mitasi yer monitoringi axborotlarini umumlashtirib zaruriyatga qarab tezkor ma'lumotlar, ilmiy bashoratlar mavzuli haritalar va atlaslarni tuzib, manfaatdor vazirliklar hamda idoralarga taqdim etadilar. O'zbekiston Respublikasiga keyingi hisobot yili uchun har yili 1 aprelda kechiktirmasdan O'zbekiston Respublikasining yer fondining holati to'g'risida hisobot yuboradi.

Yer monitoringining tarkibiy qismlari.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yerlardan foydalanish darajasini oshirish va yerdan olinadigan mahsulot miqdorini ko'paytirish maqsadida yer monitoringini tashkil etish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida joriy etilayotgan yer monitoringi barcha yer fondining mavjud holati to'g'risida, uni baholash, o'z vaqtida sifat va miqdor o'zgarishlarini aniqlash, yerdan foydalanishda ro'y berishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha kuzatuvlar tizimini o'z ichiga oladi.

Balanda uchadigan samolyotlar bilan kosmik tasvirga tushirish va kuzatishlarning asosiy vazifasi - global va mintaqa darajasida yer holatini bilib olishdir. Kichik aviatsiya yordami bilan mahalliy yer monitoringi va aerokosmikli axborotni aniqlash uchun olib boriladi.

Yer monitoringning tuzilishi yerdan maqsadli foydalanishni taminlash bo'yicha ma'muriy hududiy bo'linishi bilan aniqlanadi.

Ma'muriy hududiy pog'onalar bo'yicha yer monitoringning tuzilishi quyidagi darajaga ega:

O'zbekiston Respublikasi yer monitoringi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar yer monitoringi.

Tumanlar va shaharlar yer monitoringi;

Milliy monitoringi davlatning maxsus tuzilgan idoralari doirasida amalga oshiriladi.

Mintaqaviy monitoring - biror bir yirik mintaqa vodiy, tuman doirasida hodisalar va jarayonlar ustidan kuzatish bo'lib, jarayon va hodisalar tabiiy tavsifi bo'yicha va biosfera uchun tavsifli bo'lgan antropogenli ta'sir ko'rsatishlar bo'yicha farqlanadi. U O'zbekiston Respublikasining yirik hududlaridan birini qamrab oladi.

- Yer egaligi va yerdan foydalanuvchi sub'ekt yer monitoringi;

- Lokal yer monitoringi (alohida olingan yer uchastkasida).

Yer monitoringning ma'muriy hududiy bo'linishi darajasiga muvofiq yer toifalarining quyidagi bo'limlari nazarda tutiladi:

-qishloq xo'jaligi yerlari monitoringi;

- aholi punktlari yeri monitoringi;
- tabiatni saqlash, sog'lomlashtirish, rekreatsion va tarixiy madaniy ta'minlanish yer monitoringi;
- o'rmon fondining yer monitoringi;
- suv fondining yer monitoringi;
- zaxira yer monitoringi;

Mahalliy (lokal) yer monitoringi mintaqadan past bo'lgan hudud darajasida olib boriladi, yerdan foydalanishning ayrim hududgacha va landshaftli ekologik majmualar (elementlar) tuzilishigacha maydonni qamrab oladi.

Fonli monitoring - bu insonning ta'siriga duchor bo'lmaydigan yer holatini kuzatishdir. Uni biosfera korxonalarida o'tkazadilar. Dunyo minyosidagi fonoviy monitoringni stansiyalarda kuzatish majmuali tavsifga ega va yagona dastur bo'yicha o'tkaziladi.

Impaktli monitoring - bu joylarda bevosita antropogenli omillar ta'sir ko'rsatadigan yerni kuzatishdir. Yer holat o'zgarishining kelib chiqishi bo'yicha evolyutsionli jarayon davriy (sutkalik, mavsumiy, yillik yoki tabiat o'zgarishining boshqa davrlari bilan bog'langan). Favqulotdagi vaziyat (tabiiy va ekologik ofat va xalokatlar) bilan bog'liq; antropogenli (inson foliyati bilan bog'langan), holatlar natijasida yerning miqdor va sifatining o'zgarishi.

Yer holati bo'yicha kuzatish davriyligi va muddatiga bog'liqlikda quyidagilarga bo'linadi: asosiy (yer monitoringini yuritishning dastlabki bosqichida ob'ektlarning holatini qayd etish davriyligi (bir va undan ko'proq yildan keyin, ilgarigi kuzatishlarni tarixiy taxlili).

Yer monitoringi yirik va murakkab, davlat miqyosidagi tadbirlar qatori o'z navbatida pog'onali va aniq tizimli yondashuvga asoslangan holda o'tkazishni taqozo etadi.

Davlat yer tuzish hizmati, amaliyotida qo'llanib kelinayotgan yaxlit yer fondini toifalarga mos holda yer monitoringining tizimi quyidagi shakliy chizmada ko'rsatilgan:

1. Davlat yer monitoringi.

Xalqaro giper yer monitoringi

2-pog'onali yer monitoringi tizimi

Yer toifalari bo'yicha:

2.1. qishloq xo'jalik maqsadlaridagi yerlar monitoringi;

2.2. aholi yashash joylaridagi yerlar monitoringi;

2.3. sanoat, transport, alona mudofaa va boshqa maqsadlar uchun belgilangan yerlar monitoringi;

2.4. tabiatni muhofazasi, sog'lomlashtirish, rekreatsion yerlar monitoringi;

2.5. tarixiy-madaniy ahamiyatiga ega yerlar monitoringi;

2.6. suv fondi yerlari monitoringi;

2.7. o'rmon xo'jaligi yerlari monitoringi;

2.8. zaxira yerlar monitoringi;

3-pog'onali yer monitoringi tizimi.

3.1. Yer egaliklari bo'yicha yer monitoringi manbalari:

3.1.1. jamoa xo'jaliklari;

3.1.2. davlat qishloq xo'jaliklari korxonalarini;

3.1.3 xo'jaliklararo qishloq xo'jaliklari korxonalarini;

3.1.4. qishloq xo'jalik shirkat korxonalarini korporatsiyalari va tashkilotlari;

3.1.5. qishloq xo'jalik ilmiy tekshiruv muassasalar va o'quv yurtlari;

3.1.6. yordamchi qishloq xo'jalik korxonalarini;

3.1.7. dehqon xo'jaliklari;

3.1.8. fermer xo'jaliklarini;

3.1.9. qishloq xo'jaligidagi boshqa ishlab chiqarish korxonalarini.

3.2. Yerdan foydalanuvchilar bo'yicha yer monitoringi manbalari.

3.2.1 aholi yashash joylari bo'yicha:

- shahar va shahar turidagi qishloqlar;

- qishloqlar.

3.3. -yer toifasi bo'yicha:

- sanoat korxonalarini, tashkilotlar va muassasalari;
- transport korxonalarini. Tashkilotlar va muassasalar;
- aloqa turlari bo'yicha korxonalar;
- energetika sohasidagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar;
- radio, televideniya, informatika va boshqa tarmoqlardagi korxonalar, tashkilot va muassasalar;
- mudofaa maqsadlaridagi korxonalar va muassasalar;

3.2. 2.4. -yer toifasi bo'yicha:

- tabiatni muhofazasi korxonalar va muassasalari (qo'riqxonalar va zakazniklar);
- sog'lomlashtirish tashkilotlari va muassasalari;
- rekreatsion ahamiyatidagi muassasalar;
- tarixiy-madaniy yodgorliklar;

3.2. 2.4. -yer toifasi bo'yicha:

- tabiat muhofazasi korxonalar va muassasalari (qo'riqxonalar va zakazniklar);
- sog'lomlashtirish tashkilotlar va muassasalar;
- rekreatsion ahamiyatidagi muassasalar;
- tarixiy, madaniy yodgorliklar.

3.4. 2.5.- yer toifasi bo'yicha.

3.5. 2.6.-yer toifasi bo'yicha.

3.6. 2.7.-yer toifasi bo'yicha.

Respublika hududida rasmiy ravishda belgilangan iqtisodiy geografik hududlar bo'yicha mintaqaviy monitoring va ekologik landshaft, alohida hududiy xususiyatga ega bo'lgan yer egaligi, yerdan foydalanuvchi darajasigacha hamda ma'lum yer maydoni bo'lagi uchun ham alohida (lokal) yer monitoringini o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yer monitoringi Orol dengizi mintaqasi, Amudaryo, Sirdaryo havzalari, yirik tog'lar mintaqalarigacha kiruvchi xalqaro ahamiyatga molik dastur - loyihalarni ishlab chiqish jarayoni tarkibida ham O'zbekiston Respublikasi giper yer

monitoringi o'tkazishda ishtirok etishi mumkin.

Yerlarni holatini aniqlash ishlari muddat va o'tkazish vaqtiga qarab 3 guruxda olib borish tavsiya etiladi;

Yer monitoringini boshlashgacha bo'lgan davrdagi dastlabki birlamchi asos ma'lumotlar;

Muddatli (bir yil va undan ortiq muddatda o'tkaziladigan) kuzatishlar;

Joriy (navbatchi) yoki mavsumiy (oylik, mavsumiy yoki bir yilgacha bo'lgan) kuzatishlar.

Birlamchi ma'lumotlar bevosita yer turlari, yer maydonlari, dalalardagi kuzatishlar natijasida olinib, tumanlar, shaharlar, viloyatlar, mintaqalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumlashtiriladi. Umumlashgan ma'lumotlar belgilangan muddatda yiliga bir marta Respublika Vazirlar Maxkamasiga aniq taklif, tadbir va xulosalar bilan «Uzgeokadastr» tomonidan tayerlanib topshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Birlamchi, muddatli va joriy yer monitoring ishlari tuman va shahar hokimiyatlari qoshidagi yer tuzish va yer kadastri ishchi guruxlar xodimlari tomonidan bajariladi.

Yer monitoringini o'tkazishning huquqiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga muvofiq tabiiy ob'ektlar, jumladan yer, umumxalq boyligi va ular davlat muhofazasida turadi.

Respublikamiz keyingi yillarda o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy va boshqa yo'nalishlarda sezilarli yutuqlarga erishdi. Bunda zarur qonunlarning ishlab chiqilganligi, iqtisodiy va siyosiy soxalarda mamlakatimizga mos va o'ziga xos yo'nalishlar tanlab olinganligi bosh omil bo'ldi. Xususan. qabul qilingan «Yer kodeksi», «qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida», «Davlat yer kadastri to'g'risida» va «Davlat kadastrlari to'g'risida»gi qonunlari yer resurslaridan unumli foydalanish va respublika iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Yerni muhofaza qilish va undan samarali foydalanish avvalam bor uning huquqiy negizi qay yo'sinda ishlab chiqilganiga bog'liqdir. Yer tushunchasi o'zbek

tilida va fanning turli sohalarida turlicha ma'no anglatib, u planeta, planetamizning eng ustki qobig'i, tuproq qatlami grunt, mahalliy joy, hudud, mulkchilik ob'ekti, foydalanish, ijaraga olish, va qolaversa tabiiy muhitning biron bir ob'ekti sifatida qaraladi. Mashxur rus huquqshunos olimi V.V. Petrovning (1995) ta'biri bilan aytganda yerning huquqiy ma'nosi deganda biz planetamizning eng ustki unumdor qobig'ini tushunmog'imiz kerak ekan. Lekin, yer sharining eng ustki unumdor qobig'i tuproqshunoslik fanida tuproq deb atalishi bizlarga ma'lumdir. Tuproqning tog' jinslaridan farqi ham uning unumdorligidadir. O'zbekiston Respublikasining Yer to'g'risidagi qonuniga ko'ra foydalanish va muhofaza qilish kerak bo'lgan yer ob'ektiga toshliklar, qumliklar, sho'rxoklar ham kiradi. Ular ham foydalanish va ham muhofaza qilinishi kerak bo'lgan tabiiy resurslardan biridir. Undan tashqari yer osti boyliklari huquqshunoslikda alohida bir tabiiy ob'ekt sifatida qaraladi.

Tabiat muhitini muhofaza qilish bo'yicha, monitoring atrof muhitdagi tabiiy ob'ektlarni kuzatish va ularning holatini nazorat qilishga qaratilgan davlat xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Monitoring natijalari atrof muhitni kompleks baholash va uning holatini yaxshilash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqishda foydalaniladi.

Yer monitoringi yer tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish uchun yer fondining holatini va sifatini kuzatib turish tizimidan iborat.

Yer monitoringini yuritishning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi, "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi qonun, O'zbekistonda agro islohoti bo'yicha qonun hujjatlarida, O'zbekistonda ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish bo'yicha hukumat bayonnomalari va 2005 yilga qadar tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlari bilan belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15-iyul 1992 yil №491

"Yer monitoringi to'g'risidagi" hukumat bayonnomasida yer monitoringining asosiy vazifalari aniqlab berilgan.

5 fevral 1993 yilgi №100 hukumat bayonnomasida esa "O'zbekiston Respublikasining yer monitoringi davlat dasturi" tasdiqlangan va yer monitoringi bo'yicha qator aniq tadbirlar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 23 dekabrda gi «Yer monitoringi to'g'risida» gi nizomi ham qonunlarni hayotga bevosita tadb iq etishda katta ahamiyatga egadir.

Yer monitoringi O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastr i bosh boshqarmasi va O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitekturasi va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Huzuridagi gidrometeorologiya Bosh boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat biologiya va mineral resurslar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasining boshqa manfaatdor vazirliklari va idorlari ishtirokida amalga oshiriladi. Vazirliklar va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish, Yer monitoringi ma'lumotlarini umumlashtirish O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari Davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Vazirliklar va idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish, yer monitoringi ma'lumotlarini umumlashtirish O'zbekiston Respublikasining Yer resurslari davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Yer monitoring O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi tomonidan manfaatdor Vazirliklar, Davlat qo'mitalari va idoralar ishtirokida ishlab chiqarilgan va tasdiqlanadigan yagona uslub olib boriladi, bu uslub yerlarning holatini tezkor va muntazam kuzatishlarni amalga oshiriluvchi, tadkikotlar, tekshirishlar o'tkazuvchi yoki haritalovchi barcha korxonalar va tashkilotlar uchun majburiy hisoblanadi.

Idoraviy mansubligidan va mulkchilik shakllaridan kat'iy nazar yerlarni mavzuli haritalovchi va ularning holatini kuzatuvchi korxonalar muassasalar va tashkilotlar yer resurslari bo'yicha tegishli xizmatlarga ularning vakolatlari doirasida yerlarning miqdor va sifatlovchi holati to'g'risidagi ma'lumotlarning yer monitoringi va davlat yer kadastr i bo'yicha axborotlar kiritish uchun ko'rsatilgan ishlar bo'yicha materiallarning nusxalarni tekin beradi.

O'z navbatida yer resurslarini bo'yicha xizmatlarni, yerlarni mavzuli haritalovchi va ularning holatini kuzatuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ularning so'roviga binoan zarur materiallarni tekin beradilar.

Yer monitoringi yagona klassifikatorlar, kodlar, metrik birlik tizimi, ma'lumotlarning standart formatlari va me'yoriy -texnik baza, koordinatorlar va balandliklar davlat tizimiga asoslangan turli xil ma'lumotlarning bir-birlariga mosligi tamoyiliga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi yer resurslari davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi geodeziya, kartografiya va davlat kadastr bosh boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish komitetining «O'zbekiston Respublikasida Yer Monitoringi Uslubini tasdiqlash to'g'risida» gi qaroriga muvofiq O'zbekiston respublikasi Vazirlar Maxkamasining «O'zbekiston Respublikasida Yer monitoringi uslubini tasdiqlash to'g'risida»gi 2000 yil 23 dekabrda 496-sonli qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi yer resurslari davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi geodeziya, kartografiya va davlat kadastr bosh boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish komiteti qaror qabul qildi.

Bu uslub O'zbekiston Respublikasi yer resurslari davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi geodeziya, kartografiya va davlat kadastr bosh boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish komitetining 2001 yil 11 dekabrda qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu uslub tadqiqot, laboratoriya, kameral ishlarni amalga oshirishda qo'llanma bo'lib, u bajariladigan ishlarni o'rganish, umumlashtirish, tartibga solish va avtomatlashtirishni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi muxtor respublika, viloyatlar yer fondining holati to'g'risidagi axborotlar, hisobotlar, ilmiy prognozlar, dokladlar ko'rinishida rasmiylashtiriladi va vaqti-vaqti bilan maxsus nashriyotlarda e'lon qilinadi. Yer monitoringi bo'yicha ishlarini kordinatsiyalashtirish va rahbarlik qilishni O'zbekistonning yer kadastr federal xizmati amalga oshiradi. Yer

monitoringi ma'lumotlaridan foydalanuvchilar davlat organlari, O'zbekiston yer kadastrining federal xizmat, munitsial boshqaruv organlari, va uning faoliyati yerdan foydalanish bilan bog'langan joylardagi korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va boshqa idoralar, ayrim fukarolar, xalqaro va chet el organlari atrof muhitni muhofaga qilish, yerdan foydalanish va tabiatdan foydalanish sohasidagi tashkilotlar bo'lib hisoblanadi. Yer Monitoringi bo'yicha ishlarni yanada rivojlanishi uchun yer monitoringining axborot va texnologik bazasini yaratish zarur. Uni O'zbekiston hududida zond bilan masofali tekshirishni yer ustida kuzatish bilan texnikaviy vositalarni qo'llash orqali, O'zbekiston yerlarida salbiy jarayonlari bartaraf qilish va o'z vaqtida oldini olish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish va realizatsiya qilishni ta'minlash tadbirlarini bosqichma- bosqich tashkillashtirish mumkin.

Shunday qilib, yerning huquqiy ma'nosi uning biron bir aniq foydalanish va muhofaza qilishning ma'lum bir chegarasini belgilab berishi kerak. Huquqiy ma'noda tuproq-sayyoramizning eng ustki alohida bir tabiiy ob'ekti bo'lib, uning qalinligi yerdan foydalanuvchi sub'ektlarning yerning holatiga ta'sir etish darajasiga qarab tabaqalashgan holda bo'ladi.

Yer monitoringini o'tkazishning amaldagi uslublari.

Tuproq tadqiqotlari va ma'lumotlarni tuzatish. Tuproqlar amaliy tadqiqotlari monitoring tizimida yordamchi bo'g'in bo'lib, u birlamchi tuproq tadqiqotlarini va ma'lumotlarni tuzatishni nazarda tutadi, hamda dala tadqiqotlari va kameral ishlar respublikada bor bo'lgan va amaldagi ko'rsatmalar va uslubiy qo'llanmalar talablariga muvofiq bajariladi. Amaliy tadqiqotlarni o'tkazishdan maqsad, tuproq qoplaminig zamonaviy holati va tabiiy-antropogen omillar ta'sirida o'zgarishlari to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni olish va qayta ishlangan dala va analitik ma'lumotlar asosida tegishli haritalar, haritagammalar tuzish va ularga tushuntirish xatlari yozishdir.

Qishloq xo'jaligi yerlari tuproqlarida suv, sug'orish va shamol eroziyalarining lokal rivojlanishi monitoringi. Suv, sug'orish va shamol eroziyalarining rivojlanishi monitoringi, tuproq va tuproq-eroziya tadqiqotlari

ma'lumotlariga asoslanadi va masofali, yer ustida va aralash usullarda amalga oshiriladi. Tuproqlarni suv, sug'orish va shamol eroziyalari rivojlanishiga uchrash darajasiga ko'ra ajratish diagnostika ko'rsatkichlari bo'yicha tegishli ko'rsatmalarga mos ravishda amalga oshiriladi. Shamol eroziyasining rivojlanishini bashoratlash turli mexanik tarkibli tuproqlarning deflyatsiyaga chidamliligi darajasiga tayanadi. Suv va sug'orish eroziyalarining rivojlanishini bashoratlash esa tuproqning mexanik tarkibi, chirindililigi tayanadi, bunda yonbag'irning ekspozitsiyasi, uzunligi, qiyaligi e'tiborga olinadi.

Qishloq xo'jaligi yerlari tuz rejimining lokal o'zgarishi monitoringi. Sho'rlangan tuproqlarni miqdor va sifat jihatidan hisobga olish va monitoringini o'tkazishda dastlabki ma'lumotlar sifatida yirik masshtabli tuproq tekshirishlari va tuproq tuz tadqiqotlari ma'lumotlari xizmat qiladi. Sho'rlangan sug'oriladigan va qo'riq tuproqlarning tarqalish areali va sho'rlanish darajasi o'zgarishlari monitoringi dala usulida amalga oshiriladi. shurf va skvajinalar soni s'emka masshtabi bilan chegaralanadi, namuna olish usuli va tuproq gorizontlari soni esa sho'rlanish harakteri bilan belgilanadi. hisoblar «sho'rlangan yerlarni sifat va miqdoriy hisobga olish uslubi» (toshkent, 2000) asosida o'tkaziladi. Tuproq sho'rlanishiga oid aniqlangan o'zgarishlar harita- plyurda tasvirlanadi va tushuntirish xatida yoritiladi, ishning uslubi yoritiladi va tuproq tuz rejimidagi o'zgarishlar tahlili beriladi. Sug'oriladigan tuproqlar tuz rejimi o'zgarishlari monitoringini amalga oshirishda tuproqning sho'rtoblanish ehtimolini nazorat qilib borish lozim.

Qishloq xo'jaligi yerlarining og'ir metallar va toksik elementlar bilan lokal ifloslanishini monitoringi. Og'ir metallar va toksik elementlar miqdori monitoringi uchta o'zaro bog'langan faoliyatdan tashkil topadi:

a) og'ir metallar va toksik elementlar miqdorini tuproqda, atmosferada va suv manbalarida kuzatish;

b) tuproqlar, atmosfera va suv manbalarining og'ir metallar va toksik elementlar bilan ifloslanishi darajasini baholash;

v) tuproqlarda, atmosferada va suv manbalarida og'ir metallar va toksik elementlarning kelajakdagi miqdori bashoratini tuzish;

Tuproqlarning og'ir metallar va toksik elementlar bilan ifloslanish jadalligini nazorat qilish, tekshirish hududi tabiiy sharoitini o'rganish bilan birgalikda olib boriladi va bu ishlar quyidagi uch davrda bajariladi: tayyorgarlik, dala va kameral.:

1) tayyorgarlik davrida tabiiy sharoitlarni tavsiflovchi nashr etilgan ma'lumotlar to'planadi va bir tizimga tushiriladi, ifloslantiruvchi manbalar borligi haqidagi ma'lumotlar yig'iladi.

2) dala tadqiqotlaridan oldin hudud aniqlik kiritish uchun aylanib chiqiladi. Ifloslanish zonalarini ajratiladi, shamol «guli» bo'yicha yo'nalishlar profili, ekologik maydonchalar va tayanch kesmalar joyi belgilanadi. Muayyan sharoitlarga bog'liq holda tuproqning og'ir metallar va toksik elementlar bilan ifloslanganlik harita va kartogrammalari tuziladi. Bunda tuproqni og'ir metallar bilan ifloslanganlik darajasini aniqlash uchun dala tadqiqotlari, harita va kartogrammalar quyidagicha tuziladi:

a) poligonlarda 1:25000-1:50000 masshtabda;

b) stasionarlarda 1:10000-1:25000 masshtabda;

v) ekologik maydonchalarda 1:1000-1:5000 masshtabda.

Dala tadqiqotlari va tuproqlarning og'ir metallar va toksik elementlar bilan ifloslanishining dastlabki haritalarini tuzish uchun masshtabi dala tadqiqotlari masshtabiga mos keluvchi tuproq haritasi xizmat qiladi. Tuproq haritasiga shamol «guli» konturi, ifloslanishi mumkin bo'lgan zonalar, marshro'tlar (profilar) tarmog'i tushiriladi. Tuproqning morfologik tuzilishi, fizik-kimyoviy xususiyatlarini tavsiflash uchun tuproq kesmalari tushiriladi. Kesmalar chuqurligi 1 metr. Laboratoriya taxlillari o'tkazish uchun har 10 sm dan tuproq namunalari olinadi. Og'ir metallar va toksik elementlarning tuproqdagi miqdori to'g'risida ishonchli ma'lumotlar olish uchun tuproq namunalari olishda, saqlashda va transportirovka qilishda ifloslanishdan saqlovchi sharoitlar yaratilishi zarur. Yo'l chetilaridan (avtomobil va temir yo'l ta'siri ostidagi zonalardan) tuproq namunalari chiziqli marshrut bo'yicha rel'efi, tuprog'i, o'simliklari va namligini hisobga olgan holda olinadi. Tuproqlar og'ir metallar va toksik elementlar bilan ifloslanish darajasiga ko'ra quyidagicha ajratiladi:

a) ifloslanmagan (og'ir metallarning chegaralangan konsentratsiyasidan (ChK) kam);

b) mo''tadil ifloslangan tuproqlar (og'ir metallarning konsentratsiyasi ChK ga teng);

c) ifloslangan tuproqlar (og'ir metallar konsentratsiyasi ChK dan ko'p).

Dala va laboratoriya tadqiqotlari natijasida quyidagilar tuziladi: tuproqning og'ir metallar va toksik elementlar bilan ifloslanganligi haritasi (haritogrammasi), tushuntirish xati va tuproq pasporti.

qishloq xo'jaligi yerlari tuproqlarining texnogen degradatsiyasi monitoringi. Tuproqlarning texnogen degradatsiyasi monitoringi yerlardan foydalanish dinamikasini bir tizimga keltirilgan rejimli kuzatuvlardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Dala ishlari materiallari asosida qishloq xo'jalik yerlari texnogen degradatsiyasi haritalari (haritogrammalari) va buzilish turlari va darajalari bo'yicha maydonlari vedomosti tuziladi, shuningdek qisqacha tushuntirish xati yoziladi.

Neft mahsulotlari bilan tuproqlarning lokal ifloslanishi monitoringi. Neft qazib olish hududlarining sanitar-himoya zonasida va sanoat maydonchalarida tuproqning ifloslanishini nazorat qilish tuproq namunalarini laboratoriyada analiz qilish orqali amalga oshiriladi. Laboratoriya analizlari uchun tuproq kesmalari soni, namunalar soni va chuqurligi tadqiqot dasturida belgilanib, ifloslantirish manбайдan turli uzoqlikda shamol «guli»ga mos holda olinadi. Ajratib olingan tuproq namunalarida og'ir metallar va toksik moddalar, brom, yod, fluor, bor, oltingugurt, neft mahsulotlari va yuzadagi faol moddalar aniqlanadi.

Laboratoriya tadqiqotlari natijalari tushuntirish xatida jadvallar, grafiklar, diagrammalar tarzida yoritiladi.

O'simliklarda og'ir metallar va toksik moddalar to'planishi monitoringi. O'simliklarning og'ir metallar va toksik moddalar bilan ifloslanishi darajasi va dinamikasini aniqlash uchun, har bir o'simlik turidan alohida namunalar olinadi. Bunda albatta o'simliklarning rivojlanish fazasi ko'rsatiladi, chunki vegetatsiya davrida og'ir metallar va toksik moddalar miqdori o'zgarib boradi.

Qishloq xo'jaligiga yerlari tuproqlarining pestitsidlar va gerbitsidlar bilan ifloslanishi monitoringi. Tuproqlarning pestitsidlar va gerbitsidlar bilan ifloslanishi monitoringi rejimli dala, laboratoriya va kameral tadqiqotlarda amalga oshiriladi, bunda ularning miqdori aniqlanadi. Tuproqlarning pestitsidlar va gerbitsidlar bilan ifloslanishi monitoringida namunalar olish nuqtalari soni tadqiqotlar masshtabini va yer uchastkasi tuzilishi kategoriyasini e'tiborga olgan holda ish dasturida belgilanadi.

Tadqiqotlar natijalari asosida tuproqlarning pestitsidlar va gerbitsidlar bilan ifloslanganligi haritagrammasi, ularning havflilik sinfini ko'rsatgan holda tuziladi va tushuntirish hati yoziladi.

qishloq xo'jaligi yerlarining mineral o'g'itlar qoldiqlari bilan ifloslanishi monitoringi. Og'ir metallar va ftor miqdori monitoringi fosforli o'g'itlar qo'llanilgan yoki qo'llanilayotgan qishloq xo'jaligi yerlarida, shuningdek bu o'g'itlarni tayyorlovchi-zavodlar ta'sir doirasidagi hududlarda amalga oshiriladi. Haddan ortiq mineral o'g'itlar qo'llanilgan tuproqlar ifloslanganligi monitoringi dala, laboratoriya va kameral tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tuproqlarga kesmalar tushirish tartibi va tuproq kesmalari soni, ularning chuqurligi, namunalar olish va saqlash amaldagi ko'rsatmalar asosida aniqlanib, olingan natijalar asosida tushuntirish xatida yoritiladi va haritada aks ettiriladi.

Yer monitoringini o'tkazish uslublarini takomillashtirish.

Yer monitoringini o'tkazish uslublarini takomillashtirishda tuproq monitoringini tashkil etish va kalit maydonlari tizimini joylashtirish maqsadida olib boriladigan tayyorgarlik bosqichida tuproq, tuproq- meliorativ, tuproq-eroziya ishlari bo'yicha o'tgan davr mobaynida bajarilgan izlanishlar, laboratoriya tadqiqotlari ma'lumotlari hisobga olinadi, umumlashtiriladi, tahlil qilinadi. 2 va undan ortiq tur izlanishlari ma'lumotlari mavjud hollarda ko'p tarqalgan tuproqlarni tanlashda ustivorlik yirikroq masshtabda bajarilgan s'emka ishlariga beriladi, agarda ular teng qiymatli bo'lsa zamonaviylariga beriladi viloyat yerlarini tasarruf qilish va yerlardan foydalanish sxemasida tuproq ma'lumotlari mavjudligi kartogrammasi

tuziladi.

Har bir kalit maydoni ushbu tabiiy va qishloq xo'jalik landshafti uchun tipik bo'lgan tuproq xilini mujassam etishi kerak. Kalit maydonlarini tanlash ushbu hududning geomorfologik tuzilishini va qishloq xo'jaligida foydalanilishini e'tiborga olgan holda tuproq- iqlimiy rayonlashtirilishi asosida quyidagi yerlar uchun tanlanishi lozim:

- a) sug'oriladigan haydalma yer (ilgari ekilgan qo'riq yer bilan) - 7 dominant;
- b) lalmikor haydalma yer (ilgari ekilgan qo'riq yer bilan) - 5 dominant;
- v) tabiiy pichanzorlar (yaylovlar) - 3 dominant.

Tuproq xillarining tarqalish maydonlarini ko'rsatuvchi man'ba sifatida tuproq haritalari va ularga ilova qilingan tushuntirish xatlari xizmat qiladi. Eng ko'p tarqalgan tuproq xili (dominant) ma'lumotlari ularning umumiy maydonlari va salmog'i ko'rsatilgan holda har bir yer turi (ugodya) bo'yicha jadvalga kiritiladi. Jadvaldagi ma'lumotlar asosida viloyat bo'yicha tuproq xillarining ja'mi maydoni aniqlanadi, shu asosda tuproq dominantlari soni aniqlanadi va kalit maydonlari joylashuvining dastlabki tarmog'i belgilanib, viloyat harita-asosiga tushiriladi. Tuproq haritasidan dominant tuproqlar joylashgan qismlari ko'chirib olinadi. Natijada viloyat yetakchi tuproq dominantlarida kalit maydonlari joylashuvining taxminiy joylari belgilanadi va keyinchalik statsionar ekologik maydonchalar (sem) joylashtiriladigan nuqtalar aniqlanadi, qolgan tuproq dominantlarida yarimstatsionar ekologik maydonchalar (yasem) joylashtiriladi.

Tuproq, agrokimyoviy, iqlimiy ko'rsatkichlarining to'liq majmuini kuzatish uchun joylashtirilgan ilmiy kuzatuvlar tarmog'ini hududda (regionda) joylashgan ko'p yillik rejimli kuzatuvlar olib boruvchi tajriba maydonlari, nav maydonlari, iti tajriba dalalari, meteostansiyalar, meteopostlar, gidropostlar va boshqa statsionar kuzatuv maydonlari bilan muvofiqlashtirish zarur.

Kalit maydoncha hajmi 100 gektarga teng bo'lishi kerak. har bir kalit maydonchasida tuproqni har tomonlama tekshirish jarayonida rejimli kuzatuvlar uchun 1 dan 3 tagacha maydoni 1 gektardan kam bo'lmagan, har qanday tuzilishga (konfiguratsiya) ega statsionar ekologik maydonchalar ajratiladi. yarimstatsionar

ekologik maydonchalar soni har bir zonada geomorfologik rayonlar soniga teng bo'lishi lozim. Tuproq parametrlarining yo'nalishi va jadalligining vaqt mobaynida tabiiy-tarixiy rivojlanish va inson ta'sirida o'zgarishlarini aniqlash uchun har bir eng ko'p tarqalgan tuproq xili bo'yicha, oxirgi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlangan, ma'lumotlar yoziladi.

Har bir yetakchi tuproq turi bo'yicha fizik-kimyoviy, suv-fizikaviy va morfologik xossalari majmuasining ma'lumotlari jadvalga ko'chirib yoziladi. Har bir yetakchi tuproq turining nazorat qilinayotgan barcha parametrlari ko'rsatkichlarining o'rtacha arifmetik qiymatlari genetik gorizontlar va kerakli qatlamlar uchun hisoblab chiqiladi. Hisoblab chiqishlar tuproq tadqiqotlarining har bir davri uchun alohida o'tkaziladi. Davrlar quyidagi vaqt muddatlari bilan chegaralanadi: 1971 yilgacha, 1971- 1980 yillar, 1980 yildan keyingi yillar.

Bir xil uslublar bilan aniqlangan kimyoviy analiz natijalari matematik ishlovdan o'tkazilib, ular asosida ma'lum vaqt (monitoring o'tkazish boshlanguncha) ichida nazorat qilinayotgan tuproq parametrlari majmuasi dinamikasining yakuniy jadvali tuziladi. Har bir hisobga olinayotgan qatlam uchun dinamiklik protsenti hisoblab chiqiladi. Vaqt davomida tuproq parametrlarining eng yuqori ifodalangan o'zgarishlari diagramma shaklida ko'rsatiladi. Har bir tabiiy - ma'muriy birlik uchun tuproq ma'lumotlarining umumlashtirilgan va tahlil qilingan natijalari bo'yicha quyidagi reja asosida tushuntirish xati tuziladi:

Muqadima (ishning buyurtmachisi, maqsadi, vazifalari, foydalanilgan materiallar, tuproq s'mkasi turlari, tadqiqot o'tkazilgan sana, ishni bajaruvchi tashkilotlar, se'mka ishlari uslublari va boshqalar ko'rsatiladi).

Qisqacha umumlashtirish va materiallarni tahlil qilish uslubi.

Tabiiy sharoitlari (geomorfologiyasi, rel'efi, tuproq hosil qiluvchi jinslari, gidrografiyasi, gidrogeologiyasi, iqlimi, o'simliklar dunyosi va boshqalar).

Hududni tuproq-iqlimiy rayonlashtirish.

Tuproqning genetik-evolyutsion qayta shakllanishini, tuproq qatlamlari strukturasi va yuqorida sanab o'tilgan tuproq parametrlari asosiy ko'rsatkichlari o'zgarishlarini aniqlash maqsadida tadqiqotlarning turli davrlaridagi (1971 yilgacha,

1971-1980 yillar, 1981 yildan keyin) tuproq materiallarining qiyosiy tahlili. Tadqiqotlarning oxirgi davrlari natijalari bo'yicha monitoring tadqiqotlari o'tkazilishi kerak bo'lgan tuproq dominantlari ajratiladi.

Dominant (yetakchi) tuproqlar tavsifi. Tuproqlar genezisi va ularning morfologik tuzilishi bayon etiladi, shuningdek monitoringni o'tkazishda nazorat qilinadigan asosiy tuproq parametrlari ko'rsatkichlari keltiriladi. Tuproqlarning tarixi va o'zlashtirilish davri, almashlab ekish turlari, yetishtirilayotgan ekinlar va ularning o'tmishdoshlari, tadqiqot davrlaridagi (1971, 1971-1980, 1981 dan keyin) qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi, qo'llanilayotgan agrotexnik tadbirlar va boshqalar ko'rsatiladi.

Xulosa qismida barcha o'rganilgan dominant tuproq turlarida sodir bo'lgan o'zgarishlarning jadalligi va yo'nalishlari va ularning sabablari ko'rsatib o'tiladi, shuningdek tuproq ekologiyasi va unumdorligini belgilovchi tuproq ko'rsatkichlarini maqbullashtirish bo'yicha dastlabki tavsiyalar beriladi.

Dala tadqiqotlari davri ikki bosqichdan iborat bo'ladi:

1) tuproq jarayonlarining rivojlanishi va transformatsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi xossa va xususiyatlarining va omillarning dastlabki (monitoring boshlanishi davridagi) holatini o'rganish nazarda tutiladi. birinchi bosqich natijalari ko'p yillik rejimli kuzatuvlarni olib borishning dastlabki bazasi bo'lishi kerak.

2) tuproq va ekologik ko'rsatkichlar komplekslari bo'yicha ko'p yillik rejimli kuzatishlardan iborat.

